

•JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN•

TOG'LIKNING O'LIMI

Hikoyafar topshami

TOG'LIKNING O'LIMI

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 821.162.3-32
KBK 84(4Chesh)-445
G 78

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

Qandilat Yusupova va boshqalar.

Yaroslav Goshekning „Tog'likning o'limi“ hikoyasi bilan nomlangan ushbu kitobda jahon adiblarining o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladigan hikoyalari o'rinni olgan. Bu to'plamdagagi hikoyalarning qahramonlari boshidan kechirgan voqealar sizni o'ylashga, hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

**Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/22-1**

ISBN 978-9943-8576-0-5

© Qandilat Yusupova va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Biz bugun, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalarini bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarurdir.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishhasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chekov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarları bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rın olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy mezonlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlар oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonaqon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Frans KAFKA

HUKM

Bahor faslining ajoyib dam olish kunlaridan biri, tong mahali edi. Yosh tadbirkor Georg Bendeman daryo yoqasidagi pastak uyining birinchi qavatidagi ish bo'lmasida o'tirardi. Daryo bo'y-lab qator qad rostlagan uylar ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshar, ular bir-biridan faqat rang-tusi va past-balandligi bilan farqlanardi, xolos. U xorijda yashovchi bolalik do'stiga jo'natmoqchi bo'lgan xatni yozib tugatdi, so'ng varaqni ivirsib xatxaltaga joyladi va yozuv stoliga suyangancha derazadan ko'rini turgan daryoga, ko'prikkva va narigi sohil tomonlarda endi-endi ko'klanib kela-yotgan adirga ko'z tashladi.

O'sha do'sti vatanida ishlari yurishavermaga-ch, toqati-toq bo'lgani, bir necha yil muqaddam Rossiyaga jo'navorib zap ish qilganini o'ylab ket-di. Hozir u Peterburgda tijoratchi, avvaliga uning ishlari rosa yurishdi, biroq do'sti ozib-yozib kelib qolgan kezlari keyingi paytda ishlari orqaga ketayotganidan shikoyat ham qilib qo'yardi. Xullas, u musofirchilikda durustroq naf topayotgan bo'lmasa-da, o'sha besamar ishining etagini tutgan, bolalikdan tanish chehrasi, begona yurtda o'stirilgan soqoliga qaramay kasalmandlik alomati bo'l-

mish zahil basharasi undagi xastalikning hamon barham topmaganidan dalolat berib turardi. Aytishiga qaraganda, o'sha tomondagi vatandoshlar bilan til topishib ketolmagan, ustiga-ustak rus oilalaridan ham do'st-yor orttirolmagan, va shu tariqa so'qqaboshligicha qolgandi.

Boshdan oyoq boshi berk ko'chaga kirib qolgan bunday odamga nima deb ham xat yozarding? Achinsang-achinarsan-u, biroq yordam be-rishning mutlaqo iloji yo'q. Vatanga qaytgin, shu yerda ham yashagandek bo'lib yuraver, eski osh-na-og'aynilar bilan qayta topishib olsang – bunda hech kim mone'lik ko'rsatmaydi – qolganiga yor-do'stlar qo'llab yuborishar deb maslahat be-rish kerakmikan? Biroq buning boshqa tomoni ham bor, ya'ni qanchalik muloyimlik qilmagin, u so'zlariningni og'ir olishi muqarrar, – axir bunday gaplarni aytish, shuncha payt sarson-u sargardon sang'ib, yolchitib hemiri orttirolmading, endi havoyi yurishlaringni yig'ishtir-da, uyingga qayt, degandek gap-da, uyiga qaytgach esa odamlar uning noshudligini betiga solishadi, hech yoqqa sang'imay ham shu yerda ishini qoyillatib yurgan do'stlari uddaburon-u, u esa so'qimday, hech vaqoni uddalolmaydi deganlaridek, u holda uning uchun yagona yo'l qoladi: bu yog'iga yor-do'stlari chizgan chiziqdandan chiqmay, kim nima desa o'shanning izmida yuraveradi. Qolaversa uni bu qadar iztirobga solmayman deyolmaysan ham. Hoynahoy, uni vatanga qaytishga ko'ndirish ham oson emasdir – bir safar bu yerdagi shart-sharoitlaridan begonalashib ketdim degandi-ku – shunda u aqlan tushunib yetsa-da, musofirchilikni afzal bi-

laveradi, harchand ko'ndirishga urinishlar bil'aks uning qaysarligini oshiradi va ishlar chappasi-ga ketib, u sobiq do'stlaridan battar uzoqlashib ketishi hech gapmas. Basharti u maslahatlarga ko'nib, qaytsa-yu, bu yerda o'zini xo'rlangandek his qilsa – boshqalarning aybi bilan emas albat-ta, shart-sharoit yo'qligi tufayli shunday bo'lishi ehtimoldan xoli emas – va shuning oqibatida so-biq do'stlari bilan chiqishib ketolmasa, ularning ko'magisiz esa oyoqqa turib olishi amri mahol, o'zining ahvoldidan isnodga qolib yursa va vatan-dan ham, do'stlaridan ham hafsalasi pir bo'lsa, shunday holatga tushganidan ko'ra, har qancha ishi yurishmagan taqdirda ham o'sha musofirchi-ligida yuravergani ma'qul emasmi? Ahvol shun-day bo'lib turgan bir paytda u bu yerda yo'lini topib ketishiga umid bog'lashi mumkinmi?

Mana shu kabi mulohazalar bois unga xat yo'llagan taqdirda ham shunchaki tanish-bilish-ga yozayotgandek yozish kerak. Do'stining vat-tanga qadam bosmaganiga uch yildan oshib ket-di, buni u arzimagan vajlar bilan asoslamoqchi bo'lar, ya'ni Rossiyada siyosiy beqarorlik hukm surib turgan bir paytda, unga o'xshash mayda tadbirkorlar birrovga bo'lsa-da uyoq-buyoqlarga ketishining sira iloji yo'q emish. Vaholanki, yuz minglab ruslar butun dunyo bo'ylab emin-erkin sayr-u sayohat qilib yurishibdi. Bu yog'ini so'ra-sangiz, ayni shu uch yil mobaynida Georgning hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bundan ikki yil muqaddam onasi vafot etganidan, o'shandan buyon Georg keksa otasi bilan birga yashayot-ganidan do'sti boxabar, yozgan xatida sovuqqina

hamdardlik izhor ham qilgan, chamasi, musofirchilikda bunaqangi ayriliqlardan tug'ilajak qayg'u to'la idrok etilmas, ehtimol. O'shandan buyon Georg savdo-tijorat ishlariga, shu qatori boshqa ishlariga yanayam qattiqroq mukkasidan ketgandi. Hoynahoy, onasi hayotlik davrida otasi uni bu qadar o'z holiga qo'ymas edi, zero xizmat borasida u yakka o'zinigina tan olar, garchi onasining vafotidan so'ng otasi hamon ishlayotgan esa-da, burungi shashtidan tushgan, ehtimol – nazarida, bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas – shart-sharoitning ancha qulay kelib qolgani jiddiy ahamiyat kasb etdi – har qalay, keyingi ikki yil ichida Bendemannning firmasi kutilmaganda shu qadar gullab-yashnadiki, burungidan ikki baravar xizmatchilar yollandi, savdo aylanma mablag'i besh baravarga oshdi, shu ketishda kelgusidagi ishlar bundan-da a'lo bo'lishi muqarrar edi.

Biroq do'sti bunday o'zgarishlardan bexabar. Ilgari – chamasi, hamdardlik bildirgan o'sha xatida shekilli – Georgni Rossiyaga kelishga da'vat qilgan, asli nasli tijoratchi bo'lgan Georgdek odamlarga Peterburgda porloq istiqbollar kulib boqishini bat afsil bayon etgan edi. Oshnasi xatida keltirgan raqamlar Georg bu yerda qo'lga kiritayotgan yutuqlar oldida hech narsaga arzimasdi. Biroq Georg tijorat sohasidagi muvaffaqiyatlarini do'stiga doston qilgisi kelmadi, ular haqida endi yozguday bo'lsa do'stida g'alati taassurot qoldirishi mumkin. Shu bois ham Georg dam olish kuni xotirjam o'tirib olib xayolga nima kelsa bir boshdan erinmay yozayotgan edi. U faqat bir narsani – do'sti uzoq yillardan buyon musofirchilikda

qadrdon shahar haqidagi o'zgargan qarashlariga va bunga ko'nikishlariga putur yetkazishni istamayotgan edi. Shu kabi xayollarda Georg bir-biridan ancha uzoq vaqtarda yo'llagan uch xatida do'sti bilan o'zi uchun mutlaqo aloqasi bo'lman kishining yanayam mutlaqo begona bo'lgan qiziga unashadirilgani xususida yozgan, garchi Georgning o'zi istamasa-da, do'stini bunga qiziqtirib ulgurgandi.

Biroq Georg bir oy muqaddam anchagina bo'bro' oilaning qizi bo'lmish froylyn Frida Brandenfeld bilan unashadirilgani haqida yozish uning uchun ko'proq ma'qul tuyulayotgan edi. U bo'lg'usi kelin bilan do'sti va u bilan yozishmalarida tutgan uslubi xususida ko'p martalab suhbatlashdi.

– Bundan chiqdi, do'sting to'yimizda ishtirok etmaydimi? – deb so'radi qiz. – Lekin men sening barcha do'stlaring bilan tanishib olishim mumkin bo'lar.

– Uni bezovta qilgim kelmayapti, – javob qildi Georg. – Meni to'g'ri tushun: taklif qilsak, u albatta keladi, har qalay mening fikrim shunday, biroq u bizni ko'rib xijolat chekadi, hatto o'ksinski ham mumkin, menga havasi keladi va turgan gapki, bundan unda qattiq norozilik paydo bo'la-di – noroziligiga chidolmay – yolg'iz o'zi qaytishiga to'g'ri keladi. Bir o'zi, yolg'iz qaytish nima ekanini tushunasanmi?

– To'yimiz bo'lganini boshqalardan eshitib qolsa-chi?

– Eshitsa-eshtar, men buning oldini ololmayman, lekin uning hozirgi yashash tarzida qulog'i-ga yetmay qolishi ham hech gap emas.

– Hamon do'stlaring shunday odamlar ekan, Georg, sen ham uylanmaganing ma'qul edi.

– Bu borada ikkovimiz ham aybdormiz. Lekin men iddao qilmoqchi emasman.

Qiz uning qaynoq va tinimsiz o'pichlaridan behol nafas rostlab, dedi:

– Har qalay achinyapman-da.

Shundagina Georg do'stiga bor-yo'q gapni boricha yozishning hech qanday xavotirli joyi yo'qku, degan qarorga keldi. „Men qanday bo'lsam, bas, shundayligicha bo'lsin-da, – deya ahd qildi u. – Do'stligimiz deb men o'zimni o'zgartirolmayman, o'zimdan boshqa odam yasolmayman-ku“.

Shunday qilib, dam olish kuni ertalabdan yozishga kirishgan uzundan uzoq xatida o'zining unashtirilayotgani to'g'risidagi xabarni quyidagicha bayon qildi: „*Eng yaxshi xushxabarni men xatimning oxiriga saqlab qo'ygandim. Men ancha gina boobro' oila farzandi bo'l mish froylayn Frida Brandenfeld bilan unashtirildim, ularning oilasi sen bu yerlardan jo'nab ketgach, ancha keyin shahrimizga ko'chib kelishgan, shu bois sen uni tanimaysan. Keyingi xatlarimda qaylig'im to'g'risida yozarman, bu safar men g'oyatda baxtiyorligimi, sen bilan oramizdagи munosabatlarda faqat bir narsa o'zgarganini – hozirga qadar sening oddiygina bir do'sting edim, endilikda esa judayam baxtiyor do'sting ekanligimni ta'kidlab qo'yishim kifoya. Qolaversa, kelinning o'zi ham senga xat yozar, hozircha u senga g'oyibona salom yo'llashimni iltimos qilmoqda, kelin bilan samimiyl do'st tutinishing turgan gap, so'qqabosh yigit uchun shuning o'ziyoq katta gap. Sharoiting bu yoqlarga ke-*

lib, bizning to‘yga qatnashishingga monelik qilishi-ni yaxshi bilaman, lekin mening nikoh to‘yim sen uchun har qanday sabab-u vajlardan ko‘z yumib, kelishingga arzimaydimi? Nima bo‘lgan taqdirda ham o‘zingga va ro‘y-hushingga qarab ish tut“.

Georg yozuv stoli yonida qimir etmay va xatni qo‘lidan qo‘ymay ancha vaqtgacha derazadan tashqariga termilib o‘tirdi. Ko‘chadan o‘tib bora-yotgan tanishi bosh irg‘ab salomlashganiga e’tiborsiz, tabassum bilan javob qaytardi.

Nihoyat, u xatni kissasiga soldi-da, bir necha oydan buyon boshini suqib qaramagan otasining yotoq bo‘lmasi qarshisidagi kaltagina yo‘lakka o‘tdi. Shu tobda otasining huzuriga kirish zaruriyati ham yo‘q edi, chunki ota-o‘g‘il hamisha do‘konda uchrashishadi, restoranda ovqatlani-shadi: to‘g‘ri, kechki ovqatni har kim o‘zicha qilar, Georg o‘rtoqlari yoki keyingi paytda qaylig‘i bilan uchrashmagan taqdirdagina otasi bilan yarim soatcha umumiylar mehmonxonada o‘tirishar, bunday paytlarda ularning har ikkovi ham muk tushgancha gazetxonlikdan bosh ko‘tarishmasdi.

Georg ertalabki quyosh charaqlab turganiga qaramay, otasining yotog‘i qorong‘iligidan hayron bo‘ldi. Aftidan, kaftdakkina hovliga olib chiqadi-gan ro‘paradagi baland devor xonani quyoshdan to‘srandek ko‘rindi. Otasi onasini yodga soluvchi turfa buyumlar bilan to‘lib-toshgan burchakda xiralashib qolgan ko‘zlarini zo‘riqtirmaslik maqsadida gazetani yorug‘likka solib, yonlamasiga o‘tirardi. Nonushtaga tortilgan yemaklarga qo‘l urilmagan, ular keltirib qo‘yilgan holida o‘shanday turardi.

— Ha, Georg, senmisan, — otasi shunday deb darhol o'rnidan qo'zg'alib, unga peshvoz yurdi. Qadam olishidan egnidagi xalatning serbag'ir etaklari yoyilib ketdi. „Otam hamon pahlavon kelbatli“ degan o'y kechdi Georgning xayolidan.

— Judayam qorong'i-ku, — dedi u.

— Ha, qorong'i, — javob berdi otasi.

— Derazalar ham yopiq.

— O'zim ochmadim, shunisi ma'qul.

— Tashqari iliqqina, — dedi Georg xuddi avval boshlagan gapini davom ettirayotgandek, va o'tirdi.

Otasi stoldan idishni olib, qutining ustiga qo'ydi.

— Men senga aytib qo'ymoqchi bo'lib kirgandim, — davom etdi Georg otasining harakatlarini e'tiborsiz kuzatib, — unashtirilganim haqida Peterburgga xat yozdim.

U kissasidagi xatni chiqarmoqchi bo'lib qo'l suqdi-yu, o'sha zahoti niyatidan qaytib, xatni olmadi.

— Peterburgga deysanmi? — so'radi otasi.

— Og'aynimga, — deb izoh berdi Georg va otasining ko'ziga razm soldi. „Do'konda mutlaqo boshqacha tutadi o'zini, — deb o'yladi Georg. — Bu yerda kresloda yastanib o'tiribdi, qo'llarini ko'ksi ustida chambarak qilib olibdi“.

— Ha. Do'stingga, — dedi otasi ta'kid aralash urg'u berib.

— Ota, men faqat u haqida qayg'urayotganim uchun uylanayotganim to'g'risida yozmayotgan edim, boshqa sababi yo'q. Bilasan-ku, do'stim juda murakkab, mujmal odam. Uylanganim-

ni mendan eshitmay qo'ya qolsin, boshqalardan eshitsa-eshtar deb o'ylagandim, uning hozirgi yashash tarzida bitta-yarimtadan qulog'iga yetishi ham qiyin. Ishqilib, mendan eshitmasin, degan niyatda edim-da.

– Niyatingdan qaytdingmi? – deb savol qotdi otasi, so'ng gazetani deraza raxiga, ko'zoynagini esa gazeta ustiga qo'ydi va ularni kafti bilan to'sdi.

– Ha, niyatimdan qaytdim. Hamon u mening jonajon do'stim ekan, quvonchimga u ham sherik bo'lishi kerak, degan xayolga bordim. Shu niyatda sira ikkilanib o'tirmay yozishga qaror qildim. Yozishga yozdim-u, xatni jo'natishdan avval se ning oldingdan o'tib qo'yay degandim.

– Georg, – dedi otasi va kemshik tishlarini ko'rsatib, og'zini lang ochdi, – qulok sol! Men bilan maslahatlashishga kiribsan. Bu, sening sha'ningga durust albatta. Lekin sen menga bor gapni ochiq-oydin aytmasang, bu durustliging hech vaqoga arzimaydi, hech vaqodan o'n karra battarroq yomon narsa bu. Shu tobda bunga daxlsiz narsalar haqida og'iz ochmoqchi emasman. Mehribon onamizning vafotidan so'ng noxushdan noxush hodisalar ro'y beryapti. Ularning qulog'iga yetib borishi hech gapmas, hatto biz o'ylagan dan ko'ra tezroq yetib qolishi ham mumkin. Men savdo tashkilotimizda yuz berayotgan qandaydir voqealardan bexabar qolayotganga o'xshayap man, ehtimol, mendan hech nimani yashirish mayotgandir – shu tobda mendan nimalarnidir yashirishayotgandir degan xayolga borgim kel mayapti – mening burungi holim yo'q, xotira zaif

lashmoqda, hamma narsadan boxabar bo'lib yurishga qurbim yetmay qolyapti. Birinchidan, bu juda tabiiy hol, ikkinchidan esa onangning vafoti sendan ko'ra menga og'irroq ta'sir qildi. Hozir sening xating tufayli gap ochildimi, Georg, iltimos, meni laqillatma. Juda mayda, sariq chaqaga arzimaydigan narsa-ku, aldama meni. To'g'risini ayt, chindan ham Peterburgda o'rtog'ing bormi?

Georg hayron bo'lib o'rnidan qo'zg'aldi.

– Mening do'stlarimni o'z holiga qo'yaylik. Minta do'st bitta otamning o'rnini bosolmaydi, bilasanmi, men nimadan xavotirdaman? Sen o'zingni ehtiyyot qilmayapsan. Axir yosh o'tgani sayin tushunishi kerak-ku odam. Ishimizda sen bo'lmasang, mening qo'lidan hech narsa kelmaydi, sen buni juda yaxshi bilasan, biroq, bordi-yu ishimiz sening sog'lig'ingga ziyon yetkazayotgan bo'lsa, ertaning o'zidayoq do'konni yopaman-u, ikki dunyodayam qaytib ochmayman. Bunaqasi ketmaydi. Sen turmush tarzingni o'zgartirishing kerak. Zinhor kechiktirmay o'zgartirishing kerak. Mehmonxona charaqlab yotibdi-yu, bu yerda qorong'ida o'tirishingni qara. Ertalabdan yaxshilab qorinni to'ydirish o'rniga, nonushtaga qo'l ham urmabsan. Ochiq havo qanchalik foydali ekanini bilasan-u, bu yerda dimiqib o'tirishing nimasি. Yo'q, ota! Men vrachni chaqiraman-da, u nima desa shuni qilamiz. Yotoq bo'lmalarimizni almashtiramiz, sen derazasi ko'chaga qaragan xonada yotasan, men bu yoqqa ko'chaman. Xavotir olma, hech narsangga tegmaymiz, joylarini o'zgartirmaymiz ham, narsalar qanday turgan bo'lsa, shundayligicha ko'chirib o'tkazamiz. May-

li, hozir joyingga yot-da, damningni ol. Kel, men yechintirib qo'yaman, qarab turgin, shunday boplayki. Yoki hoziroq ko'chirishga kirishaymi? U holda hozircha mening karovatimda yota turgin. Shunday qilganimiz ma'qul ekan.

Georg oppoq sochli boshini solintirib olgan otasiga yaqin keldi.

– Georg, – otasi xam qilgan boshini ko'tarmay ohista ovozda chaqirdi.

Georg shu zahoti tiz cho'kdi-yu, otasining horg'in chehrasini, qorachiqlari g'ayritabiyy ravishda kengayib ketgan ko'zlarini unga qadab turganini ko'rdi.

– Peterburgda sening hech qanday do'sting yo'q. Sen hamisha maynabozchilik qilib kelgansan, endi shu qiling'ingni menga ham qilyapsan. Qayoqdan Peterburgda o'rtog'ing bo'larkan! Mutlaqo ishonmayman.

– Eslagin, ota, – otasini suyab kreslidan turg'azdi va uning behol turganini ko'rib egnidagi xalatni yechdi. – Uch yil burun o'rtog'im meh-monga kelgandi. Uni unchalik xushlamaganding. O'shanda kamida ikki marta u ketdi dedim, lekin u ketmagan, mening xonamda o'tirgandi. Uni yoqtirmaganingni tushunaman, o'zi, og'aynim g'alatiroq. Lekin u bilan juda ochilib suhbatlashgan ham eding. Uning gaplariga quloq solib, undan nimalarnidir so'rab-surishtirib o'tirganingni ko'rib sevingandim ham. Eslab ko'rgin, yoding dan ko'tarilmagan. O'shanda u rus inqilobi haqidada ajabtovur narsalarni gapirib bergandi. O'zining yumushlari bilan Kiyevga borganida, g'alayonlar chog'i bir ruhoniyl balkonga chiqib kaftini tilib

xoch shaklini o'yib yozgan va qonga botgan qo'lini ko'tarib olomonga murojaat qilgan. Duchi kelgan odamga shu haqda gapirib yurgan eding-ku.

Shu asnoda Georg otasini joyiga o'tqazdi-da, uning chitdan tikelgan ichki kiyimlari ustidan kiyilgan sun'iy gazlama kiyimlarini, paypoqlarini yechdi. Ichki kiyimlar ancha urinib qolganini ko'rib, otasini qarovsiz qoldirgani uchun o'zidan norozi bo'ldi. Otasi ichki ko'yylaklarini vaqtida almashtiryaptimi-yo'qmi, shulardan ko'z-quloq bo'lib turish ham uning vazifasi-da. U bo'lajak qaylig'i bilan otasining kelgusi hayoti haqida gaplashib ham olmadi, balki sukut saqlagan otasini o'z uyidan jildirmaslikka qaror qildi. Lekin Georg shu tobda otasini bu ahvolda qoldirib bo'lmaydi, bo'lajak uyiga uni ham ko'chirib o'tkazish kerak degan qat'iy qarorga keldi. Axir obdan o'ylab ko'rsa, kelgusida otasiga ko'rsatishga chog'lana-yotgan mehribonchiliklari armonga aylanishi ham hech gap emasga o'xshab qoldi.

Georg otasini ikki qo'llab ko'tarib oldi-da, uni o'rniga olib borib yotqizdi. Ko'tarib bora turib, to'satdan otasi betini o'g'lining ko'ksiga bosgan-chaga uning bo'ynidagi soat zanjirini o'ynayotganini ko'rib, qo'rqib ketdi. Otasi zanjirni shu qadar qat-tiq changallab olganidan u otasini darhol o'rniga yotqiza olmadi.

Biroq otasi o'rniga yotgan zahoti yana hushini yig'di. Ko'rpani dahaniga qadar tortib, yopindi. So'ng tantig'lanib Georgga qaradi.

– Uni eslading-a, ota, to'g'rimi? – so'radi Georg va otasiga dalda berib unga ishora qildi.

– Hamma yog‘imni yopdingmi? – xuddi u o‘z oyog‘ini ko‘rmayotgandek savol qotdi.

– Yotganing yoqdimi? – dedi Georg ko‘rpani tu-zatib qo‘yarkan.

– Ustimni yaxshilab yopdingmi? – takror so‘ra-di otasi, javobni jiddiy kutib.

– Xotirjam bo‘l, yaxshilab yopdim.

– Yo‘q! – birdan baqirib yubordi otasi. U us-tidagi ko‘rpani shu qadar shiddat bilan irg‘itib tashladiki, ko‘rpa havoda bir muddat yoyilib tur-di-da, otasi karavotda azot qad rostladi. Faqat bir qo‘li bilan karnizni tutib olgandi. – Sen meni qay-tib qo‘zg‘almaydigan qilib yopib qo‘ymoqchi eding, bilib turibman, ha, o‘g‘lingdan top ekan-da! Illo hali-veri sen meni yopib, yotqizib qo‘yolmaysan. Kuchdan qolsam qolayotgandirman, lekin shuni bir bilib qo‘y, senga kuchim yetadi, bemałol yeta-di. Sening oshnangni juda yaxshi bilaman. Agar o‘g‘lim o‘sanga o‘xshagan bo‘lganda boshqa gap edi, xuddi shuning uchun ham shuncha vaqt dan beri sen uni aldab kelyapsan. Nega boshqasini aldamayotganiningni bilib turibman! Nima, men undan qayg‘urib, g‘ussaga botmaganmanmi? Shuning uchun ham idorangda biqinib olasan – xo‘jayin bandlar, qabul qilolmaydilar deyisha-di-yu, bu kishim maynabozchilik qilib Rossiyaga xat jo‘natishdan qo‘llari bo‘shamaydi. Biroq, bax-timizga, ota o‘g‘ilning ich-ichidagisini ko‘rib-bilib turibdi, bu borada u hech kimga qarab qolgan emas, uning aqli butun. Endi sen otamni ostimga bosib oldim, u churq etmay yotaveradi deb xom-tama bo‘lyapsan, va qarabsizki, mening marha-matir o‘g‘lim uylanisiga qaror qilibdilar!

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM

INV № 1023/22-1

Georg ola-kula bo'lib ketgan ko'zlarini otasidan uzolmadi. Otasi to'satdan eslab qolgan petterburglik oshnasining siymosi Georgni tamom ishg'ol qilgandi. Nazarida, u olis Rossiyada butkul adashib ketgandek tuyuldi. U tunab ketilgan bo'm-bo'sh do'konning eshigi yonida turardi. Ana, u temir armatura tayoq bilan parcha-parcha qilib tashlangan rastalar, ochilgan-sochilgan oziq-ovqat mahsulotlari orasida garangsib turidi. Nima qilib u shu qadar olislarga ketib qoldi!

– Yo'q, sen menga qara! – baqirdi otasi unga va Georg beixtiyor karavot tomon yugurdi, yugurdi-yu, yarim yo'lda taqqa to'xtadi.

– Xonim etagini ko'tardi, – deya xonish qilib yubordi otasi, – xonim etagini ko'tardi, manjalaqi xonim shunday ko'tardiki, – otasi shunday deb turib, ko'ylagini shu qadar yuqori ko'targanidan otasining biqinidagi urush yillarida orttirgan yarasining chandig'i ko'rinish ketdi, – xonim etagini mana bunday va mana bunday ko'tardiki, sen o'z hirsingni qondirish ilinjida xonimning etagi ostiga tumshug'ingni suqib ola qolding. Sen onangning ruhini chirqiratding, do'stingni sotding, otangni ko'rpa-to'shakka mixlab qo'yding, niyating aniq – otang boshini ko'tarmay yotsin-u, qaytib nafasi chiqmasin! Qalay, ko'rib qo'y, qimirlashga holi-joni bormi-yo'qmi?

Otasi shunday deb hech narsani tutmay oyoqlarini dirillatgancha g'oz turardi. U o'zining ziyarakligidan ichki bir faxrlanish tuyg'usi bilan, chehrasidan nur taralardi. Georg otasidan mumkin qadar nariroqdagi xona burchagida turardi. U

otasi kutilmaganda – orqadan yoki tepadan ham-la qilib qoladi degan xavotirda hushyor bo'lib tur-gandi. Shu tobda shuni esladi-yu, go'yo uzoq urinishlaridan so'ng ignaning teshigidan ip o'tkazib olgan odamdek birdan yengil tortib, uni unutdi.

– Illo do'sting sadoqatli emas! – deya qichqirdi otasi va so'zlarining tasdig'i uchun ko'rsatkich barmog'ini havoda o'ynatib qo'ydi. – Men uni shu yerda, shahrimizda o'z qanotim ostiga olgan edim.

– Maynabozchilik! – Georg og'ziga kelgan so'zni aytib yubordi-yu, tilini tishladи, biroq bo'lar ish bo'lganidan, u shu qadar tilini qattiq tishladiki, ko'zлari kosasidan otilib chiqib ketayozdi, og'riqning zo'ridan o'tirib qoldi.

– Ha, to'g'ri aytding, men maynabozchilik qil-yapman! Maynabozchilik! Rosa topib aytding! Beva qolgan sho'rlik ota shundan bo'lak yana qanday ermak topardi? Ayt – mening suyukli o'g'lim bo'lib ayt, – yovuz xizmatchilari yuz o'gir-gan munkillagan chol mana shu zimiston sichqon kavagida nima ham qilardim? Mening o'g'lim esa emin-erkin, men kelishib qo'yan shartnomalariga imzo chekish xayolida o'ynab-kulib yuribdi, otasining ko'ziga juda boodob odamdek ko'rinib yuribdi! Nima, seningcha, men seni yaxshi ko'rishni istamaymanmi? Axir seni men dunyoga keltirganman-ku!

„Hozir u engashadi, – ko'nglidan o'tkazdi Georg. – Shu turishida yiqlilib shikastlanarmidi!“ Shu so'zlar uning xayolidan yelib o'tdi.

Otasi bir enkaydi-yu, o'zini tutib qoldi. Kutilganidek Georg uni tutib-suyab qolish uchun yugurib bormadi, otasi yana qad rostladi.

– Turgan joyingdan jilma! Sening menga kera-ging yo‘q. Yonimga kelishga o‘zingda kuch topa olarmiding, bunga xohishing yo‘qligi uchun ham yonimga kelolmaysan-da? Adashma! Hamon men sendan ko‘ra baquvvaturoqman. Basharti men yolg‘iz bo‘lganimda, hoynahoy yon bergen bo‘lарdim, lekin onang o‘z kuch-qudratini menga qoldi-rib ketgan, sening oshnang bilan ham obdan ke-lishib olganmiz, sening barcha mijozlarining mana bu yerda – cho‘ntagimda!

„Buni qara-ya, ichki ko‘ylagi ham cho‘ntak-li ekan“, – deb o‘yladi Georg, bir og‘iz so‘z bilan otasini boshqalar oldida sharmanda qilishi mum-kinligini xayoliga keltirib. U xayoliga kelgan fikrni shu zahoti unutib ulgurdi.

– Xonimchang bilan ko‘zimga ko‘ringin-chi! Shunday gaplar aytayki, ko‘zi ochilsin!

Georg otasiga ishonmayotgandek og‘zi qiysha-yib qoldi. Otasi esa u turgan burchakdan ko‘zini uzmay qarab turar, bu bilan o‘zining maynaboz-chilik qilmayotganini tasdiqlayotgandek edi.

– Huzurimga kirib oshnamga xat yozsammi-kan-yo‘qmi deb so‘rab rosa meni kalaka qilmoqchi bo‘lding-a! Tentak, og‘ayning allaqachonoq ham-masidan xabardor, hammasidan boxabar! Qa-lam-qog‘ozlarni yashirib qo‘yishni unutibsang-ku, men allaqachon jo‘natdim. Shuning uchun ham u shuncha yildan beri bu yerga qadam bosma-yapti, u hammasidan sendan ko‘ra ko‘proq boxa-bar, sening xatlarining o‘qimaydi ham, tashlab yuboradi, menikini esa bitta qo‘ymay, kerak bo‘lsa, qayta-qayta o‘qiydi!

U shu qadar ehtirosga berildiki, azbaroyi ikki qo'lini boshi uzra havolatib javrashga tushdi.

– Sendan ming marotaba yaxshiroq biladi hammasini! – deya qichqirdi u.

– O'n ming marta! – dedi Georg, otasining jig'i-ga tegish niyatida, biroq bu so'zlar og'zidan chiqib ulgurmasidanoq jiddiy jarangladi.

– Shu haqda gap ochilishini necha yildan beri kutaman! Bundan boshqa narsalarga qiziqadi deb o'ylaysanmi, nima, seningcha, men gazeta o'qib o'tirarmidim? Ma! – U shunday deb turib kara-votga tasodifan kelib qolgan gazetani Georgning betiga uloqtirdi. Bir paytlar nashr etilgan gazzetaning nomini Georg eslolmadi ham. – Alal-oqibat es-hushing to'lishmaguncha shunga jur'at etolmading-a! Onang ham dunyodan o'tib ketdi sho'rlik, o'g'lidan bir ro'shnolik ko'rmadi, do'sting esa topgan Rossiyasida paymonasini kutyapti, uch yil burun shu qadar sarg'ayib ketgandiki, chiqindixonaga uloqtirib yuborsang ham haqqing qolmasdi, men esa... ahvolimni ko'rib turibsan. Ko'zing ochiq, ko'rib turibsan-ku!

– Bundan chiqdi, ketimda ayg'oqchi bo'lib yurgan ekansan-da! – qichqirdi Georg.

– Buni sen ilgariroq aytmoqchi eding, to'g'rimi. Endi kechikding, endi foydasi yo'q, – o'ziga o'zi gapirgandek afsuslanib dedi otasi.

Va tovushini balandlatib ilova qildi:

– Xullas, endi bilib olgandirsan – faqat sen harakat qilmagansan, shu paytgacha o'zingdan o'zga bilan ishing bo'lmadi! Aslini olganda, sen bokira – begunoh go'dak eding, yanayam anig'i-ni aytganda, sen borib turgan iblisning o'zisan!

Shuning uchun ham bilib qo'y, men seni o'limga mahkum etaman – suvga g'arq etib o'ldirishga.

Georgga nimadir o'zini xonadan quvib chiqayotgandek tuyuldi, qulog'iga otasining karavotdan gursullab qulagan ovozi eshitildi.

U zinapoyalardan hovliqib tushayotib, xonani tozalash uchun kelayotgan oqsoch ayolga urilib ketdi.

– Xudoyim-ey! – deya chinqirib yubordi oqsoch ayol va etakchasi bilan betini yopib ulgurmay Georg ko'zdan g'oyib bo'ldi.

U uy eshididan chiqqa solib, ko'chani kesib o'tdi-da, daryo tomon oshiqdi. Va xuddi qorni behad ochiqqan odamdek shiddat bilan to'siqqa tarmashdi, yoshlik kezlari gimnastika sohasidagi yutuqlaridan ota-onasi mag'rurlanib yurishardi, u o'sha chapdastlik bilan to'siqdan oshib o'tdi. Bo'shashib borayotgan qo'llari bilan to'siqqa tarmashib, katta yo'ldan avtobus o'tishini kutdi. U o'zini suvga tashlaganda chiqadigan shovqin eshitilmasligini mo'ljalga olib shipshidi: „Otajon! Onajon! Men sizlarni sevardim“ – u shunday dedi-yu, qo'lini qo'yib yubordi.

Ko'priq uzra ayni qatnov ko'paygan payt edi.

Rus tilidan Abbos SAIDOV tarjimasi

ESKI ETIK

Olti oydan buyon ishda omadi yurishmay, ancha dilgir bo'lib yurgan tajribali aktyor Jilbert Keyster kunlarning birida, aniqrog'i qoq kunduz chog'ida dengiz bo'yidagi dam olish maskanida xomush kayfiyatda kezinib yurardi. Keyster yaxshigina mahoratli ijrochi edi-yu, biroq oxirgi spektakllardan biri „Tezkorlar mag'lubiyati“ pyesasidagi doktor Dominik rolini talqin etgach, umuman ruhiyati tushib ketdi. Sababi, teatr uni sezilarli darajada xorlab tashladi, haftasiga millionlab darromad jamg'arayotgan mazkur tomoshadan unga arzimagan choychaqa chiqarib berishdi. Natijada, Keyster bu rolni ortiq ijo etishdan bosh tortdi, binobarin teatr ham uning o'rniga boshqa bir aktyorni jalg etdi.

Bir ko'zga tutiladigan ko'zoynagini burni ustiga yaxshilab joylashtirib olgan janob Keyster yura-yura baliq sotilayotgan do'kon yonida yuzida ruhsiz tabassum bilan turib qoldi. Uning dimog'iga katta dengiz qisqichbaqasining xushbo'y isi urildi. O, mana shunaqa qisqichbaqa yemaganiga ham ne-ne zamonlar bo'libdi! Ammo baliq sotuvchisi haqini to'lay olmaydigan kishiga qisqichbaqasini tutqazib qo'yarmidi! Bechora aktyor battar xomush tortib, nariroqdag'i tikuv ishxo-

nasining derazasi oldida to'xtadi. Qalashib yotgan turli-tuman gazlamalar uyumiga boqarkan, birdan o'zini deraza oynasiga tutib, bir lahzaga tomosha qildi. Allaqaqachon o'ngib ketgan engil-boishi va ayniqsa, shimming o'ta yaroqsiz holatidan qattiq uyalib ketdi. Haa, bu Xudo urgan joylarda quyosh nuri shunaqayam serob va shunaqayam o'tkirki, janob Keyster beixtiyor bu oftob shu'lalarida o'zining bor shakl-u shamoyilini yana-da yaqqolroq ko'rib, ich-ichidan o'ksindi. Ajabo, bundan bir necha yil oldin to'rt tomoni to'kis, hech bir g'am-tashvishi yo'q, o'ynab-kulib yashayotgan sho'rlik aktyorning holi shu bo'ldimi endi? Jilbert Keyster tikuvchilik ishxonasining goh u derazasidan, goh bu derazasidan asta mo'ralarkan, u yerdag'i xilma-xil kiyim-kechaklar, ko'ylyak, kostyum va hatto ixcham shlyapalargacha nazardan qochirmay, bir-bir ko'rib chiqdi. O'h-ho', anchan qimmatbaho matolar ekan, deb o'yladi janob Keyster ichida g'amgin ezilib. Ana shunday kayfiyatda tikuvchi ustaxonasidan o'tib ketarkan, bechora aktyor boshiga kelgan bo'limg'ur va chigal o'ylardan alamzada bo'lgancha yaqindagina qo'ygan ensiz mo'ylovini silay-silay, yo'lini boshqa tarafga burdi. „Yo Xudoyim“, – deb o'ylardi Keyster xayolchan yurib borarkan, „Yo Xudoyim! Hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Nahot shunchalar abgor bo'lib qoldim?!“

Shu g'amgin xayollar ichida faromush tentigan Keysterning ko'zlari birdan yarq etdi. Uning shundoqqina ro'parasidan kalta bo'yli, qip-qizil va dumaloq yuzli tanish bir qiyofa chiqib qoldi.

E Xudo! Bu axir Bris Grin-ku!

– Keyster?! O'zingmisan?! Buni qara-ya, rostdanam o'zingmisan?! Eski chodirimizdan ketgаниндан buyon seni ko'rmagan edim. Eslaysanmi o'sha kуллarnи, og'aynijon? O Xudoyim-ey! Seni bu yerda uchrataman deb sira-sira o'ylamagan-dim. Xo'sh, ishlar qalay? Hammasi joyidami, bir-rodarim?

Keysterning eski tanishi bo'lmish, hozirgi kunda anchagina rivojlanib, oshig'i olchi bo'lib yurgan Bris Grin omadi yurishmay turgan sobiq aktyorni ko'rganidan boshi osmonda ekanligini qayta-qayta takrorlab, Keysterni qo'lтиqlab oldi. Ilgarigi tanish hamkasbining farovon hayotidan, uning o'ziga to'q bo'lib turmush kechirayotganidan ko'ngli o'ksib, mung'ayib qolgan Jilbert Keyster esa tanishining hol so'rashlariga eshitilar-eshitilmas qilib bazo'r ovoz chiqarardi:

– Hamma ishlarim joyida...

Biroq sobiq aktyorning ichidagi ovoz buning aksini qaytarardi: „Ey Rabbim, eski tanishlarim oldida meni sharmanda qilma!“

Bris Grin esa janob Keysterning ichki hola-tidan bexabar, shodon kayfiyatda u bilan yon-ma-yon qadam tashlagancha, chaq-chaq urib so'zlab ketdi.

– Mana bu yer esingdami? Qani, kirdik shu yerga! – Bris chog'roq bir qahvaxonaga janob Keysterni yetaklab kirdi. – Filis, og'ayni, bu yoqqa bir qaravorgin, – deb bosh ofitsiantni chaqirdi Bris, – men bilan mana bu qadrdon do'stimga kokteyl, keyin ikra bilan biroz yegulik keltirsang. Qara-ya, sening huzuringda hozir kim o'tiribdi, Filis, kimsan – janobi Keysterning naq o'zlari, sen

bu kishimning ijolarini hech ko'rmagansan-da, Filis, bu do'starning turgan-bitgani talant! Ana shunaqa, og'ayni! – Bris labidan bol tomib, janob Keysterning bugungi tang holidan hozircha voqif emas, faqat uni tinmay maqtab o'tiraverdi.

Shu orada ularga xizmat ko'rsatgani kelgan qiz qo'lidagi kokteyl bilan ikrani stol ustiga qo'yayotgan paytda dovrug'i dunyoga ketgan Keyster-ga o'zining ko'm-ko'k ko'zlari to'la chuqur hayrat bilan qarab qo'ydi. Bu hangomani ko'ring endi! „Kimsan – janobi Keyster emish!“ Axir olti oydan buyon ishlari yurishmay, holiga maymunlar yig'lagudek bo'lyapti-yu! Jilbert Keyster ichida kinoya bilan ijirg'anib, kulib qo'ydi.

– Unchalik emas, Bris, – deya xijolat tortdi u Bris Grinni biroz hovuridan tushirishga urinib. – Judayam oshirib yubording.

Xuddi shu asnoda Jilbertning unniqib ketgan nimchasining ostida hilvirab qolgan qorni guldurab, go'yo to'ppa-to'g'ri, haq gapni aytding, degandek ovoz chiqarib qo'ydi.

– Bor gapni aftyapman-da, birodarim! Qani, kokteylingni olib, bu yoqqa – narigi xonaga o'taylik-chi, Jilbert, u yerda hech kim bo'lmaydi. Xo'sh, yejishga nima buyuraylik – qisqichbaqami?

Shu payt Keysterning qorni yana guldurab qo'ydi. U ming'irlagancha: – Ha, bo'ladi. Qisqichbaqa ham yomon taom emas, – deb qo'ydi.

– Albatta-da! Buning ustiga bu yerning qisqichbaqasi anchagina katta va mazali, – Bris Grin shunday deb eski og'aynisining roziliginı oldi-da, bir daqiqa gapdan to'xtab, Jilbert Keysterning

ma'yus va bechoravash holiga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi.

– Ishlaring joyidami, Keyster? Seni ko'rib chin-danam o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim. O'zi-yam haqiqiy aktyorimiz bitta o'zing eding-da!

– Rahmat, – deb qo'ydi Keyster so'nik ovozda, – ahvolim yaxshi, durustman. Ayni vaqtida uning xayolidan: „Aslida, qayoqdagi bir havaskor ijro-chi-yu, biroq miqtigina yaxshi odam bu“, degan fikr kechdi.

– Shu yer yaxshi ekan-a? – Bris tag'in ofitsiantni chaqirdi, – ofitsiant, bizlarga eng lazzatli qisqichbaqa bilan bironta yegulik, keyin yana bir parchagina lahm go'sht, qovurilgan kartoshka bilan men ichadigan maxsus vinodan olib kelsangiz! Darvoqe, Keyster, ichkilikka tobing qalay? Nima ichaylik?

Keyster yengli tortib, Xudoga shukr, rostdanam ichgim bor edi, deb o'yladi.

Ikki sobiq hamkasb-do'stlar kichkinagina xonaning o'rtasiga qo'yilgan stol atrofida bir-birlari-ga ro'baro' o'tirishar edi.

– Omadimizni bersin, og'ayni! – dedi Bris Grin ichimlik quyilgan qadahlarni mammuniyat bilan urishtirarkan.

– Omadimizni bersin! – deb unga qo'shildi Keyster ham, shu paytda bir-biriga urilgan qadahlardan ham „Omad! Omad!“ deganga o'xshash tiringlagan tovush chiqdi.

– Xo'sh, oxirgi pyesa qalay bo'ldi, Jilbert? Odatdagidek uni ham qoyillatgandirsan?

Oh! Yo'q! Aynan shu savolning ayni lahzalarda sirayam hojati yo'q edi-da! Keyster miq etmay, bir

ko'zli ko'zoynagini tag'in to'g'rilab olarkan, labining bir chetida istehzoli kulib, javob qildi:

– Haa, rosayam dahshatli tarzdagi shov-shuvga ega tomosha bo'lib o'tdi!

– Hmm, albatta, – dedi Bris ham uning gaplarni o'zicha tushunib, – ammo u yerda hech kimning aytarli qobiliyati yo'q, shunday emasmi?

Keyster bo'lsa Brisning bu gaplarni to'g'rila-gan bo'lib, xayolida „Aytarli hech kimning puli yo'q u yerda“, deb tuzatgan bo'ldi.

– O'zing qanaqa rollarni o'ynayapsan endi? Bo-yagi Gotta – Grampus qiyofasini qoyillatib qo'y-ganding-da o'ziyam!

– Hozir umuman hech narsa qilmayapman, – deb ochig'ini aytdi Keyster shu vaqt, – hammasi-dan ko'nglim qolib, shalvirab qoldim go'yo.

Nochor ahvoldagi bechora aktyorning ushbu iqroriga uning eskirib, bo'shashib ketgan shi-midan ham „shalvirab qoldim“, degandek sado chiqqanday bo'ldi.

– Eh! Mayli, mayli, bu gaplarni qo'ya tur, – dedi Bris Grin Keysterning so'zlariga unchalik ham ahamiyat bergisi kelmasdan. – Ohho! Mana buni ko'rib qo'y, Jilbert! Yumshoqqina qush go'shtiga tobining qalay edi, og'ayni?

– Tashakkur, unaqa ovora bo'lma, keragi yo'q edi buning!

Biroq shu tobda Keysterning norozi ohangiga zid ravishda ochiqqan qorni yanayam qattiqroq gumburlab qo'ydi. Bu qanday ziyo-fat bo'ldi!

Yo'q, Keyster, aslida, o'zining xarob sharoiti haqida hamkasbiga hech nima demoqchi emasdi, ammo oxirgi vaqtdagi uni qattiq ranjitgan teatr-

dagi qator noxushliklar Keysterning sabr kosasini limmo-lim to'ldirib, tilini bo'shatib yubordi. Ehtimol, u ham o'zicha bir dardlashgisi kelgandir.

– Shoshma-chi, Keyster, menga qara-chi! – Shu payt Bris kutilmagan hayratdan andak esan-kiragancha ajablanib so'radi:

– Keyster, sen mo'ylov qo'yib yuborganmisani, og'ayni? Buni qara-ya, nega avvalroq shuni payqamadim ekan?! Yo'q, yo'q, to'g'ri tushun, meni o'lgudek qo'pol ekan deb o'ylama, ammo bu narsaga mana hozir, birdan ko'zim tushib qoldi. Nima, sen mo'ylovni birdan o'stirdingmi?

– Yo'q, birdan emas, asta-sekin, – deb javob berdi Keyster.

– Mo'ylovni nima sababdan qo'yding o'zi?

– Ochlikka qarshi niqob bu, – shu chog'da Keysterning lablari beixtiyor titrab ketdi.

– Unaqa emasdир, – deb qo'ydi Bris to'satdan mung tortib. Keyin Keysterga biroz dalda berish uchun qo'shib qo'ydi: – Menimcha, mo'yloving sekin-sekin to'kilyapti ekan. Ancha siyraklashib qolibdi o'ziyam. Ha, mayli, buni qo'yaylik endi, yana biron yegulik aytaylikmi?

Bris sobiq hamkasbining siyoh dilini o'zicha talqin etib, indamay qo'ya qoldi. Oradan ozgina fursat o'tgach, o'z orzulari to'g'risida so'zlay ketdi:

– Bilasanmi, Keyster, men tez-tez o'z sahnam, o'z tomoshagohim bo'lishini orzu qilganman. O'sha ajoyib sahma bilan ajoyib bir hayot qurishni shirin xayol qilib yashab kelganman. Mana xuddi seningdek iste'dodli odamlar yashaydigan ajoyib va bekam-u to'kis hayotni.

– Bekam-u ko'st? Mukammal? – hayron bo'lib ensasini qotirdi bechora Keyster.

– Ofitsiant, bizlarga tamaki olib kelsangiz. Ha, ha, tamaki va qahva ham, – deya buyurdi Bris Keysterna javob berish o'rniغا. – Bugun kechda senikiga borib, yana chaqchaqlashib o'tiramiz, xo'p? Bu yerda biror hafta bo'larsan axir? Yo darrrov ketib qolasanmi?

– Bekam-u ko'st hayot! Mukammal va ajoyib hayot! – turmushning shafqatsiz toshlari otilla-otila, parokanda bo'lib to'zg'ib ketgan Jilbert Keysterning xavotirli kunlari ayni damda uning ko'z o'ngidan g'ira-shira bo'lib o'tayotgan edi. U Birsga lom-mim demasdan, ehtimol, uni hali eshitmagandir ham, achchiq kulimsiragancha o'z umriga o'zi kuyunib o'y-o'yldi. Voajab, chindanam Bris aytayotgan o'sha go'zal va kamchiliksiz hayot qayda bor ekan? Bo'lganda ham, Keyster kabi sho'ring qurg'urning manglayiga bitilarmikan o'shanday kunlar? Bu nechog'lik ajoyibot va qanchalar mo'jizaviy tole' tortig'i bo'lardi?..

Eh, mukammal hayot!..

Uddi shu tobda bechorahol Keysterning bu g'aribona qiyofasini tutayotgan tamakisini hadeb chekmasdan, barmog'ida qisib jimgina o'tirgan Bris Grin achinib kuzatmoqda edi. Brisning lablari yarim ochilib qolgan, ko'zlari dengiz tubidagi marmar toshchalardek tep-tekis va silliq bo'lib yarqirar, nigohlari teran boqardi. Uning ko'zlari Jilbert Keysterni boshdan oyoq kuzatish vazifasi bilan mashg'ul ekan, birdan ular borib-borib dasturxon solingan katta stol tagidagi burchakda to'xtadi. Shunda tuyqusdan Brisning achchig'i

chiqib ketdi, u lablarini asabiy yaladi-da, jahli chiqib, Keysterga baqirib berdi:

— Menga qara, hoy o'g'il bola, meni g'irt hayvon ekan deb o'ylamagin-u, biroq sen qip-qizil boyagi... boyagi... nima deydi buni, hah, boyagi tog' ustida bazo'r ilinib turgan liqildoq toshga o'xshab qopsan! Men aytmoqchimanki, Jilbert, mahkam bo'l, og'ayni! Tag'in o'sha tog'dan oxir-oqibat dumalab tushib ketmagin! Agar senga yordamim kerak bo'lsa, hech tortinma, bemalol aytaver! Eski qadrdonligimiz haqqi-hurmati, bilasan-ku men... hech...

Shu damda Brisning ko'zlarini yana katta stol tagidagi o'sha burchak tomon og'di. Keysterga Brisning bu nigohi qiziq tuyulib, u ham o'sha tarafga ko'z tashladi. Shunda Jilbert Keysterning ko'zlarini qip-qizil gilam ustida kiyib turgan o'zining uvadasi chiqib ketgan yirtiq etigiga tushdi. Uning etiklari chindanam o'ta qashshoq holatdaydi, balki, Keysterning o'zidan ham g'aribroq edi ular. Juda soz! Keyster bu nazar ifodasini judayam yaxshi tushunardi. Etik bo'lsa Keysterga rosayam qadrdon, ularni sobiq aktyor „Aldov“ spektaklida-gi Bert Karsteyrs roli uchun ataylab sotib olgandi. Yaxshi etiklar ekan. Anchaga chidadi.

Keyster o'zining qadrdon va sadoqatli etiklaridan ko'z uzib, achinish hamda tashvish bilan ularga qarab o'tirgan Bris Gringa boqdi. Burni ustidagi bir ko'zli ko'zoynagi ortidan Keysterning doimgi achchiq kulimsirashi ifoda etildi, u bunday dedi:

— Hechqisi yo'q, hammasi uchun Xudoga shukr! Senga nima bo'ldi?

— Haligi... hech... Hech narsa. Shunchaki xayolim qochdi, — deya talmovsiradi Bris u yoq-bu yoqqa alanglab. U oxirgi marta Keysterning xaroba etiklariga so'nik nazar tashlab, o'rnidan qo'zg'oldi. Ofitsiantni chaqirib, hisob-kitob qildi.

— Mayli bo'lmasa, qariya, — dedi u chiqib ketishdan avval Keysterga o'girilib, — ma'zur tutasan, og'ayni, zarur ishlarim bor edi. Xuddi shu soatda bir uchrashuv tayinlagandim, kech qolmay bora qolay. Ammo-lekin seni ko'rganimdan boshim osmonga yetdi, Keyster. Shunaqayam xursand bo'lib ketdimki, quvonchimni aytib ado etolmayman! Yana ko'rishguncha, birodarim! Xo'p, o'zingni ehtiyyot qil!

— Xo'p, xayr! — dedi Keyster ham. — Rahmat senga!

Bris Grin qahvaxonadan chiqib ketdi. Keyster bir o'zi yakka-yolg'iz qoldi. U hamon o'sha mungli qiyofada qo'llini iyagiga tirab olgancha, bir ko'zli ko'zoynagi ortidan bo'm-bo'sh qadahiga tikilib o'tirdi. Ha, Keyster yolg'iz edi shu todda, u bilan faqat o'z yuragi, shu miskin hayoti va o'ta eski hamda sadoqatli bo'lgan etiklari birga qolgandi. Birdan uning qulqlari ostida yaqin va uzoq o'tmish sadolari jarang sochdi: „Janob Keyster, bo'sh vaqtingiz bormi?“, „Keyster janoblari, qo'ng'iroq'ingizni intizorlik bilan kutaman“, „Iltimos qilaman, hurmatli janob Keyster, malol kelmasa, bizga manzilingizni qoldira olasizmi?“, „Ma'zur tutasizlar, repetitsiyam bor edi, savollaringizning bariga javob berolmayman, ming bor uzr“, „Yo'q, yo'q, hozir sirayam vaqtim yo'q edi, kechirasizlar“...

Ana shu balandparvoz maqtov-u olqishlar ummonida oqa-oqa, Keyster oxiri bugungi kuniga yana qaytib keldi. Xayol uni uchqur otday juda-juda olisga, uzoq o'tmishning g'ala-g'ovurli, o'tkinchi yulduzlar yarq-yurq etib porlagan aldamchi kechalarga olib borgandi. Endi-chi? O Parvardigor! Endi ne ko'ylarga tushib qoldi? Bu ne ko'rinish? Ajoyib va mukammal hayot emish! Hech kimga keragi yo'q, sayoq bir itday tentigan hayot emasmi bu? Hamma yoqda davring gullaganda ko'tar-ko'tar, omading ketganda esa xor-zorlab tashlab ketishmi? Hayot misoli yelvizak uchirib borayotgan sap-sariq va yolg'iz barg-u, unda aslo hech nimani yashirib bo'lmaydi. Bu chorasisiz va tashlandiq barg chehrasidan na g'ariblikni va na umidsizlikni yashirib bo'ladi. Hammasi kaftdek namoyon, yaqqol aks etib turaveradi. Odamzod mukammal va ajoyib hayotni hech qachon, hech qayerdan topa olmaydi!

Stol ustini yig'ishtirib olish uchun ofitsiant kel-di. Ketish kerak! Shu yerda, Keyster bilan eshik orasidagi stol atrofida ikki nafar yosh xonim kelib o'tirishgan edi. Keyster ularning nigohini zimdan payqab turar, xonimchalarning o'zaro shivir-shiviri uning ding turgan quloqlariga shundoqqina eshitilib turardi.

— Albatta, uning so'nggi ijrosi edi o'sha spektakl. Ammo men o'shanda uning mo'ylovini ko'r-magan ekanman, siz sezmaganimidingiz?

— Oh, albatta, ko'rgandim! Bu aniq o'sha aktiyor-ku! Endi xarob bo'lgan ko'rindan boyaqish!..

Ortiq bu joydagi gap-so'zlarga toqat qolmadni. Keyster qaddini rostlab, o'rnidan turdi, uning bir

ko'zli ko'zoynagi ostida hamishagi kinoyali tabasumi balqidi. Bu xonimchalar uning so'nggi ijrosi bo'l mish doktor Dominikni rosa avra-astarini ag'darib, dog' axtarishayotgandi.

– Janob, agar ovqatlanib bo'lgan bo'sangiz, maylimi, dasturxonni yig'ishtirib olsam? – deb so'radi uning ketishini poylab turgan ofitsiantlaridan biri.

– Ha, ha, albatta. Men ketyapman.

Keyster darhol o'zini o'nglab oldi-da, ketishga chog'landi.

Ikki yosh xonimcha esa hamon undan ko'z umay, ta'qib etib o'tirishardi. Viqorli, biroq ozgina siniq bir tabassum bilan Jilbert Keyster ularning yonginasidan o'tib ketdi. U buni ataylab qildi, negaki sobiq aktyor biroz nariroqdan o'tganda, bu beg'am hamda Bris Grin orzu qilgandek bekam-u ko'st, g'aroyib hayot tarzini kechirayotgan yosh xonimchalar uning yirtilib ketgan juldurvaqi eti-gini ko'rib, battar gupurishlari mumkin edi.

Keyster bo'lsa unga hamroh etiklarining ortiq-cha gap-so'zga qolishini negadir istamas edi shu tobda.

*Ingliz tilidan
Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

TOG‘LIKNING O‘LIMI

Mixael Pitala qamoqxonadan qochdi. Quyuq o‘rmonlar va bug‘doyzorlarda yashirinib janub tomon yurdi, tog‘ga yaqinlashdi. Dehqonlar uning qornini to‘yg‘izishdi, yo‘l uchun oziq-ovqat va kiyim-bosh berishdi. Kech tushdi. Oppoq ilonizi yo‘l tog‘ yonbag‘irlab buralib ketgan edi. Dovonda xoch turardi. Qochoq chang yo‘ldan asta ko‘tarila boshladi. U Galitsiyaning Tarnovsk o‘lkasi dehqonlari kiyadigan uzun, chang bosgan ko‘ylagiga tirishgan qaltiroq qo‘li bilan ul-bul yegulik solingan kichkina tugun qistirib olgandi.

U atrofni qo‘rqa-pisa kuzatdi, uning yuzida soqchi ko‘rinishi bilanoq o‘zini tik qiyalikdan vodiya tashlash jur‘ati namoyon edi. Va nihoyat u etagida yarim chirigan o‘rindiq turgan, yog‘och xoch joylashgan dovonga yetib keldi. Mixael Pitala cho‘qindi va o‘rindiqqa horg‘in o‘tirdi. Tugunni yoniga, maysaga qo‘ydi va atrofga nazar tashladi. Yo‘l ikki tomondan ham nishablikka qarab ketardi. Uning ko‘z o‘ngida o‘rmonli vodiy gavdalandi. Atrof qanday go‘zal! Uzoqda, kulrang cho‘qqilar orasida azim Bobotog‘ qad ko‘tarib turibdi. Undan nariroqda Taqirtog‘, uning yon-verida esa Mixaelning ota joylari... Shuncha yillardan keyin, ikki-uch kun o‘tib u o‘rmonning yoqasiga qadar yo-

yilgan qo'ralar, mo'jaz ibodatxona joylashgan ona qishlog'ini ko'radi.

Tog'lar orasiga asta botayotgan quyoshning nurlari so'nib borardi. Qochoq oppoq qirov qo'n-gan boshini quyi egganicha kechmish hayotini esladi. Ko'p yillar avval u ish qidirib xotini va bola-chaqasini olib Germaniyaga otlandi. U yerda ter to'kib holdan toyguncha mehnat qilishdi, hayotning achchiq-chuchugiga sabr qilishdi. Qish oylaridan birida u ishsiz qoldi va butun oila ochlik domida qoldi. U yaqinlarining qiyngaganlariga chiday olmadni va avval ularni, so'ng o'zini zaharlab o'ldirishni o'ylab qoldi. Og'uni tayyorlab, mudhish rejasini amalgalashdi. Xotini va bolalari o'l-di, lekin u tirik qoldi. Tuzalib ketganidan so'ng uni uzoq yilga ozodlikdan mahrum etishdi. Ko'p yillar ish davomida olisdagi bulutli tog'larga havas ila qarab, yana o'sha yerga borishni orzu qilardi. Nihoyat, u qamoqdan qochishga erishdi. Mana, hozir shu yerda...

Mixael Pitala yana atrofga nazar soldi. Quyosh tobora pastlab botib borardi. Bobotog' cho'qqisi shafaq bag'riga singib ketdi. Shafaq. Mag'rib tomonnagi to'q qizil olovli shar asta tog' ortiga botdi. Qochoq soqol qoplagan yuzini quyi indirgan ko'yi pinakka ketdi. Tushiga uyi kiribdi. Lekin u oqsoqol qariya emas, navqiron yigitcha edi. U hozirgina o'rmondan qaytgandi. Mana, o'choqdan chiqayotgan tutun o'rلان kulbadagi o'zining kichkina xonachasi. Mana, otasi, onasi, butun oilasi. „Mixalek, sen qayerda buncha ko'p qolib ketding?“, deb so'rashyapti. So'ng hammalari xontaxta atrofiga o'tirib ovqatlanishadi, gurung-

lashib qo'y sutidan ichishadi. Qo'shnilar chiqadi. O'rmonda o'rtog'i Konichkani ayiq qanday qo'rqtganini aytib berishadi. U o'choqqa o'tin tashlaydi. O'tin charsillab yonib, qurum bosgan xonani yoritadi. Tashqaridagi qo'raga qaytayotgan mollarning ma'rashini eshitib o'tirish qanchalik yoqimli. Ibodatxona qo'ng'irog'i chalinadi. Hammalari turishadi, cho'qinib, baland ovozda ibodat qilishadi. Olov esa charsillab yonadi... Birdan og'ir qadamlar qochoqning tushini buzib yuboradi.

O'rnidan turarkan, yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, qayerdandir paydo bo'lgan mirshabni ko'rdi. Uning miltiq nayzasi tunning so'nggi shu'lalarida dahshatli yaltirardi. Mixael Pitala tugunini olib, bir sakrashda narigi yo'lga o'tib, tog' nishabligiga qarab yugurdi. Uch marta „To'xta, to'xta, to'xta!“ buyrug'idan so'ng g'ira-shira o'rmonning tun sokinligida ko'p marta o'q ovozi aks sado berdi. O'q yegan boshini egganicha qochoq oldinga va yuqoriga intilardi. Oxirgi marta botayotgan quyoshni va tog'lar tizmasini ko'rib qolishga harakat qilardi. Quyosh botdi. Vodiyning allaqayerida kechki ibodatga chaqiruvchi cherkov qo'ng'irog'i chalindi. Yuqorida, yo'ldagi yog'och xoch yonida turgan mirshab qalpog'ini yechdi va ibodat qila boshladi: „Tangri malaklari...“ Miltiqning og'zidan osmonga ko'tarilayotgan tutun so'roq belgisi shaklini eslatardi. O'rmon osmonida oy chiqib, qiyalikda yotgan qochoqning tanasini xira nurlari bilan yoritayotganda, uning ko'kargan lablari asta pichirladi: „Vatan! Vatan!“

Davronbek TOJALIYEV tarjiması

SO‘QIRNING QISMATI

Quyosh bizga naqadar zavq berishini bilasizmi?! U asta uyqudan bosh ko‘tarishi bilan odamlarda yashashga bo‘lgan ishtiyoy uyg‘ona boshlaydi! Osmon butunlay ko‘m-ko‘k, keng dalalar yam-yashil, uylarimiz esa oppoq. Ko‘zlarimiz ana shu kamalak ranglardan suv ichib atrofga teran nazar tashlaydi. Yuragingizda bahor barq urib, raqs tushgingiz, yugurgingiz, kuylagingiz keladi... Bularning hammasi quyosh tufayli.

Ko‘zi ojiz odamlar chiqish eshigi yonida o‘zining o‘rganib qolgan qorong‘i hayoti ichida tinchgina o‘tirar, atrof bilan ishlari yo‘q, nimalar sodir bo‘layotgani bilan qiziqmas ham edilar. Kun adog‘iga yetgach, ko‘rlar yosh ukalari yoki mitti singillari tomonidan ergashtirilgancha olib ketildi. Agar bolakaylor „Bugun qanday chiroyli kun bo‘ldi-ya“, deb aytsalar, ko‘zi ojizlar, „Men ham buni his qildim, Loulo hech tinch o‘tirmadi“, deb javob qaytarardilar. Men ulardan birining hayoti g‘oyat azob va qiyinchilikda o‘tganini bilardim, buni hatto tasavvur qilish ham qiyin.

U past tabaqa – dehqonlar toifasidan chiqqan, otasi esa oddiy norman fermeri edi. Bolaga otasonasi tomonidan ozmi-ko‘pmi g‘amxo‘rlik qilinar, u o‘zining azobli ojizligini shu tufayli biroz unutar

edi. Ular dunyodan o'tib ketishgach, qo'rquvning ayanchli chinqirig'i uni ta'qib qila boshladi. Endi u singlisining qo'liga qarab qoldi. Fermadagilar unga boshqalarning nonini yeydigan gadoydek ijirg'anib qarashardi. Ovqatlanish payti yeyotgan har bir luqmasi unga minglab ta'nali boqishlar keltirar edi. Uni „tekinxo'r“, „masxaraboz“ deb atashar, hatto singlisining eri ham unga istamaygina sho'rva berar, ochdan o'lmasligiga yetarli bo'lsa bo'ldi, derdi. So'qirning yuzi bechorahol, bir juft katta ko'zları esa muhrni eslatardi. Uni qancha yerga ursalar ham miq etmas, odamlar ko'rning nimani his qilishi bilan ishlari yo'q edi. Shunday qilib, u hayotda birovdan mehr ko'r-madi. Onasi unga doim bemehrlik bilan boqar, deyarli parvarish qilmas edi. Qishloq joyda qo'li-dan ish kelmaydiganlarga keraksiz odam sifati-da qaralardi, dehqonlar orasida bunday odamlar yo'q bo'lib ketsa, ular bundan, albatta, mamnun bo'lishardi.

Nihoyat, ko'r sho'rvasini ichib bo'lgach, eshik ostonasiga borib o'tirdi. Yozda u shu yerda, qishda esa kamin yonida o'tirardi. Har kungidek u qimir etmasdi. Uning biror yeri ham qimirlamasdi, faqat ko'zining qovoqlari ba'zan biror asabiy harakatdan uchib tushar, ojiz ko'zlarini yumib olardi. Unda biror narsaga layoqat, qiziqish, ehti-molki, iqtidor bor edimi? Buni hech kim so'rama-gan. Lekin uning ishga bo'lgan uquvsizligi qarin-doshlari tomonidan ko'rga oddiy buyum sifatida qaralishiga sabab bo'lardi: xuddi katta bochka yoki yovvoyi biror jonzot kabi. Uning so'qirligi haqida bo'ladigan achchiq latifalarni-ku qo'yave-

ring. Ular biroz miriqish ilinjida ovqatlanish paytida ko'rning ovqatini birma-bir xontaxta bo'ylab soatlab aylantirib chiqishardi. Qo'shni uylarda-gi ba'zi dehqonlar ham bu „tomosha“ni ko'rgani mo'ralab o'tishar, bu qiziq voqeа eshikma-eshik kezib yurardi, shuning uchun oshxona har kuni yemakxo'rlardan ham ko'ra, tomoshabinlarga to-la bo'lardi. Ba'zan odamlar u ovqatlanishidan oldin tovog'iga biror kuchuk yoki mushukni solib qo'yishardi. Jonivor ham ichki sezgisi bilan qarshisidagi odamning nogironligini sezar va beozorlik bilan qochib qolardi. Odamlar esa atayin chapillab ovqatlarini yeyishga tushishardi. Devorga tizilishgan tomoshabinlar esa bundan maroqlanib, bir-birlarini tirsaklari bilan turtib kulishar, oyoqlari bilan yerni depsinishardi. Ko'r bo'lsa indamay taomini o'ng qo'li bilan yeyishga tutinar, chap qo'li bilan esa tovog'ini begonalardan „himoya qilardi“. Boshqa payt esa ular ko'rni po'kak, daraxt po'stlog'i, barg yoki loy yeyishga majbur qilishar, chunki u bularning farqiga bormasdi. Nihoyat, dehqonlar bu kabi qiliqlardan zerikishar, pochchasi ham unga qarashdan bezib borardi.

Shunday qilib, dehqonlar, xizmatchi qizlar, hatto duch kelgan notanish ham uni turtib o'tadigan bo'lgan, bunday payt ko'rning kipriklari nozik titrab ketardi. Ko'r o'zini qayerga yashirishni bilmas, odamlar unga yaqinlashmasligi uchun qo'llari bilan o'zini to'sardi. Bular ish bermagach, u yolvorishga o'tardi.

So'qir bugun katta ko'chaning bir yeridan joy oldi. Qadam tovushlarini yoki transportning

shovqinini eshitgach, shlyapasini qo'liga oldi va duduqlangancha so'z qotdi:

– Menga ehson qilinglar, o'tinaman...

Biroq yo'lovchi dehqonlar saxovatli emasdi, buning ustiga ko'r hali u bergen su¹ni qaytarmaganzi.

Bu qish hamma yoq qor bilan qoplandi, sovuqning zahri qattiq bo'ldi. Pochchasi ko'rni katta ko'chadan uzoqroqqa olib chiqdi: u bu yerda bemalol tilanchilik qilishi mumkin edi. U ko'chada kun bo'yli qolib ketdi. Tun kirgach, pochchasi uyidagilarga ko'rni yo'qotib qo'yganini aytib, qo'shimcha qildi:

– Uf, yaxshisi, undan xavotirlanmaylik! Uni kimdir topib olgandir. Sinqilmanglar, u yo'qolmagan. Ertaga ovqat yeish uchun ham qaytib keladi.

Lekin ko'r ertasiga qaytmadi. U o'sha kuni soatlab kutdi, ichigacha muzlab ketdi. O'zini hozir o'lib qolsam kerak, deb o'yladi, isinish uchun yura boshladi. Ming urinmasin, kelgan yo'lini topa olmadi. Majburan yo'g'on sumalakni ermak qilgancha tavakkaliga ketaverdi. Chuqurchalar ga tushib ketar, lekin o'rnidan turgancha sas chiqarmay olg'a intilaverardi. Umidi – yo'lidan biror boshpana chiqib qolishi edi. Borgan sari qor kuchayib uni qotirib qo'ydi, ko'r tanasini sezmay qolgan, oyoqlari uni ko'tarolmay qiynalardi. Shuning uchun u o'tirib qoldi va qaytib turmadidi. Pag'alab yog'ayotgan qor uning yotishiga bir enlik ham joy qoldirmasdi. Ko'rning qarindoshlari

¹ Su – fransuz chaqasi.

uning topilishiga umid qilib, bir haftacha izlashdi. Natijada, uning qadam izlarini topishdi. Qish uzoq davom etdi, qorlar ham eriy demasdi. Nihoyat, yakshanba kuni dehqonlar naryoqdagi ochiq dalada quzg'unlar gala bo'lib aylanayotganligiga e'tibor berishdi. Keyin sharros yomg'ir quydi. Kelaasi hafta ham qushlar o'sha yerdan ketishmadi. Ular ufq tomonidan uchib kelgan turli-tuman qushlar bo'lib, uzoqdan xuddi oppoq matodagi qora yamoqni eslatardilar. Bunga qiziqqan bir guruh odamlar o'sha joyga yo'l olishdi. Va u yerdan yarmi qarg'alarga yem bo'lgan jasad topishdi. Ko'zlari ham o'yib yeyilgan bu jonsiz tana, ko'rni-ki edi.

Shundan so'ng men quyoshning nurlaridan zavq olmay qo'ydim, chunki quyoshga intilgan so'qirning xotiralari meni tinch qo'ymasdi. Uni taniganlar biladi: inson uchun, u kim bo'lishidan qat'i nazar bu, dahshatli yakun edi.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

VANKA TEPLYASHIN

Vanka Teplyashin o'n ikki barmoq ichak yarasi bilan qishloq kasalxonasiga yotdi. Shu holida yotganicha yotaverdi. Bu orada kasalxonaga tuman markazidan bir kishi keldi, shifokor Vankani kabinetiga chaqirdi, shaharlik kishi bilan Vankani aylantirib ko'rishdi, qornini ezib-bosishdi, yelkalariga urib-urib qo'yishdi... O'zlaricha bir nimalarni gaplashishdi. Keyin Vankaga yuzlanishdi:

- Shahar shifoxonasiga borasanmi?
- Nimaga? – tushunmadi Vanka.
- Yotgani-da. Bu yerda yotganingdek, o'sha yoqdayam oyoqni osmondan qilaverasan. Mana... Sergey Nikolayevich davolaydilar.

Vanka rozi bo'ldi.

Shahar shifoxonasiga durustgina joylashtirishdi. Vankani u yerda „xos bemor“ deb atay boshlashdi.

- Xos bemorimiz qani? – deb so'rardi hamshira.
- Qayerda bolardi, – deya javob qilishardi Vankaning palatadoshlari, – xoli joyda chekayotgan bolsa kerak-da.
- Yana chekyaptimi? Nima qilsa boladi a bu xos bemorimizni...

Vankaga shahar shifoxonasida nimadir yoq-madi. Palatadoshlariga boshidan o'tgan savdolar-ni so'zlab beraverardi: o'tgan yili haydovchilik gu-vohnomasini olib qo'yishmoqchi bo'lishganini-yu, bir safar mashinasida cho'kib ketishiga bir bahya qolganigacha...

– Oldinda muz tog' bo'lib do'mpayib qolgan... Eshikni ochib, gazni bosdim. Shu mahal lop etib pastga sho'ng'ib ketsam bo'ladimi! – Vanka so'zlayotganda shoshib-pishar, qo'llarini sermar, jonhalak bo'lib bir joyda o'tirolmashdi. – Tog'dan tushayotganday sho'ng'idim o'ziyam! Suv shamol-to'sar oynadan yuz-ko'zim demay savalay ketdi. Kattakon muz eshikka urilib, ochilmaydigan qilib qo'ydi. Pastga sho'ng'iyapman-u, qani endi eshikni ocholsam. O'zim allaqachon kabinada suzib yuribman. Bir evini qilib narigi eshikni ochdim, kabinadan chiqib, u yoq-bu yoqqa qaradim...

– Sen xuddi, nimaydi... hammomga tushib qoldingmi, nima balo: „chiqdim-u, u yoq-bu yoqqa qaradim“ mish. Kamroq alda odamni.

Karavotda o'tirgan Vankaning sodda ko'zları chaqchayib ketdi.

– Men aldayapmanmi? – birmuncha fursat bundan ortiq so'z topolmadi. – Topgan gapingni qara-yu. Qanaqasiga aldayman?

Rostdan ham Vankaning saxt-sumbatiga qarab turib uning yolg'onlamasligiga ishonasan kishi. Eplagan aldaydi.

– Xo'sh, xo'sh? Davom et, Van. Pandavaqilarga e'tibor berma.

– Xullas, tepaga qaradim: ko'kish teshik ko'rindi, xuddi o'sha yerdan tushib ketgandim... o'sha yoqqa intildim.

- O'zi suv tagida qancha vaqt qolib ketding?
- Qayoqdan bilaman! Ko'p bo'lmasa kerak har holda, shunchaki hikoyam cho'zilib ketdi, xolos. Ustiga ustak, gapimni bo'lyapsizlar.
- Xo'sh, xo'sh, keyin-chi?
- Xullas, chiqdim... Chopqillab yordamga yetib kelishdi. Birinchi uchragan kulbaga olib kiringdi...
- Keyin darrov aroq bilan-a..?

– Oldiniga odekolon bilan obdan ishqalashdi... Keyin bir hafta „qizil chinnigul“ning hidi ketmasa deng. Ana undan so'ng aroqqa yugurishdi.

...Vanka yuragi siqila boshlaganini o'zi ham payqamay qoldi. Deraza oldida soatlab turgancha, o'zining qalbi-yu aqliga yot-begona ko'chaning hayotiga tikilib qolardi. Yashashlariyam bir g'altati: shovqinlaydi, baqiradimi-yeys, bir-birini eshitmaydi-ya. Barchasi yurak qo'ltiqlab olgan, lekin tepadan hamma odam bir ko'ringani uchunmi, ular bir joyda yugurayotganga o'xshaydi. Tez orada Vanka ko'cha bo'ylab nigoh sirpantirishga o'rganib qoldi... Puf desang beli sinar bitta-yarimta satang bir qarich yubkada o'tib qolganini aytmasa, hammasi bir xil. Vankaga sog'inch indi. U o'zini yakka-yolg'iz sezibadi.

Ammo-lekin bu shovqin-suron ko'chada, pastda tuyqus onasini ko'rib qolganda ajablanib quvonganini ko'rsangiz edi... Ana, ko'chani kesib o'tyapti, alang-jalang boqadi – qo'rqtyapti. Eh, onajonim-a! Ona ko'ngli bilan sezibdi-da.

– Onam kelyapti! – deya qichqirdi Vanka. Bu inson quvonchi shunchalar erkin va nogahoni yangradiki, palatadagilar sharaqlab kulib yuborishdi.

- Qani, Vanya?
- Ho'v, ana! So'mka ko'tarib kelyapti! – Vanka deraza rafiga osilib, qichqirdi: – Oyi!
- Pastga tushib kutib ol, – deyishdi Vankaga. – Yo'qsa o'tkazishmaydi, bugun qabul kuni emas.
- O'tkazishadi. Qishloqdan kelganini aytsa... – deya fol ochishdi ba'zilar.
- Heh, „o'tkazishadi“ mish! Anavi ramaqijon qizamiqko'z turgan bo'lsa, o'tkazmaydi.

Vanka pastga chopdi.

Onasi o'sha ramaqi qizamiqko'z oldida elanib turgan ekan. Qizamiqko'z hatto eshitmasdi ham.

- Menga kelishdi! – uzoqdan so'z qotdi Vanka. – Bu kishi mening onam.
- Chorshanba, shanba, yakshanba – qabul kunlari, – kakkuladi qizamiqko'z quruqqina qilib.

Vankani ko'rgan onaizor shodlanib ketdi, endi peshvoz yurmoqchi edi, qizamiqko'z ushlab qoldi.

- Orqaga.
- Menga kelishdi dedim-ku! – tutaqdi Vanka. – Bu nima qilganing?!
- Qabul kunlari – chorshanba, shanba, yakshanba, – deya yana kukuladi qorovul.

– Bilmabman-da, bolam, – yalinishga tushdi onaizor, – qishloqdan keldim... Bilmabman, bolam. O'g'lim bilan biron yerda birpas o'tirsam bo'ldi...

Vanka onasining ovozidagi mungni ilk bor eshitib tong qotdi... Onasining yalinib-yolborishlaridan hamiyati qo'zg'adi.

- Elanmang, oyi.
- Manov o'rtoqqa tushuntiryapman-da...

– Jim turing! – dedi Vanka. – O'rtoq, – deya murojaat qildi qorovulga boadablik va viqor ila, lekin qorovul unga qayrilib ham qaramadi.

– O'rtoq deyapman! – tovushini balandlatdi Vanka. – Sizga aytyapman!

– Vankajon, – achchig'i burnining uchida turadigan o'g'lini bilgan ona zorlandi.

Birovning dardiga qayishmaydigan qizamiqko'z go'yo yonida hech kim yo'qday bir chetda baqraygancha turaverardi.

– Yuring, hov anavi yerda o'tiramiz, – dedi Vanka onasiga tishini tishiga bosib va qorovulning ortida ko'rinishi turgan o'rindiqni ko'rsatdi. Keyin bamaylixotir baqako'zning yonidan o'tib ketdi.

– Or-r-qaga, – amr qildi qizamiqko'z irganib va Vankaning yengidan tortmoqchi bo'ldi.

Vankaga shu narsa kerak edi. Qizamiqko'z unga teginishi bilanoq, Vanka olako'zning qo'lini siltab tashladi-yu, onasiga mehribonlik qildi:

– Mana shu yerga, o'rindiqqa.

Vanka davomini ham kutayotgandi – hozir qizamiqko'z orqadan kelib ushlaydi. Ushladi ham. Vankaning yo'l-yo'l pijamasi yoqasidan. Og'ritib tortdi. Shu asnoda Vanka uning qo'lini tutib olib shunday qayirdiki, qizamiqko'zning og'zi qiyshayib ketdi.

– Yana bir marta qo'lingni yogurtirganiningni ko'rsam... – tilga kirdi Vanka salmoq dor so'zlarni topolmay, – sen bilan... siz bilan jiddiy gaplashishimga to'g'ri keladi.

– Van, – yig'lamsiradi onasi. – Xudoyim-ey, O'z panohingda asra...

– O'tiring, – amr-farmon qildi Vanka ovozini pasaytirib. – Manov yerga o'tiring. Xo'sh, qishloqlar qalay?..

Qizamiqko'z birmuncha muddat esankirab qoldi, keyin o'ziga kelib, baqirdi.

– Stigayev! Lizaveta Sergeyevna!.. Bu yoqqa! Mushtumzo'rlik qilishyapti! – degancha xuddi savdoyini tutib olmoqchi bo'lgandek Vankaga qu-lochini yozib tashlandi. Ammo Vanka joyida qimirlamay o'tiraverdi, faqat ko'zlarini go'laytirib pastdan qizamiqko'zga tikildi. Shugina nigoh qizamiqko'zni to'xtatdi. Taqqa to'xtab, tag'in baqirdi: – Stigayev!

Yon tomondagi xonadan qo'lida bo'ikanon bilan oq xalatli chorpahil Yevstigneyev yugurib chiqdi.

– A? – anqovsiradi Yevstigneyev.

– Bu yoqqa, yonimga! – qichqirdi qizamiqko'z va qo'llarini yozib Vankaga jasadini tashladi.

Vanka uni qabul qilib oldi... Qorovul orqaga o'mbaloq oshib tushdi. Shunda Yevstigneyev „mushtumzo'r“ni ko'rди-yu, u ham tashlandi.

...Ular Vankani eplasholmadi... Garchi Yevstigneyevning bo'yni yo'g'on bo'lsa-da, ikkovlashib qancha chirinishmasin, Vanka qochmadi ham, tutqich bermadi ham. Stul va to'mbalar kamroq uchishi uchun o'zini ehtiyyot qildi. Lekin baribir qorovulning to'mbasi uchdi, grafin chil-chil sindi. Shovqin-suron ko'tarildi... Oq xalatlar birdan ko'payib ketdi. Vankaning vrachi Sergey Nikolayevich chopib yetib keldi... Qizamiqko'z va Yevstigneyevni arang ovutishdi. Sergey Nikolayevich Vankani tepaga olib chiqib ketdi.

– Bunaqa emas-da endi, Ivan...

Vanka esa, akchincha, o'zini zo'rg'a bosib ol-gandi. Tushundiki, hozir o'z uyiga jo'naydi. Hatto onasiga kutib turishini tayinladi.

– Nima jin urib anavi bilan pachakilashib yuribsan?

– Onamni ichkariga kiritmadi.

– Aytmaysanmi o'zimga, hammasini joyiga qo'-yardim! Palatangga boraver, onaxonni o'zim olib kiraman.

– Kerakmas, hozir uyga ketamiz.

– Qanaqa uy? Nimalar deyapsan?

Lekin Vanka ikki oyog'ini bir etikka tiqib, „ket-taman“ga tushib qoldi. Aslida, uyga ketmoqchi bo'lgani uchun ham xotirjam tortgandi. Sergey Nikolayevich ko'ndirishga rosa urindi. Hatto:

– Onang menikida tura tursin. Uch kun. Qancha xohlasa! Uyimiz keng-kovul. Axir, biz hali ishni oxiriga yetkazmadik. Tushunyapsanmi? Sen menga pand beryapsan. Anavi aqli noqislar-ga ko'p ham e'tibor beraverma. Ha, endi nima qillardik, bori shu-da. Onang esa seni ko'rgani kelib turadi... – deb manzirat ham qilib ko'rdi.

– Yo'q, – dedi Vanka. Onasi qizamiqko'zga mung bilan elangani ko'z oldidan ketmasdi uning. – Qi-ziq odam ekansiz, yo'q dedimmi yo'q.

– Lekin men senga ruxsat bermayman!

– Derazadan oshib tushaman... Tungi ko'yidakda qochaman.

– Be-e, – ranjidi Sergey Nikolayevich. – Bekor qilyapsan-da shuni.

– Hechqisi yo'q, – Vankaning zavqi kelib ketdi. Faqat shu do'xtirning ranjigani chatoq bo'ldi-da. – O'zingizga biron ta yarasi bordan topib olavering...

Ana, derazaning tagida bittasi yotibdi, malla, uni-yam ichagida yarasi bor.

- Gap bunda emas-da, Ivan.
- Yo‘q, – Vanka o‘zini tobora yengil his etmoq-da edi. – Menden o‘pkalamang.
- Nimayam derdim... – Sergey Nikolayevichning battar ta’bi tirriq bo‘ldi. – Bundoq holda seni ushlab turish ham befoyda. Balki, o‘ylab ko‘rarsan?.. Zora o‘zingga kep qolsang...

– Yo‘q. Gap bitta.

Vanka ul-bullarini yig‘ishtirgani palatasiga chopdi. Palatada bir-biriga so‘z bermay Vankani koyib ketishdi:

- Esini yegan!
- Shu yerda dardingga shifo topayotgan bo‘lsang, Sergey Nikolayevich seni otday qilib uyinga jo‘natardi.

O‘zining qarichi bilan o‘lchayotgan bu odamlar bilmasdiki, tez orada onasi ikkalovi avtobusga o‘tirishadi-da, qarabsizki, bir-ikki soatda Vanka uyida choy ichib o‘tirgan bo‘ladi. Ular buni qayqdan ham tushunsin!

- Qayoqdagi bir ahmoqni deb sog‘lig‘ingdan voz kechasanmi, o‘rgildim sendaqalardan!
- Odam bo‘lish kerak, – dedi Vanka adovat aralash tantanavor ovozda. – Tushunarlimi?
- Tushunarli, tushunarli... Bekorga hovliqyapsan, bekorga.
- Yarimta so‘lkavoyni qistirmaysanmi o‘scha qizamiqko‘zga, olam guliston bo‘lardi.

Vanka hamma bilan shod-xurram xayrlashdi, salomatlik tiladi va yengil tortib pastga hakkalab tushdi.

Pastda o'zining kiyimlarini olishi kerak edi. O'lganning ustiga tepganday, kiyimni ham aynan Yevstigneyev berar ekan. Yevstigneyev Vankaga yovqarash qilmadi, aksincha, achingannamo so'z qotdi:

– Haydashdimi? Qurib ketsin...

Kiyimlarni uzatayotib, sekin engashib, ta'na qildi:

– Anavinga elliktani uzatganingda, hech qanaqa vahima-pahima ko'tarilmasdi. Eh yoshlar, yoshlar, nahot aqlingiz shunga kelganda kaltalik qilsa?

– Pora bilan og'izga urish emas, odam bo'lish kerak, – dedi yana Vanka viqor bilan. Biroq kuyadori hidi anqib turgan, hamma yoqni ilgak bosib ketgan yerto'lada bu so'zlar unchalik ham jaranglamadi; Yevstigneyev ham e'tibor berib o'tirmadi.

– Manavi boshmoqlar senikimi?

– Meniki.

– Oxirigacha davolanmasdan ketyapsan ekan-da...

– Uyda davolanarman.

– „Uyda“ mish! Tuzalib bo'psan...

– Omon bo'l, Ivan Petrovich! – dedi Vanka.

– O'zing sog' bo'l. Vrachdan iltimos qilsang bo'lardi, zora qoldirsa. Yomon yondashib bekor qilding-da o'zing.

Vanka Yevstigneyevga dardini dasturxon qilib o'tirmadi, onasining qoshiga shoshdi, hoynahoy, boyaqish ko'zyosh qilib o'tirgan bo'lsa kerak.

Taxmini to'g'ri chiqdi: onasi o'rindiqda ko'z-yoshlarini sholro'moliga artib o'tirardi. Qizamiq-ko'z bo'lsa o'zining to'mbasi yonida yo'lakka ti-

kilgancha qoqqan qoziqday turardi. Unga ko'zi tushgan Vankaning yuragi dukurlab ketdi. Qadamini sekinlatdi – oxirida ichidagini to'kib solmoqchi bo'ldi. Lekin hadegancha uzib oladigan gap topolmadi.

– Omon bo'l! – deya oldi, xolos. – Kirdi-chiqди.

Qizamiqko'zning ko'zлari pirpirab ketdi, biroq qayrilib qaramadi – qorovulligini davom ettira-verdi.

Vanka onasining sumkasini ko'tardi. Ona-bola sal qolsa saratonni ham davolaydigan, ko'klarga ko'tarib maqtalgan shahar shifoxonasini tark etishdi.

– Qo'ying, yig'lamang, – deb yupatdi onasini Vanka.

– Keting yer iskamaydi-ya sen bolani, – dedi ona dilidagini tiliga chiqarib. – Ho' birda texnikumdan ham...

– Ha, bo'pti, bo'pti... Texnikum-pexnikumi bilan qirilib ketsin! Sizga bir gapni aytib qo'yay: haliginda anavi qizil zo'ldirga yalinganingizday boshqa hech kimga poy-patak bo'lman. Xo'pmi?

– Birini aka, birini opa deb alqamay ko'p narsaga erishib bo'larkanmi?!

– Ha endi... bunaqasi ketmaydi-da. Eshitgan quloqqa – uyat axir.

– „Uyat“ mish... Mana, hozir pensiyamga bir dunyo xat-hujjat yig'ishim kerak, g'o'ddaygan bilan ish bitmaydi. So'ramay ko'r-chi, biring ikki bo'larmikin?

– Xo'p, xo'p... – Har ne bo'lganda ham onaning gapi – gap. – Uylar qalay, tinchmi?

- Bir navi. O'zimizda davolanasanmi endi?
- Haligi... bilmasam, - deb javob qildi Vanka. - Allaqachon sog'ayib qoldim.

Birmuncha fursatdan so'ng ona-bola vokzalda avtobusga o'tirib, uylariga ravona bo'lishdi.

Rus tilidan

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

NUSXA

Brauergassda bir zamonlar Sigler ismli kimsa yashagan. U ko'chada har kuni ko'rganimizga qaramay qiyofasi sira ham esda qolmaydigan toifadan edi, zotan, bunday kimsalarning barchasi bir og'iz so'z bilan „olomon“ deb yuritiladi.

Olomonga mansub Sigler hamisha omi omma kabi ish tutardi. U xislatdan xoli emasdi, biroq aytishga arzirli iqtidori ham yo'q edi; pulni va ko'n-gilxushlikni yaxshi ko'rар, doim oliftagarchilik qilar, ayni paytda aksariyat odamlar kabi qo'rqoq edi; binobarin ehtiroslari va qalb tug'yonlariga erk bermas, aksincha, ta'qiqlardan hadiksirab, jazolanishdan qo'rqib, ming bir andisha iskanjasisida kun kechirardi. Qarangki, uning maqbul xislatlari ham bor edi, umuman, risoladagidek odam bo'lib, jamiyatda qadr-qimmatim deb tashvish tortadigan, o'ziga anchagina bino qo'ygan odam edi. Garchi sariq chaqaga ham arzimaydigan nusxa bo'lsa ham, har bir odam kabi o'zini nainki shaxs deb bilar, hattoki olamning ustuni hisoblardi. Har qanday shubhalardan olis bo'lgani uchun dunyo-qarashiga zid dalillarga duch kelganda, norozilarcha ikkala ko'zini ham yumib olardi.

Barcha zamondoshlari kabi u ham puldan keyingi qudratli kuch – ilm-u fan qarshisida ta'zim bajo keltirardi. U fanning mohiyatini sira ham tu-

shuntirib bera olmagan bo'lardi, biroq uni hisobdonlik yoki hasharotshunoslik singari allaqanday narsa deya tasavvur qilar, lekin davlat ilm-u fanga qancha sarmoya sarflayotgani-yu olimlarni qanchalar e'zozlashini juda yaxshi bilardi. Saraton o'smalarini davolash bilan bog'liq tadqiqotlarga alohida ehtirom bilan qarardi, chunki otasi sarton xastaligidan vafot etgandi, binobarin o'shanda buyon misli ko'rilmagan marralarni qo'lga kiritgan tabobat fani Siglerning ham otasi kabi nobud bo'lishiga aslo yo'l qo'ymaydi, deya qat'iy ishonardi.

Sigler ko'rpgaga qarab oyoq uzatishni xayoliga ham keltirmas, so'nggi rusumdag'i kiyim-kechaklarni jon deb xarid qilishni istardi. Biroq hamyoni ko'tarmagani bois yosh-yalanglarning modaga o'chligini oshkora masxaralardi. O'zini mag'rur ko'rsatishga zo'r berib urinar, yaqin do'st-u birodarlari yoki xoliroq joylarda boshliqlar sha'niga tap tortmay mag'zava ham ag'darardi. Darvoqe, barcha sir-asrorni birma-bir fosh qilib, sizlarni zeriktirmoqchi emasman. Biroq Sigler haqiqatan ham xushro'y yigit edi, binobarin undan ayrilish katta yo'qotish bo'ldi. Afsuski, o'z rejalarini va asosli orzu-umidlariga zid ravishda Sigler hayotiga juda tez va hayratlanarli nuqta qo'ydi.

Shahrimizga ko'chib kelgandan keyin ko'p o'tmay yakshanba kuni el qatori hordiq chiqarishga ahd qildi. Shu paytgacha hech kim bilan osh-qatiq bo'lмаган, qolaversa, o'ta qat'iyatsiz bo'lgani uchun biron bir uyushmaga a'zo ham bo'lmagandi. Ehtimol, shu bois juvonmarg bo'lгандир. Hech kimsa so'qqabosh bo'lmasin.

Xullas, shaharning osori-atiqalari bilan kifoyalanishga majbur bo'ldi, albatta, oldin yaxshilab so'rab-surishtirdi. Nihoyat, tarix muzeyi va hayvonot bog'iga borishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Muzeyni tomosha qilish yakshanba kuni tushgacha tekin, hayvonot bog'iga esa tushdan keyin chegir-mali chiptalar bilan kirilar ekan.

Sigler yakshanba kuni o'zi yoqtiradigan antiqa tugmali, yelkalari keng kamzulni kiyib, tarix muzeyigi yo'l oldi. Yana ham salobatli ko'rinish niyatida nafis hashamador aso – laklangan qip-qizil chorqirra jez kaltakni ham qo'liga ushlab oldi, biroq muzey xodimasi zalga kiraverishda hafsalasini pir qilib hassani olib qo'ydi.

Baland shiftli xonalardagi ko'pdan ko'p noyob jihozlarni ko'rgan tomoshabinlar ilm-fan qudratiga beixtiyor tasannolar aytardi. Peshtaxtalarda-yi yozuvlarni ko'zdan kechirar ekan, Sigler bunga qayta-qayta imon keltirardi. Darvozalarning zanglagan kalitlari, xira tortgan taqinchoqlar kabi ashqol-dashqollar ayni ularga biriktirilgan yozuvlar sharofati bilan e'tiborni tortar va alohida ahamiyat kasb etardi. Hayratlanmay bo'ladimi axir: ilm-u fan shug'ullanmagan, sinchkovlik bilan o'z tasarrufiga olmagan sohaning o'zi yo'q, – ha-ya, hademay nainki saraton xastaligi ham davo topadi, umuman, odamzotga mangu hayot baxsh etsa ham ajab emas.

Ikkinci zalda shisha shkafga duch keldi, uning ko'zguday tiniq oynasida go'yo butun olam jilva qilardi. Uning qarshisida beixtiyor mixlanib qoldi, bejirim kamzuli, silliq sochlari, ko'ylagining quyon qulog'iday yoqalari, erinmay dazmollangan shimi

hamda bo'yinbog'ining chiroyli tuguniga suqlanib tikilib qoldi. Nihoyat quvonchi ichiga sig'may, yog'ochga o'yilgan ko'hna naqshlarga iddao bilan nazar solgancha tomoshani davom ettirdi. „O'ta sodda va go'l, lekin qo'li gul yigitlar“, – deb o'yladi bag'rikenglik bilan. Fil suyagidan yasalgan hamda har soatda raqs tushadigan o'yinchoqli qadi-miy soatni ham maroq bilan tomosha qildi. Keyin tomoshadan zerikdi, dam-badam esnab, cho'nta-gidan soatini olib qaray boshladi, xolisona aytganda, ko'z-ko'z qilsa arziydigan, otasidan meros qol-gan, quling o'rgulsin vazmin oltin soat-da o'ziyam!

Tushgacha hali ancha vaqt borligidan hafsalasi pir bo'lgancha navbatdagi zalga kirdi-yu, yana qiziqishi ortdi. Bu yerdan jodugarlik kitoblari, tumorlar, jodugarlarning engil-boshi kabi jaholatli o'rta asrlarga oid ashyolar joy olgandi. Bir tomonda qorindor shisha idishlar, hovonchalar, puflanadigan charm idishlar, kaftday qozonchalar kabi kimyogarlarning lash-lushlari. Zalning ayni shu burchagi movut arqon bilan to'silgan bo'lib, ash-yolarga tegib bo'lmasligi ham lavhachada qayd etilgandi. Lekin bunday ogohlantirishlarga kamdan kam tomoshabin e'tibor beradi, boz ustiga Sigler zalda yolg'iz o'zi edi.

U arqon uzra beixtiyor qo'lini cho'zib, g'alati narsalarni paypaslab ko'ra boshladi. O'rta asrlar va o'sha davrlardagi g'aroyib irim-sirimlar haqida o'qigandi; lekin bunday bolalarcha bema'nilik bilan o'shanda odamlar nima uchun zo'r berib shug'ul-langani-yu bunday jodugarlik va qallobliklarni nima uchun butunlay taqiqlab qo'yishmaganiga sira ham aqli yetmasdi. Kimyogarlikni-ku kechir-

sa bo'ladi, axir ayni shu hunar negizida keyincha-lik, hozirgi zamonda nihoyatda zarur kimyo fani paydo bo'lgan. Bir zamonlar tilla eritish uchun zarur bo'lgan antiqa qozonchalar hamda bema'ni bu ashqol-dashqollarning barchasi payti kelib juda qo'l kelganiga ishonch hosil qilganda, hayratdan beixtiyor yoqangni ushlaysan, zotan, bugungi kunda bularsiz aspirin kabi dori-darmonlarni ham, gaz bombalarini ham yaratib bo'lmas edi!

U xabдорини eslatadigan, quruq, deyarli vazn-siz bo'lib qolgan qoramadir soqqani qo'lga olib, salmoqlab ko'rib, endi joyiga qo'yimoqchi edi, ortida qadam tovushlarini eshitdi. Sigler dovdirab qoldi, chunki soqqani hamon ushlab turar, buning ustiga lavhachadagi ogohlantirishni o'qigandi. Soqqani changallab, keyin esa cho'ntagiga solgancha keyingi zalga o'tdi.

Ko'chaga chiqqandan keyin yana soqqani esla-di. Qo'liga olib uloqtirmoqchi bo'ldi, lekin qiziqib hidladi. Zaifgina qatron hidi Siglerga xush yoqdi va soqqani yana cho'ntagiga soldi.

Restoranga kirib, tushlik buyurdi, bir necha gazetalarga ko'z yugurtirdi, bo'yinbog'ini to'g'rila-gan bo'ldi, xo'randalarga egnidagi kiyimlariga mos ravishda goh lutfan, goh kalondimog'lik bilan na-zar tashladi. Ofitsiant oshxonada ancha ushlanib qoldi, va janob Sigler beixtiyor o'g'irlagan soqqani qo'lga olib, yana hidladi. So'ngra tirnab ko'rdi va nihoyat bolalarcha qiziquvchanlik bilan og'zi-ga soldi. Soqqa og'zida bir zumda eridi va Sigler uning hech qanday ta'mi yo'qligidan hayron bo'l-gancha bir ho'plam pivo bilan yutib yubordi. Ayni shu palla tushlik keltirildi.

Yigitcha roppa-rosa soat ikkida tramvaydan sakrab tushdi-da, hayvonot bog'iga kirish uchun chipta xarid qildi.

Og'zi qulog'ida, maymunlar katagi tomon yo'naldi va shimpanze saqlanayotgan kattakon katak oldida to'xtadi. Hirsday erkak shimpanze unga ko'zini qisdi, do'stona imo qildi va shivirlaganday dedi:

– Ahvollar qalay, og'ayni chalish?

Ajablangan va haddan tashqari qo'rqib ketgan tomoshabin shosha-pisha nari ketarkan, shimpanzening zaharxandasasi qulog'iga chalindi:

– Kekkayganiga o'laymi buning! Esini yegan maymoq!

Sigler uzun dumli makakalarni tomosha qila boshladi. Ular odatdagidek irg'ishlagancha unga dedi:

– Qand bersang-chi bizlarga, birodar, qand! – yonida qand yo'qligini bilib, g'azabga kelib, „Voy qurumsog'-ey!..“ deganday tishlarini g'ijirlatib, g'a-shiga tega boshladilar. Bunga sira chiday olmay, ranjigancha, yaxshiroq munosabatda bo'lar degan umidda olachipor bug'ular tomon yurdi.

Yirik bug'u shundoqqina g'ovga tumshug'i-ni tiragancha chaqchayib tikilib turardi. Sigler qo'rqqanidan yuragi naq yorilay dedi. Nihoyat, g'alati soqqani yutib yuborgandan buyon jonivor-larning tilini tushuna boshlaganini anglatdi. Bug'u esa yirik-yirik ko'm-ko'k ko'zları vositasida u bilan suhbatlashardi. Bug'uning xotirjam nigohida ulug'vorlik, sadoqat va orziqish tuyg'ulari aks etardi, tomoshabinga nisbatan esa nafrat, hat-toki jirkanch nafrat yolqinlanardi. Jonivor osuda

va viqorli nigohi bilan Siglerga shlyapasi, qo'lida ushlagan aso-yu, soati hamda kiroyi kamzuli bilan butun turish-turmushi masxaraomuz, o'zing esa sariq chaqaga ham arzimaydigan tasqarasan, deganday tuyuldi. Bug'uning ta'qibidan najot axtarib Sigler arxar sari, undan esa tog' kiyigi sari, qoplon, yovvoyi to'ng'izlar va ayiqlar tomon shosshildi. Hech biri uning nafsoniyatiga tekkani yo'q, biroq hamma-hammasi undan oshkora nafratlanardi. Jonivorlarning gaplariga qulqut tutib, ularning odamzot haqidagi fikrlarini bilib oldi. Bu dahshatli mulohazalar edi. Ularning barchasi, xususan, nima uchun jirkanch, sassiqdan sassiq, ayni galalahgan ikkiyoqlilarga, xuddi mana shu salt-u satanglarga ozodlik og'ushida emin-erkin davr-u davron surish nasib etgan-a, deya hayratga tushardi.

Ko'zlari cho'g'day yonayotgan qora silovsin o'g'liga aytganlarini o'z qulog'i bilan eshitdi. Bu odamlar orasida ham kamdan kam uchraydigan sermulohaza va omilkorona or-u nomus muloqoti edi. Yakshanba kuni keladigan nafratomuz tomoshabinlar haqida kalondimog' yo'llbars asilzodalariga xos bosiqlik bilan qanchalar lo'nda fikr bildirganini eshitdi. Sigler oppoq paxmoq yolli sherning nigohiga nazar solib, kataklar-u odamzotdan nom-nishon ham yo'q darrandalar olami naqadar bepoyon va g'aroyib ekaniga ishonch hosil qildi. Zarang shox uzra haykalday qotib qolgan qayg'uli, ayni paytda mardonavor kaklikni ko'rdi, soykalar esa hamon qadr-qimmatiga zarracha ham putur yetkazmay hazil-huzul bilan umrguzaronlik qilayotganining guvohi bo'ldi.

Olam to'g'risidagi jamiki tasavvurlaridan judo bo'lgan, gangigan Sigler alam va umid bilan odamlarga yuzlandi. U qo'rquv va xavotirlariga barham beradigan nigohni axtarar, taskin-u tasalli bo'ladijan ezgu fikrlardan umidvor bo'lib, odamlarning suhbatlariga quloq tutdi, insoniy qadr-qimmat, odamoxunlik, olivjanoblik va pinhona afzallik xislatlarini topish maqsadida hayvonot bog'ida to'da-to'da kezib yurganlarning imo-ishoralarini kuzatdi.

Biroq barcha umidlari puch bo'lib chiqdi. Odamlarning ovozlarini eshitar, xatti-harakatlari, imo-ishoralarini va nigohlarini ko'rар, biroq endilikda bularning barchasiga darrandaning nigohi bilan nazar solgani bois hamma jonzot turlarining jirkanch umumlashmasidan iborat mazkur hayvonsifat mavjudotlarning soxta, munofiqona va sharmandali to'dasi timsolida tubanlikdan bo'lak hech vaqo topa olmadi.

Sigler hayvonot bog'i bo'ylab alam bilan go'yo charx urar, xijolatga botganidan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketguday bo'lardi. Qo'lidagi chorqirra asoni allaqachon butalar ichiga uloqtirgandi, qo'lqopni ham o'sha tomonga otdi. Biroq shlyapasini ham otib yuborib, poyabzalini ham yechib, bo'yinbog'ini ham yulqib olib, bug'u tumshug'ini tirab turgan g'ovga yopishgancha yig'lay boshlaganda, rosmana ola-g'ovur qo'pdi, uni oyoq-qo'liga kishan solib, jinnixonaga jo'natishdi.

Abduhamid PARDAYEV tarjimasi

UNUTILGAN KITOBLAR QABRISTONI

Dadam meni ilk marotaba Unutilgan Kitoblar qabristoniga olib borgan kunni hali-hanuz yaxshi eslayman. 1945-yilning ilk yoz kunlari edi va biz kulrang osmon ostida yastanib yotgan Barselona ko'chalari bo'ylab yurib borardik. Tong esa Ram-la de Santa Monikani mis gulchambarlariga o'rab qo'ygandek edi, go'yo.

„Daniyel, bugun ko'radigan narsangning nimaligini hech kimga aytmasliging kerak, dadam meni ogohlantirdi. – Hattoki yaqin do'sting Tomasga ham. Hech kimga“.

– Hatto oyimga hammi?

Dadam chuqur tin oldi va butun hayotiga soya solib turgan alamni g'amgin bir tabassum ortiga berkitishga urinarkan, og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Albatta, unga aytishing mumkin, javob berdi u juda g'amgin holda. Biz undan sir yashirmaymiz. Sen unga hamma narsani aytishing mumkin.

Fuqarolar urushidan qisqa vaqt o'tib, mudhish vabo meni oyimdan judo qildi. Biz uni mening to'rtinchı tug'ilgan kunimda Montjuikka dafn qildik. O'sha mash'um kunda yodimda qolgan yagona narsa shuki, o'sha kuni butun kun-u tun yomg'ir yog'ishdan tinmadi, dadamdan jannat

yig'layaptimi, dada, deb so'raganimda esa u javob bera olmadi.

Oradan olti yil o'tib, oyimning yo'qligi men hali ham ko'nika olmagan juda qattiq sukunatga aylanib ketdi. Dadam bilan biz Kelli Santa Amdada, cherkov tuyulishidan uncha uzoq bo'l-magan kamtargina bir kulbada yashardik. Uyimiz bobomdan qolgan kolleksionerlarning noyob asarlari va ikkinchi qo'l kitoblari sotiladigan kitob do'koni – mo'jizakor do'konning shundoqqina tepasida joylashgan bo'lib, dadam bir kun kelib uning meniki bo'lishiga umid qilardi.

Men kitoblar bilan voyaga yetdim, sahifalardan ko'rmas do'stlar orttirdim va bu bugungacha davom etmoqda. Bolalikdan qorong'i yotog'imda uyquga ketishdan avval onam bilan „suhbat qu'rishga“, unga kunning voqealarini, mакtabdagи sarguzashtlarimni va unda o'rganganlarimni so'zlab berishga odatlanib qoldim. To'g'ri, uning ovozini eshita olmas edim, biroq uning tafti va nafasi uyning har bir burchagida mayjud va o'z yoshini nozik barmoqchalari bilan sanab aytadiganlarining begunohligi haqqi, ishonardimki, agar hozir ko'zlarimni yumsam, u qayerda bo'lmasin, meni eshitadi.

Ba'zan shunday xayollar og'ushidaligimda, dadam meni oshxonadan tinglab, jimgina yig'lagan...

O'sha iyun tongida saharga yaqin qichqirib uyg'onib ketdim. Ko'ksimdagи yuragim go'yo chiqib ketgudek urardi. Dadam darhol xonamga shoshildi va meni qo'llariga olib, tinchlantirishga urindi.

– Men... Men uning yuzini eslay olmayapman... Oyimning yuzini eslay olmayapman... Nafas olmay qaytarardim men.

Dadam meni mahkam bag'riga bosdi.

– Xavotir olma, Daniyel. Men ikkimiz uchun ham eslayman.

Biz tong yorishguncha bir-birimizga biror so'z topolmay qarab qoldik. Dadamning keksayib qolayotganini birinchi marta ana o'shanda payqadim. U o'rnidan turib, tongning shu'lesi kirib turishi uchun pardalarni surib qo'ydi.

– Daniyel, kiyin. Senga bir narsa ko'rsatmoqchiman.

– Hozirmi? Tonggi soat beshda-ya?

– Ba'zi narsalarni faqatgina qorong'ida ko'rish mumkin, – dedi dadam o'zgacha bir sirli tabassum bilan (ehtimol, buni u Aleksandr Dyumaning biror romanidan o'qigandir).

Biz old eshikdan chiqqanimizda, qorovul hanuz qorong'i ko'chada sanqib yurardi. Tongning g'ira-shirasida Ramblas bo'ylab ko'chalarni yoritgan chiroqlar shaharning uyg'onganidan darak edi, bu go'yo jozibador akvarelning hayotga sekin kirib kelishiga o'xshaydi.

Kalli Arko del Teatroga yetib bordik va ustunlar bo'ylab Raval tomon yurishda davom etdik. Men dadamning izidan to ortimizdagি Ramblasning xira chiroqlari g'oyib bo'lguniga qadar ergashib boraverdim. Tong yorug'i ufqdan balkonlarga va yerga yetmay erib ketayotgan qiya nurlar ichidagi devorlarga tarqaldi. Nihoyat, dadam vaqt va namlik qoraytigan, yog'ochdan ishlangan ulkan o'yma eshik oldida to'xtadi. Bizlardan oldin ko'zimga sharpasi ko'ringan narsa bu qasr-

ning jonsiz jasadi bo'lib, u menga aks-sadolar va ko'lankalar makoni bo'lib tuyuldi.

„Daniyel, bugun sen ko'radigan narsaning nima ekanini hech kimga aytmasliging kerak. Hatto eng yaqin do'sting Tomasga ham. Hech kimga“.

Kichikdan kelgan, siyrak, kulrang sochli tas-qara bir kishi eshikni ochdi. Uning dosh berib bo'lmas burgut qarashi menga qadalgan edi.

„Xayrli tong, Isaak. Bu mening o'g'lim, Daniyel“, ta'kidladi dadam. „U yaqinda o'n bir yoshga to'ladi va kun kelib do'kon uniki bo'ladi. Uning bu joy haqida biladigan vaqtি keldi“.

Isaak nomli kishi boshini sarak sarak qildi va bizni ichkariga taklif etdi. Ko'k rangli kishining ta'bini xira qilguvchi qorong'ilikdan marmar zinaning burilishlariga va u yerdan farishtalar bilan o'ralgan odamlar va turli g'aroyib mavjudotlar freskolari bilan bezatilgan galereyaga o'tdik. Mezbonning ortidan yuqori yo'lka tomon yurdik va tepamizdagи ulkan shisha gumbazdan yorug'lik tushib turuvchi ko'lankalar bazilkasi joylashgan aylana zalga yetib bordik. Yo'laklar labirinti va liq to'la kitobjavonlardan xuddi asalari uyasiga o'xshash gumbazning yuqori qismiga ko'tarildik, tunnellardan, zinapoyalardan, platformalardan, ko'priklardan o'tib, imkonni yo'q geometriya bo'lib ko'ringan ulkan kutubxonaga yetib bordik. Men toshday qotib, dadamga qaradim. U menga jilmayar ekan, ko'zini qisib qo'ydi.

„Unutilgan Kitoblar Qabristoniga xush kelibsан, Daniyel“.

Maftuna RAIMQULOVA tarjimasi

LUIZA

Luiza nega meni o'ziga yaqin olganiga sira aqlim yetmaydi. U meni yomon ko'rardi. Imkon bo'ldi deguncha ortimdan xunuk gaplarni gapirishini sezib yurardim. Yoqtirmasligini ochiq aytmasa-da, pichinglari-yu, xo'rsinishlaridan, chiroyli qo'llarini silkitishlaridan ham buni tushunib olish qiyin emasdi. Bir-birimizni yigirma besh yildan beri yaqindan bilardik. Lekin bu narsaning Luiza uchun hech qanday ahamiyati yo'q edi. U meni qo'pol, surbet va shafqatsiz odam deb hisoblardi. Shunaqa yomon ko'rarkan, nega meni holi-jonimga qo'ymaydi, boshimni qotiradi. Dam-badam nonushta yoki tushlikka chaqirar, dam olish kunlari shahar tashqarisidagi uyiga ham yiliga bir necha marta taklif qilardi. Ehtimol, yolg'iz mengina uning niqob ostidagi haqiqiy qiyofasini ko'rishga qodirligimni Luiza bilgandir. Men ham ertami kechmi, yuzimga shunaqa niqob kiyishimga umid qilgandir.

Luizani qizlik paytidanoq bilardim. O'sha paytlari u katta-katta ko'zları ma'yus boquvchi nimjingga qiz edi. Ota-onasi Luizani haddan zi-yod yaxshi ko'rар, yer-u ko'kka ishonishmasdi. Bunga Luizaning dardchilligi ham sabab edi. Bi-

lishimcha, Luiza bolaligida qizilcha kasaliga chalnib, yuragi zaiflashib qolgan, endi u o'zini har tomonlama asrab-avaylab yashashga majbur edi.

Tom Metlend uning qo'lini so'raganida, qizning ota-onasi qo'rqib ketishdi. Ular Luizaning bu ahvolda erga tegishga umuman yaramasligini bili-shardi. Lekin ular boylar toifasidan emasdilar. Tom Metlend esa badavlat odam edi. U, Luiza xohlasa, osmondagi oyni ham olib berishga va'da berdi va oxir-oqibat ular qizini Tom Metlendning qo'liga ishonib topshirishdi. Tom qoruvli, kuchli va kelishgan yigit bo'lishi bilan birga, yaxshigina sportchi ham edi. U Luizani jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Yuragi xasta sevgilisidan yaqin orada judo bo'lishini bilardi. Luiza qolgan sanoqli yilla-rini baxtli o'tkazishi uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qilishga hamisha tayyor edi.

U ilgaridan qoyilmaqom qilib bajarib yurgan sport mashqlaridan ham voz kechdi. Yo'q, Luiza shunday bo'lishini xohlagani uchun emas, biror yoqqa ketmoqchi bo'lib turgan paytida har gal Lui-zaning yuragi sanchib qolgani uchun mashqlar-dan voz kechdi. Janjallahib qolishgan vaqtli-دا Luiza eng yaxshi xotin qiyofasiga kirib, darrov Tomga yon bosardi. Keyin Luizani yuragi bezov-ta qilar va u bir hafta musichayi beozor bo'lib, to'shakka mixlanib yotardi. Shunday paytlarda Tom xotiniga qattiq gapirishga yuragi betlamasdi.

Bir safar Luiza o'zi judayam xohlab sayrga chiqib, sakkiz mil yayov yo'l yurganini ko'rib, Tom Metlendga Luizaning sog'ligi uncha-muncha ayol-larnikidan yaxshi ekanligini aytdim. Tom boshini chayqab, xo'rsindi:

– Yo‘q, Luiza, aslida, judayam zaif. U dunyodagi eng yaxshi yurak mutaxassislari ko‘rigidan o‘tdi. Hammasi Luizaning sanoqli kunlari qolganini aytdi. Metin irodasi borligi uchun ham hozir o‘zini shunday tutyapti.

Tom gaplarimni Luizaga aytdi.

– Buning azobini ertaga ko‘raman, – dedi Luiza menga qarab „uh“ tortarkan. – Yana o‘lim bilan yuzma-yuz bo‘laman.

– Ba’zida menga sizda hech qanaqa kasallik yo‘qday tuyuladi, – dedim sekingina.

Gashtli o‘tgan mehmondorchiliklarda Luiza ertalabki beshlargacha raqs tushib charchamaganini, befayz o‘tirishlarda esa mazasi qochib, Tom uni uyiga vaqtli olib ketganini bir necha marta ko‘rgandim. Menga qarab siniqqina kulib qo‘ygan bo‘lsa-da, boyagi gapim Luizaga yoqmaganini sezdim. Katta-katta ko‘k ko‘zlaridan kayfi qochganligi bilinib turardi.

– Men sizni xursand qilish uchun o‘layotganim yo‘q, – dedi u.

Luiza eridan ham ko‘proq yashadi. Bir kuni ular yelkanli qayiqda sayr qilib qaytishganidan keyin Tom qattiq shamollab qolib, jon taslim etdi. Luizani isitish uchun uni uydagi bor gilam-u ko‘rpalar bilan o‘rab qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Tom Luizaga katta bisot va bir qiz qoldirib ketdi. Luiza tasalli topmaydigan bir ahvolga tushib qoldi. Xasta yuragi bilan bu kulfatni ko‘tara olganiga aql bovar qilmasdi. Bechora Tom Metlendni tuproqqa qo‘yishda Luizaning do‘stlari unga dalda bo‘ldilar. Ular onasidan ham ajralib qolishi mumkin bo‘lgan Luizaning qizi Irisga chindan qayg‘ura

boshlagan edilar. Shu bois, Luizaning tevaragida girdikapalak bo'lishardi. Do'stlari Luizaning qo'lini sovuq suvgaga urdirmadi, uni turli tashvishlaridan xoli qilish uchun har qanday narsaga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Darhaqiqat, ularga ish ham topildi, chunki Luiza biror og'irroq yoki yoqmaydigan yumush qilmoqchi bo'lsa, yuragi sanchib, bir o'lib-bir tirilardi. „Agar birov menga ko'z-quloi bo'lib turmasa, o'lishim aniq“, derdi Luiza. Shu ahvolida qizalog'i Irisni qanday katta qilishiga aqli yetmasdi. „Nega yana erga tegmaysiz?“, deb so'rashardi do'stlari. „Oh, bu yuragim bilan erga tegish haqida o'ylashga ham botinolmayman“, derdi Luiza.

Lekin Tomning o'limidan keyin bir yil o'tgach, Luiza qo'lini so'ragan Jorj Xobhauzga rozilik berdi. Jorj kelishgan va anchagina badavlat odam edi. Bu nimjon ayolni panohiga olishga rozilik berishganida Jorjdan baxtiyor odamni ko'rmadim.

— Men sizni ko'p qiynamayman, — derdi Luiza.

Jorj shuhratparast harbiylardan edi. Lekin ishini tashlab qo'ydi. Luizaning sog'lig'i yomonlashib, qishni Monte Karlo, yozni esa Dyuvilda o'tkazishga majbur bo'ldi. Jorj uch-to'rt kunlik umri qolgan xotinini qo'lidan kelgancha xursand qilishga ahd qildi.

— Hayotim tugab boryapti, — derdi Luiza. — Tinchgina o'lishga harakat qilaman.

Keyingi ikki-uch yil mobaynida Luiza xasta yurak bilan chiroyli kiyinib, eng qizg'in bazmlarga borishni, do'rji-do'rji pul tikib qimor o'y-nashni, baland bo'yli, chiroyli yigitlar bilan raqs tushishni va hatto ularga noz-karashma qilishni

ham epladi. Luizaning bиринчи еридаги матонат Йорж Xобгаузда ў'қ edi va u Luizaning иккинчи ери сифатида зиммасидаги ташвishлардан zerikib, ora-sira ichib yurishga majbur bo'ldi. Albatta, Йоржнинг ароqqa mukkasidan ketishi Luizaga yoqmasdi. Ammo (Luizaning baxtiga) urush boshlan-di. Йорж zahiradan o'z polkiga qaytib, uch oydan keyin halok bo'ldi. Bu zarba Luizani esankiratib qo'ydi. Lekin shunday musibatdan keyin ham u g'am-g'ussaga tushmasligi lozimligini his qildi. Agar o'sha paytda yuragi xuruj qilganda hech kim bu haqda xabar topmagan bo'lardi. O'zini chalg'itish uchun Luiza Monte Karlodagi villasini oyoqqa turayotgan ofitserlarga mo'ljallangan shifoxonaga aylantirdi. Do'stlari unga bu tashvish og'irlilik qilishini aytishdi.

— Bu ish meni o'ldirishi aniq, — dedi u. — Bilaman. Lekin buning nima ahamiyati bor? Boshqalarga yordam berishim kerak.

Luiza o'lmadi. Qaytaga avvalgidan ham yash-nab ketdi. Uning shifoxonasiga teng keladigan kasalxona butun Fransiyada ў'қ edi. Uni tasodifan Parijda uchratib qoldim. Restoranda novcha va juda kelishgan yosh fransuz bilan tushlik qilayotgan ekan. „Bu yerda shifoxonaga aloqador ishlar bo'yicha yuribman“, deb tushuntirdi u. Luiza kasalxonadagi ofitserlar unga mahliyo ekanligi haqida gapirdi. Ular Luizaning kasali og'irligini tushunisharkan va unga hech qanday yumush qoldirishmas ekan. Go'yo ular Luizaga eridek g'amxo'rlik qilisharkan. Luiza xo'rsindi.

— Bechora Йорж, shu yuragim bilan undan ko'p yashashimni kim ham o'ylabdi deysiz?

- Eh, bechora Tom, – dedim men.
- Nega bu gapim unga yoqmaganini tushunmayman. U menga siniqqina jilmaydi, ko‘zlari yosha to‘ldi.
- Doim o‘limimni kutayotgandek gapirasiz...
 - Aytmochi, yuragingiz ancha sog‘ayib qolibdi, deb eshitdim?
 - Yuragim hech qachon sog‘aymaydi. Bugun ertalab shifokor ko‘rigiga bordim. O‘lishga tayyor bo‘lib turishimni maslahat berdi.
 - Yo‘g‘-e, bunga yigirma yildan beri tayyorlanasiz-u!
- Urush tugagandan keyin Luiza Londonga ko‘chib o‘tdi. Endi yoshi qirqdan oshib qolgan, avvalgidek ozg‘in va nimjon, ko‘zlari katta-katta, yuzlari rangpar ayol bo‘lsa ham, yigirma beshdan oshmagandek ko‘rinardi. Maktabni tugatib, bo‘yga yetib qolgan Iris esa u bilan birga yashay boshlagandi.
- U menga qaraydi, – derdi Luiza. – Turgan gap, mendek qari nogiron bilan yashash unga qiyin bo‘ladi. Lekin bu bir-ikki kun davom etadigan narsa. Irisning yo‘q demasligi aniq.
- Iris juda yaxshi qiz edi. Unga onasining sog‘lig‘i yomonligini muntazam uqtirib voyaga yetkazishgandi. Bola bo‘lib u biror marta ham to‘polon qilmagandi. Onasini yolg‘iz qoldirish mumkin emasligini doim yodida saqlardi. Mana endi Luiza qiziga: „Hammaning joniga tekkan keksa ayol uchun o‘zingni bag‘ishlashingga chiday olmayman“, deb qancha gapirmsasin, qiz bu gaplarga quloq solmadi.

Luiza „uh“ tortib, qiziga farzandlik burchini ado etishga ruxsat berdi.

– Bolamga menga g‘amxo‘rlik qilish yoqadi, – dedi u.

– Do‘stlari bilan birga yurgani yaxshimasidi? – deb so‘radim.

– E, buni unga doim aytaman. Do‘stlaring bilan o‘ynab-kulib yur, deb hech ko‘ndirolmadim. Tepada Xudo bor, birovning meni deb huzur-halovatini yo‘qotishini hech qachon xohlamaganman.

Men bu gaplarni Irisga aytganimda, u shunday dedi: „Bechora oyijonim, mening do‘stlarim bilan birga bo‘lishimni, o‘tirishlarga borishimni xohlaydi, endi biror joyga boraman deb turganimda yuraklari sanchib qoladi, shuning uchun uyda qolganim yaxshi“.

Lekin ko‘p o‘tmay Iris bir yigitga ko‘ngil qo‘ydi. Yosh do‘stim, bama’ni bir yigit uning qo‘lini so‘radi va qiz rozi bo‘ldi. Irisni juda yaxshi ko‘rardim. Nihoyat o‘zi uchun ham yasharkan-da, deb quvondim. Lekin bir kuni o‘sha yigit tushkun bir ahvolda oldimga kelib, to‘y qoldirilganini aytdi. Iris onasini tashlab ketolmas ekan. Bu mening ishim bo‘lmasa ham, bahona topib, Luizanikiga bordim. Choy ichib o‘tirgan paytida do‘srtlari kelib qolsa, u doim xursand bo‘lardi.

– Iris erga tegmas ekan, deb eshitdim? – dedim muddaoga o‘tib.

– Bilmayman. Men xohlaganim bilan u erga tegmaydi... Meni o‘ylamay erga tegaver, deb tiz cho‘kib iltimos qilsam ham, „Sizni tashlab ketolmayman“, deyapti.

– Qizingizga jabr qilmayapsizmi?

– Balki. Lekin bu bir-ikki oy davom etadi. Bu ning ustiga men „O‘z hayotidan voz kechib, men ga qarasin“, deyotganim yo‘q-ku.

– Azizim Luiza. Bir-ikki oy, deb ikki eringizni ko‘mdingiz. To‘g‘ri, nimaga endi yana uch-to‘rttasi ni narigi dunyoga jo‘natmasligingiz kerak!

– Bilaman! Men haqimda nima deb o‘ylab yur ganingizni. Yuragimning kasal ekaniga hech qachon ishonmagansiz, shundaymi?

Luizaning ko‘ziga tik qaradim.

– To‘ppa-to‘g‘ri. Siz yigirma besh yil hammani laqillatdingiz. Siz dunyodagi eng xudbin, eng qabih ayolsiz. Anavi ikkita badbaxt erkakning umriga zomin bo‘ldingiz. Endi bo‘lsa qizingizni ham shu ko‘yga solmoqchisiz.

Agar o‘sha payt Luizaning yuragi to‘xtab qolganda hayron bo‘lmasdim. Uning quyushqondan chiqib ketishini kutgandim. U esa menga qarab muloyim jilmaydi.

– Bechora do‘srim, bu gaplarni menga aytgan ingizdan yaqin kunlarda shunday afsuslanasizki...

– Endi Iris o‘sha bolaga erga tegmaydimi?

– Erga teg, deb qizimdan iltimos qildim. Meni tashlab ketsa, o‘lishimni bilaman. Mayli. Baribir, hamma meni yomon ko‘radi. Odamlarga ortiqcha yukman...

– Tashlab ketsang – o‘laman, deb unga aytdingizmi?

– U meni shunga majbur qildi.

– O‘zingiz biror ish qilishni xohlamasangiz, hech kim sizni majburlay olmaydi.

- Xohlassa, o'sha yigitga ertagayoq erga chiqsin. Shu narsa meni o'ldirsa, o'ldira qolsin.
- Keling, bir tavakkal qilib ko'raylik, maylimi?
- Menga ozgina bo'lsayam rahmingiz kelma-yaptimi?
- Shunaqa tomoshalar ko'rsatgansizki, sizga rahmim kelishi qiyin, - dedim men.

Luizaning oppoq yuzlariga rang yugurdi. Luiza kului, lekin ko'zlar g'azab bilan qat'iy boqardi.

- Irisning to'y shu oyda bo'ladi, - dedi u. - Agar menga biror narsa bo'lsa, siz ham, Iris ham o'zingizni kechira olmassiz deb umid qilaman.

Luiza so'zida turdi. To'y vaqtib belgilandi. Kat-ta sep buyurildi va taklifnomalar tarqatildi. Iris va yigit juda xursand bo'lishdi. To'y kuni ertalab soat o'nda, Luizaning, o'sha yovuz ayolning yu-ragi yana bir marta qattiq xuruj qildi va u o'ldi. Luiza o'zini o'ldirgan qizi Irisni kechirib, astagina jon berdi.

Ingliz tilidan

Alisher OTABOYEV tarjimasi

BADQOVOQ

Xo'mraygan, achchiq sovuq kuzak. Chog'roq stansiyaning pastqam yog'och binosi yomg'irdan qora tusga kirgan. Ikkinchikunki, izillama orqabetshamoli tinmaydi, chordoq oynasiga urilib hushtak chaladi, stansiya qo'ng'irog'i ichida g'u-vullaydi, qayinlarning yalang'och shoxlarini qat-tiq-qattiq silkiydi.

Siniq tushovda kallasi yerga tekkuday, kepchik oyoqlarini kergancha ot turardi. Shamol uning dumini, yollarini o'ynoqlar, aravachadagi pichanni ko'tarib-ko'tarib qo'yari, tizginni tortqilardi. Lenkin ot kallasini ko'tarmas, ko'zini ham ochmasdi: aftidan, og'ir o'yga cho'mgan yoki mudroqda.

Arava yonidagi jomadonda to'ng, jiddiy, yassis bashara, charm paltoli yigit o'tirardi. Arzon popirosnitez-tez tortadi, chirt etkizib tupuradi, kaltabarmoq qo'llarida iyagini qashiydi, qovog'i uyuq, yerga tikilgan.

Yonida ko'zlari shishib ketgan, ro'moli ostidan kokillari chiqib qolgan qiz turardi. Qizning rangpar, horg'in yuzida na umid, na istak ko'rinaldi - sovuq va loqayd. Faqat ma'yus qora ko'zlarida tilga chiqmagan og'riq yashiringan. Tishini tishiga bosib loy bo'tikli oyoqlarini tapillatadi, imkon

qadar shamolga orqa o'girib olgan, yigitning ser-kemirchak oq qulqlariga tikilib qolgan.

Perron bo'ylab zaif shitirlagancha yaproqlar uchib-qo'nadi, uyum-uyum to'planadi, o'z tillari-da nedandir zorlanishadi, keyin, shamolga kuchlari yetmay, nam yerda pir-pir aylanib, ko'lmak tuzog'iga tushishadi va jimib qolishadi. Tevarak-javonibda rutubat...

– Hayotning o'yinlarini qara-ya, – daf'atan tilga kirdi yigit miyig'ida kulib. – Endi qiladigan ishim – intizom. Kolxozda nima bor menga? Uymi? Uy, ana, onam bilan singlimga qolaversin, bunga arzishadi. Kamina viloyatga ketadi, men-ga murabbiy tayinlashadi, innaykeyin kvartira... Shtangachilarimizni aytmaysanmi? Musobaqada ko'rganman: eng zo'rliyam birinchi razryadga arang topshirishadi. Men esam sport ustaligini oppa-oson qo'lga kiritdim! Ko'rdingmi?!

– Men-chi? – deya sekin so'radi qiz.

– Senmi? – Yigit qizga ko'z qirini tashladi, to-moq qirib oldi. – Aytildi-ku. Bir aylanib, kela-man. Hozir vaqtim yo'q... Rekord qo'yishim kerak. Moskvaga borishim kerak, u yerdagilarga ko'rsatib qo'yaman hali. Faqat bir narsaga afsusdaman: bu mexanik deganlarini avvalroq bilmagan ekan-man. Yo'qsa allaqachon... Qanaqqib yashashar-kin o'zi u yoqda? Shug'ullanisharmish... Mening kuchim esa ichkarida, sal shoshmay tur, hammasini birvarakayiga jigarini ezaman. Chet elga chiqaman, rohat-farog'at boshlanadi nasib etsa! Oldingga kelib turaman... Innaykeyin... yozib turaman...

Olisdan poyezdning ojizgina tovushi keldi; bulutli kunning mahzun sukunatini ingichka cho'ziq gudok tovushi kesib o'tdi; stansiya eshigi ochilib, perronga furajkasiga mazut tomgan, solqibashara stansiya boshlig'i chiqib keldi.

Yolg'iz turgan yo'lovchilarga bir qarab olib, popirosin chiqardi, ezib-ezib hidladı. Keyin osmonga qarab, cho'ntagiga qaytarib soldi. Esnagancha, xirillab so'radi:

– Qaysi vagon?

Yigit istamaygina boshini burdi, stansiya boshlig'in yangi kalishlariga qaragancha chiptasini chiqardi.

– To'qqizinchi. Nimaydi?

– Xo'sh, xo'sh... – ming'illadi boshliq va yana esnog'i tutdi. – To'qqizinchi deysanmi? Xo'sh... To'qqizinchi. Havoyam ezbordi-da. O'h-ho', o'h-ho'...

Stansiya boshlig'i nari ketdi, ko'lmakni aylanib o'tib, yuk bo'lmasiga yo'naldi. Poyezd o'rmon ortidan ko'rindi, tezda yetib ham keldi, shashtidan tushib, yana bir bor na'ra tortdi. Yigit o'rni dan turdi, popirosin tashladi, qizga qaradi. Qiz esa kulishga chirandi, ammo lablari bo'ysunmadidi, titrab ketaverdi.

– Bo'ldi qilsang-chi! – dedi jomadoniga egilgan yigit po'ng'illab. – Eshityapsanmi? Bas, yetar dedim senga!

Ikkovlon perron bo'ylab poyezdga peshvoz chiqishdi. Qiz yigitning yengidan ushlab, uning yuziga tikilib-tikilib oldi. Shoshib-pishib gapira ketdi:

– O'zingni ehtiyot qil, og'ir ko'tarmagin... Biron ta tomiring uzilib ketmasin tag'in... O'zingni o'y-

la, hadeb joningni jabborga beravermagin... Men bo'lsam kutaman! Gazetalardan seni izlayman.... Mendan o'pkalama. Shunchaki men... seni yaxshi ko'raman, shunga yig'layapman-da o'ylanib...

– Qo'y bu gaplaringni! – dedi yigit. – Aytdim-ku kelaman deb...

Ularning yonidan yerni silkitib, issiq par purkagancha parovoz o'ta boshladi. Ortidan tobora sekinlashgan horg'in vagonlar yetib keldi: bitta, ikkita, uchta...

– Ana to'qqizinchisi! – dedi qiz ilkis. – Kutamiz!

Vagon muloyimgina to'xtadi. Tamburda so'lg'in kayfiyatda yo'lovchilar tigelishdi, tashqariga qiziqsinib qarashdi. Oyna ichkarisida yo'l-yo'l pijamadagi sersoqol, biqqi kishi ko'rindi, do'ng peshanasini tirishtirib, jon-jahdi bilan romni qimirlatishga urinardi. Nihoyat, oyna ochildi. Do'ngpeshana o'sha zahoti boshini oynadan chiqarib, alangjalang stansiyani ko'zdan kechirdi, qizni ko'rib qolib, yoyilib kuldi va chiyillab so'radi:

– Oyimqiz, bu qaysi stansiya?

– Lundanka, – dedi xirildoq ovozda provodnik.

– Bozor bormi? – deb so'radi pijamali kishi hamon qizdan ko'zini uzmay.

– Bozor yo'q, – tag'in javob qildi provodnik. – Ikki daqiqa turamiz, xolos.

– Iye, bu qanaqasi bo'ldi? – hayron bo'ldi qizdan ko'zini uzolmayotgan yo'lovchi.

– Oynani yoping! – deyishdi vagondagilar terslik bilan.

Pijamadagi kishi yog' bosgan bellarini ko'rsatib o'girildi, hazin kulib, derazani yopdi va xuddi jarga qulaganday birdan g'oyib bo'ldi.

Yigit jomadonini vagon zinasiga qo'ydi, qizga yuzlandi.

– Yaxshi qol bo'lmasam, – dedi dag'al ovozda va qo'llarini cho'ntagiga tiqdi.

Qizning yanoqlariga ko'zyoshlari dumaladi. Hiqillagancha yigitning yelkasiga yuzini burkadi.

– Sog'inib qolaman, – dedi boyaqish shivirlab. – Tez-tez yozib turgin... Eshityapsanmi? Yozgin... Kelasan-ku, a?

– Haliginda aytdim-u, – dedi yigit istar-istamas. – Ko'zyoshlaringni art... Qani!

– Xo'p-xo'p, – ko'zyoshlarini artdi qiz va yigitga entikib tikildi. – Bir o'zim qolyapman. Ahd-u paymonlarimizni unutma...

– Esimda, o'libmanmi unutib! – qo'rslandi yigit.

– Men esa... Butun umr seniki bo'lib qolaman... Yodingda bo'lsin!

– Aytdim-ku... – eshitilar-eshitilmas ming'illadi yigit yerga qarab.

Qo'ng'iroq ikki marta qisqa-qisqa chalindi.

– Hoy, o'rtoq, vagonga chiqing, qolib ketasiz... – dedi provodnik va birinchi bo'lib o'zi chiqdi.

Qiz dokadek oqarib ketdi, og'zini kafti bilan berkitdi.

– Vasya! – qichqirdi qiz parishon nigohlari bilan yo'lovchilar tomonga qarab. – Vasya! Meni o'p...

– Menden nima ketdi... – deya o'ziga o'zi ming'irladi yigit, orqasiga qiyshayib qizga egildi. Keyin og'ir ishni yakunlaganday qaddini rostladi. Zinaga sakrab chiqdi. Qiz oh tortdi, titroq labini

tishladi, yuzini qo'llari bilan berkitib oldi, ammo darhol yana yuzini ochdi...

Vagonlar vishilladi, oldinda parovoz og'ir chin-qirdi, o'rmon ichra qisqa, bo'g'iq aks sado eshitildi. Vagonlar bilinar-bilinmas siljishga tushdi. Shpallar g'ichirladi. Zinada qizga badqovoqlik ila qarab turgan yigit bir qizarib oldi-da, pastroq ovozda baqirdi:

– Endi kelmayman! Eshitdingmi, kelmayman...

Irjaygancha to'yib nafas oldi, o'ziga o'zi allam-balolar dedi, jomadonini olib, yonlamasiga tamburga chiqdi.

Qiz allanechuk bukilib qoldi... Uning yonidan vagonlar lip-lip o'tar, shpallar og'ir-og'ir tin olar, nimadir qisirlar, chiyillardi. Qiz esa bir ko'rinishko'rinnmayotgan relsdagi mazut dog'lariga tikilib qolgandi, xuddi bu dog' o'ziga imlayotganday, tortayotganday o'ychan, hadiksiragancha rels tomon yaqinlashaverdi. Qinidan chiqib ketayozgan yuragiga qo'llarini qo'ydi, bolalarnikiday lablari oqarib ketgandi...

– Hazir bo'l! – Qizning boshi uzra yovvoyi chinqiriq yangradi.

Qiz sapchib tushdi. Shpallarning ingrog'i, g'il-diraklarning taqa-tuqi tindi. Boshini ko'targan qiz oxirgi vagon ham tobora uzoqlashayotganini ko'rdi. Shunda qiz yer farzandlariga beparvo boqib turgan samoga nazar tashladi. Ro'molini qattiq chandib, ojizalardek zorlandi:

– Keet-di!!..

Poyezd o'rmon ortiga yashirinib ko'zdan yo'qoldi. Suv quygandek jimjitlik. Shap-shap oyoq sud-

rab stansiya boshlig'i qizning ortidan keldi, es-nadi.

- Ketdimi? Ha-a... Hozir hamma ketyapti.

Nash'a bilan tupurdi-da, tupugini oyog'i bilan artib tashladi.

- Tez orada men ham ketaman... Kunbotar taraflarga. Bu yer zerikarli, nuqul yomg'ir... U yoqlarda esa issiq! Haligi, nimaydi, sarvlar...

So'ng qizga bir qur nazar tashlab, uning bo'tik-lariga qarab qoldi va:

— Siz „Qizil mayoq“dan emasmisiz? Haa... Shunaqa deng... Havo ezbordi-da o‘ziyam, — dedi.

Shap-shap qadam tashlab, ko'lmakni aylanib o'tib, nari ketdi.

Qiz huvullagan platformada uzoq turib qoldi, olislarga tikilgancha, hech narsani ko'rmsadi: na o'rmonni, na yaltir-yultur relslarni... U yigitning cho'tir yuzlarini ko'rardi.

Nihoyat, xo'rsinib, yuzini artdi-da, ortga qarab ketdi...

Rus tilidan

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

Chyngiz vana yurini olibi . . .

Vaqitgosi shaxsiy qiziqarli bilan boshladi. Ushbu xiziq qiziqi e'gova hissasi uchun shaxsiy qiziqarli bilan boshladi. Vagordor bilan birumka, shaxsiy qiziqarli bilan boshladi. Ushbu xiziq qiziqi uchun shaxsiy qiziqarli bilan boshladi. „IKAR“

Bugun „Lojuvard uy“ shifoxonasiga operatsiya uchun yotdim. Barcha bemorlarga berilgich yolg'on taskinlardan qat'iy nazar, aniq bilamanki, operatsiya o'ta og'ir bo'ladi. Undan biror naf olish olmasligim ham gumon. Badbin o'ylarim haqida birovga churq etmagan bo'ssam-da, vrachlar, bolalarim, ayniqsa, xotinim ko'nglimdan nima kechayotganini sezib turishibdi. Jon kuydirib meni xotirjam qilishga urinib yotishibdi. Hazil-huzul qilishadi, ko'ngil ko'targich gaplar aytishadi, uzoq kelajakka oid rejalardan so'ylashadi. Go'yoki men dengiz sayyohatiga chiqarmishman, Bretanga safar, Shtiriyyada ov qilarmishman. Tuzalishim haqida-ku, gap ham bo'lishi mumkin emasmish. Bu masala allaqachon ijobi hal qilingan ekan. Nari borsa o'n kunda kasalxonadan chiqib, otdek bo'lib ketarkanman.

Tabobat ilmining ravshan chirog'i – meni tig' ostiga olishi lozim bo'lgan professor Koltani esa shunday dedi:

– Kasalxonamiz ostonasidan hatlab o'tdingizmi bas, bilaverkingki, sog'ayish sari ilk qadam qo'yildi. Operatsiya deganlari men uchun pista chaqishdek bir gap, uning salbiy oqibati haqida

esa o'ylamasangiz ham bo'ladi. Muhimi operatsiyaga rozi bo'lganiningiz, qolgani ta'birl joiz bolsa, jo'ngina rasmiyatichilik, xolos.

Professor qartaygan bo'lsa ham, mittigina ko'zlarini ajabtovur tiyran. Illo, ertalab palataga kiriib kelganida, ko'zimga xayolchanroq, horg'inroq ko'ringandi.

Atrofimdagilar qanchalik o'zlarini beparvo, beg'am ko'rsatishsa, ko'nglimdagi shubhalarim shuncha kuchayadi. Umrim yo'llarida bunday komediyalarning ko'pini ko'rdim. Ochiq aytadigan bo'lsam, bularning hammasi operatsiya stoliga yotadigan bemorga o'lim vahimasiga qarshi beriladigan afyun, xolos. Vrachlar jilmayibgina sizga hammasi yaxshi bo'lishini aytishdimi, demak, bir yomonlikni kutavering. G'aroyib sud minbari bu: undan mijozni oqlab aytilgan so'z ham qatlga olib borishi mumkin.

1968-yilning 15-iyuni

Hali operatsiya kuni aniq emas. Kutilmagan sovg'alardan saqlanish uchun bemorni kamida bir hafta tekshirish lozim ekan. Buni menga professor Koltanining ozg'in qomati va tepakalligi kichik jussasiga zeb bo'lib tushgan, serg'ayrat, yosh assistenti – doktor Rilka aytdi. Nazarimda u, kimsan yozuvchiga xizmat qilayotganidan mamnunga o'xshaydi.

Hozircha telivizor ko'rishimga ruxsat berish-yapti. Kechki payt zakiylar ko'rsatuvi – „dumaloq stol“ni qo'yishdi (ayniqsa, Rujero Orlando va professor Silvio Chekkatolar zo'r gaplarni aytishdi). Ko'rsatuv ikki yil oldin yer bilan to'qnashish xav-

fi haqida gazetalar rosa ko'pitirigan „Ikar“ asteroidiga bag'ishlandi. Xabar berishlaricha, ushbu halokat 1968-yil iyun oyining ikkinchi yarmida, ya'ni yaqin kunlarda ro'y berishi kerak. Ko'rsatuvga chaqirilgan yirik astronomlar esa ushbu taxminni qat'yan rad etishdi. Aytishdiki, asteroid nari borsa yerga olti yarim million kilometr masafadan uchib o'tishi mumkin ekan. Alqissa, kurramiz xavf-xatardan mutlaqo xoli. Ilmiy hisob-kitoblardan shubhalanish esa o'rinsiz. „Dumaloq stol“ning maqsadi ham mashhur olimlar vositasi-da halokat haqidagi shubha – gumon bulutlarini tarqatish, qo'rquv va sarosimani hazilga yo'yib, odamlarni tinchlantirish edi chamamda.

1968-yilning 16-iyuni

Kunduz soat to'rtlar. Daf'atan o'z kun tartibiga xilof ravishda, palataga doktor Rilka kirib keldi. Yuz-ko'zлari tashvishli – go'yo menga bir shum xabarni yetkizmoqchidek. Achchiq ichak misol cho'zilgan kirish so'zidan so'ng uning kasalimga mutlaqo aloqasiz nimagadir iqror bo'lmoqchiligi ayonlashdi.

Nihoyat, ichidagini aytishga jur'at topdi shekilli, kasalxonani tark etgunimga qadar – albatta, operatsiyadan keyin – uning uzoq yillardan beri yozib yurgan she'rlarini ko'rib chiqib, xolis fikr bildirishimni so'radi. So'zini tugatar ekan, go'yo ayb ish qilib qo'gandek, qizarib-bo'zarar, tinimsiz uzrxohlik qilar, ayni damda ko'zлari chaqnar edi. Shunda uning yagona armoni tpbiblik shuhrat emas, ijod lazzati ekanini tushundim. Men uni, she'rlaringizni albatta diqqat-e'tibor bilan ko'rib

chiqaman, deya tinchlantirdim. Bunday siylov-dan keyin o'zini ancha tutib olgan Rilka she'r-laridan birini o'qishga tutindi. Adashmasam, she'r shunday boshlanardi: „Ey chala to'kislik timso-li dunyo, Olam ul – akbarning bir bo'lagisan...“ Shu payt baxtimga hamshira Prenestina kirib, uni boshqa palataga yetaklab ketdi. Rilka xonani ilhom qanotida tark etar ekan, „xavotirlanma, hozir qaytaman, bu chuchuk halvodan quruq qolmaysan“, degandek menga ko'z qisib qo'ydi.

1968-yilning 17-iyuni

G'alati kun. Saharlab yana Rilka paydo bo'ldi. Hayajonining cheki yo'q. Men uchun ajabtovr yangilik topib kelibdi. Sirni oshkor qilishidan avval, kelishganimizdek operatsiyadan keyin emas, oldinroq she'rlarini o'qib ko'rishga va'da berishimni o'tindi. Operatsiya stolidan tirik qaytishimga shubhalandi chog'i...

Yo'q, yo'q xato o'ylabman... Aftidan gap boshqa yoqda...

U qulog'imga engashib, o'ta maxfiy sirni ochmoqchidek ohista shivirladi.

Gap shundaki, Rilka Ganadan kongressga kelgan, Mexala observatoriyasining direktori, professor Nessaim bilan so'zlashibdi. Nessaim aytgan mishki, o'tgan yili Angliyada dunyodagi eng yirik abssoratoriyalarning direktorlari ishtirokida maxfiy bir yig'ilish o'tkazilibdi. Yig'ilishda Ikar asteroidi to'g'risidagi haqiqatni ommadan yashirish, vahimani oldini olish borasida kelishib olinibdi. Aslida asteroid 1968-yilning 19-iyunida, sahar chog'i yer kurrasi bilan aniq to'qnashar ekan.

Asteroidning bir yarim klometrlik hajmiga qaraqanda halokat aniq emish. Qutilishning hech qanday iloji yo'qmish. Boshqacha aytganda, oxir zamonda!

Tan olaman, yuragimda qayg'udan asar ham qolmadi. Kutilmagan yangilik kayfiyatimni ko'tarib yubordi. Ha-da, men - ku o'ladigan odaman. Ammo oxirat safariga to'dalashib chiqishga ne yetsin. Agar yoppabaraka hamma o'sha to-monga jo'nasa, hech kim ortda qolmasa, bu endi boshqa gap - har holda bayram bo'lmasa ham, bayramcha. Ko'z ochib yumguningcha hammasi tamom - bundan osoni bor ekanmi.

Mayli buni maydakashlik deysizmi, xudbinlikmi, baribir, bizdan keyinroq tug'ilib, go'yo ortimizda qolishi kafolatlanganlar bilan u dunyoga jo'nash baribir yoqimli. Badanidan qo'lansa ter hidi anqib, g'aznasiga yana bir chaqani tashlash uchun hokimiyat zinapoyalari sari odimlayotgan, olqish va qarsaklarni ommadan yulib olishga shoshilayotgan, ustiga ustak ayollar borasida misilsiz g'alabalarni ko'zlayotgan, bunday mu-zaffar qilmishlarning Xudo bilsin yana qanchasini rejorashtirayotganlarga ayniqsa ajoyib saboq bo'lardi-da. O'zlarini dunyo hokimi, donolik tim-soli, adolat va go'zallik posboni sanab, go'yo obi hayot topgandek, biz qariyalarga isqirt suvaraklar deya irganib ko'z tashlaydiganlarning tillari muzlab, ketlaridan ari chaqqandek bo'larkan-da. Ana shunaqa, hamma bir paytning o'zida, yagona ulovda, yo'qlik girdobi tomon parvoz etadi, vassalom!

Aytish kerakki, bu vaziyatda Rilka ham o'zini yo'qotgani yo'q. Uni bor-yo'g'i halokat sodir bo'lguniga qadar she'rlarini o'qib chiqib, fikr bildirishga ulguramanmi – yo'qmi – shu tashvishga solarkan. Agar bahoyim ijobiy bo'lsa, armonsiz ketarmish.

Men esa yolg'izlikda, lojuvard palata g'ira-shirasi aro qichqiraman: „Kel, ey olijanob asteroid, yo'lingdan adashma, halok etguvchi qudratingla bizga tomon uch. Bu – baxtiqaro sayyorani kulini ko'kka sovur!“

1968-yilning 18-iyuni

Bugun ertalab soat yettida meni professor Koltanining o'zi uyg'otdi.

Xo'sh deganingizdan, – dedi u, xush kayfiyat ila qo'lini artarkan, – shunday qilib, ertaga tongda...

Nima erta tongda?

- Nima bo'lardi? Operatsiya – jo'ngina rasmiyatchilik...
- Axir, doktor Rilka aytdiki, endi...
- Nima?..

Unga Nessaim haqida so'zlab berdim. Koltani kuldi. U ham o'sha suhbatda bor ekan. Ganalik astronom bunaqa gapni og'ziga olmabdi. Qaytanga halokatni rad etgan hurmatli olimlarning fikrlarini yana bir bor tasdiqlabdi. Aftidan Rilka she'rlarini menga tezroq o'qitib olish uchun bu yolg'onni to'qigan.

Ushbu hangoma professoring vaqtini chog' qilgani ko'rinish turardi. Lekin u dam o'tmay ho'mrayib oldi:

– Bilib qo'ying azizim, yaqinda bu joyni tark etasiz: siz hali ko'p yashaysiz. Aslida „Ikar“ning tashrifidan men... chinakamiga...

– Siz? Axir sizga nima qipti?

– E aziz do'stim, isitmaning zo'ridan ishlab yuribman-da...kuchim bor ekan ishlayveraman ham...bu mening yagona ovunchog'im... Ammo juda kam qoldi, azizim, qarshingizda turgan odamning inqirozi muqarrar... – U qaddini tikladi va yana yuzida mahzun tabassum soyasi zuhur etdi. – Mayli, g'am-qayg'uni qo'yaylik. Sizning xavotirlanishingiz esa o'rinsiz, tahlil natijalari a'llo... Xo'sh deganingizdan, ertagacha...

1968-yilning 19-iyuni

Tungi soat ikki. Kasalxona sukutda. Besh soatdan so'ng meni aravaga solib, operatsiya stoli tomon olib ketishadi. Ehtimol, bu to'rt mu-cham sog', hushim o'zimda bo'lgan so'nggi tunimdir. Besh-olti soatdan keyin balki, bu olamda bo'lmasman. Ehtimol bu dunyoda cho'ltoq tana bilan qolarman. Eng yomoni – dardimning bedavoligi oshkor bo'lar – jarrohlar tanamni yorib ko'rgach, hech nima qilib bo'lmasligini anglashar, shu zahoti qayta tikib qo'yishar. Nomard „Ikar“-dan esa darak yo'q. U bor yo'g'i odamlar to'qib chiqargan va tezda unutiluvchi go'zal bir afsona. Balkim ayni damda shitob bilan tepamdan uchib o'tayotgandir. Ammo u men haqimda hech narsani bilmaydi, uni qanchalik orziqib kutayotganimni xayoliga ham keltirmaydi. Professor Koltani-ni-ku inchinun...Orzuim „Ikar“i yerga juda yaqin masofadan o'tib ketadi...Bizni tashlab, hududsiz

Samovat aro yo'qoladi. Oradan yillar o'tib yana u haqda gap – so'zlar urchib qolgan mahalda men tuproqqa do'ngan bo'laman, hatto unda qabrtoshim yozuvlari ham xira tortadi...

Og'ir bemorni olib kelishdi chog'i, eshik ortidan shoshqin qadamlar sasi keldi. Hamshiralarning ohista tovushlari eshitildi. Olisdan qo'ng'iroq jarangi eshitildi. Biroq negadir mashina g'ovurini ilg'amadim.

Ajabo. Birovni shoshilinch operatsiya qilishga to'g'ri keldimikan? Yo'lakda ovozlar kuchaydi. Ora-chura qichqiriqlar eshitila boshladi. Go'yo butun kasalxona oyoqqa turgandek.

Kimdir eshikni ohista ochib, xonaga bo'yładi. Doktor Rilka ekan. Egniga xalatini ilishga-da ulgurmagan ko'rindi. Uni bu holatda sira ko'rma-gandim. U karavotim tomon yugurgilab keldi-da, shosha-pisha o'rama qog'oz to'plamini uzatdi.

– O'qing, yalinaman, loaqal bir-ikkitasini o'qing... sanoqli daqiqalar qoldi...

– Demak, rost ekanda? – so'rash asnosida o'zimni navqiron, sog'lom sezib otilib turarkanman. – Rost ekanda??!

– Rost bo'lganda qandoq! – qichqiradi u deraza pardasini ko'tarishga shoshilib. – Vaqtni bekorga o'tkazmang, iltimos qilaman, hech bo'lmasa bittaginasini o'qing!

Tashqari yop-yorug'. Axir bu oy yog'dusimasmi? Yo'q-yo'q, Oy yog'dusiga o'xshamaydi. Tunagi soat ikkida hamma yoq elektropayvand us-kunasi yoritgandek charaqlab ketibdi. Shahar bo'ylab hayqiriqlar, qurquv va hayajon tovushi. Minglarcha yig'imi yoki shodon qiyqiriqligi no-

ma'lum tovushlar qorishib ketgan. Unga inson zoti hali eshitmagan vahimali guvullash qo'shiladi. Bu ovoz butun samoni tutib ketadi. Men telbavor qah-qah otgancha qo'limdagi she'r yozilmish qog'oz o'ramini polga uraman. Doktor Rilka bolsa, umridan sanoqli lahzalar qolganini ham unutib, palata bo'ylab yuguradi. Sochilib ketgan varaqqlarni yig'a-yig'a ingraydi:

- O-o! Nimalar qilyapsız, nimalar qilyapsız
axır?!!

Uzoq JO'RAQULOV tarjimasi

O'LIMDAN KUCHLI

— Alvido...

— Yo'q, azizim... Alvido dema... Ko'rishguncha...

— Alvido...

— Demak... Hech qachon?

— O'zingga ayon... Alvido.

— Hech qachon?

Bu tug'yonli savolga yigit javob topa olmadi. U nihoyat mana shu qayg'uli, uch yildan beri davom etib kelayotgan zerikarli munosabatlarni parchalab, jo'nab ketayotganidan xursand edi, ammo yurakni timdalovchi achinish hissi uni qahri qattiq bo'lishga yo'l qo'ymasdi.

Qo'ng'iroq ikkinchi marta bong urdi.

U yuqoridan — vagon maydonchasidan jikkak va g'amnok, ma'yus chehrasi o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan, o'sha bir paytlardagi ko'pda tanish libosda platformada turgan qizni ko'rardi... Shu onda qaysidir so'zamolning hikmatli gapi yodiga tushdi: „Chekinish — ko'pincha sevgida g'ala-ba sanaladi“.

Yigit toqatsizlik bilan so'zlay boshladi:

— Bir narsani hadeb ezaverishning nima keragi bor? Axir ikkimiz ham ayriliq muqarrarligini bilardik-ku.

Qiz eshitilar-eshitilmas javob qaytardi:

– Ha. Sen shuni istaganding...

– Sen-chi? Axir hozirgina o'zing fikrimga qo'shilмаганмидинг? Yoki uchalamizning bu nikoh оқибатида boshdan kechirgan xo'rliklarimiz hali kammi senga?

Qiz indamasdi. Yigit xayolan uning nigohi bilan hozirgina achchiq ustida xo'jası kaltaklagan aqli va vafodor itning qarashi o'rtasida qandaydir o'xshashlik topdi.

Qo'ng'iroqning past, lekin cho'ziq jarangi yangradi, so'ng bir lahma to'xtadi-yu, ketma-ket uch bora sokin, amma baland-baland ovoz berdi.

Yigit vagondan pastga tushdi, qiz-da vidolashuv bo'sasi uchun haririni ko'targan ham ediki, kutilmagan fikr uni tislanishga majbur qildi.

– Azizim, – shivirladi qiz ezgin bir holda. – Azizim... Yana bitta so'nggi iltimosim...

– Nima?

– Hozir ajralamiz... Bir umrga... Bilaman, meni ortiq sevmaysan... Biroq... Menga yana bir soat in'om et... Qara – chorakam o'n bir bo'ldi. Bugun soat o'n ikkida meni eslashga va'da ber... Axir bu sen uchun qiyinmas-ku?..

Yigit kulib qo'ydi.

– Mayli. Buning hech qiyin joyi yo'q. Lekin nima uchun so'rayapsan?

– So'z berasanmi?

– Ha. So'z beraman. Faqat nega mendansbuni so'rayapsan?

– Bilasanmi, ayni shu vaqtda, daqiqama-daqiqa, soniyama-soniya men ham sen haqingda o'ylayman. Bor inon-ixtiyorim-u butun sevgi qudrati ila o'ylayman. Kim bilsin? Ehtimol, istak uchun ma-

sofalar yo'qolar, shunda bizlar yana qayta ko'ri-sharmiz.

- G'alati gaplarni aftyapsan...
- Ammo yodingda tut, va'da berding...
- So'zimda turaman. Xavotirlanma.
- Entikib, butun vujuding, jon-diling bilan o'ylaysanmi?
- Ha, ha. Alvido.
- Ko'rishguncha...

Yigit kupeda o'tirar va beixtiyor g'ildiraklarning bir maromdag'i ovoziga qulq solib borardi... Shu onda erkinlikning alomat quvonchli tuyg'usi qalbidan ko'tarildi-yu, o'rnini nogahoniy, ma'nisiz, chidab bo'lmas sog'inch hissi egalladi. Qandaydir sirli qudrat yaqqol aniqlik bilan hozirgina yengil tortib, so'nggi sahifalarini o'qib tamomlagan ishqiy dostonning eng nozik, butunlay arzimas tafsilotlarini xotirasiga keltira boshladi. Negadir xayolidan buyuk shoirning quyidagi ikki ajoyib misralari ketmas edi:

*Va lekin qalbdagi kechmish – muhabbat –
Eskirgan sharobdek kuchlidir abad!*

Chamasi yarim tun edi.

G'ildiraklar maromi, derazadagi alvon pardanning silkinishi-yu parovozning asabiy chinqirig'i unga uyqu bermasdi... Xayol esa tobora o'sha tark etilgan g'amgin-u jikkak ayol sari eltardi... Mag'rur va erksevar bu inson endi o'z g'ururidan ham, erkidan ham o'shal o'tmishga uloqtirilgan ojizani bir lahma ko'rish uchun voz kechgan bo'lardi. Shu dam oniy mudroqdan uyg'onib, ko'zini ochdi-yu, qalin yopinchiqli divanda o'tirgan qizni ko'rdi... U

hech narsa demasdi, biroq ko'zlar adoqsiz sevgi va so'zsiz ta'nalar bilan boqib turardi.

– Kimsan? Bu yerga nega kelding?! – dahshat-dan sapchigancha qichqirdi yigit.

Sharpa g'amgin bosh silkidi va tong arafasida-
gi tuman kabi zumda tarqalib, yo'qoldi-yu, ketdi.

Ertasiga, yigit shahardan ketgan kuniyoq kechasi qizning zaharlanib o'lganidan xabar topdi.

Rus tilidan

Azizbek MATYOQUBOV tarjimasi

ILOHIY NUR

— Uni jazolash kerak! Otib tashlash kerak! Joyi jahannamda!

Erkaklar-u ayollardan jam bo'lgan olomon arz-u samoni larzaga keltirib baqirardi. Olomonning oldida esa qo'llari bog'langan, qaddi raso, bo'ydon bir kimsa boshini baland ko'targancha bir-bir qadam bosib borardi. U kelishgan yigit edi. Shu bilan birga uning mag'rur qiyofasida atrofidagi baqiroqlarga nafrat va g'azab aks etib turganini ham ko'rish mumkin edi.

Bu yigit... fuqaroga jabr qildi. Ana endi u jazosini olishi kerak. Uni, albatta, qatl etadilar.

„Nachora? — dedi u o'ziga o'zi, — bir boshga bir o'lim deydilar. Taqdiri azalda yozilgani shu bo'lsa, nima ham qilardik?“ Yigit hamon ko'chani boshiga ko'tarib shang'illayotgan olomonga kinoyali il-jayib qarab qo'ydi. Olomon qiy-chuv qilib uni qatl maydoni tomon haydab borardi.

Qatl maydoniga ham yetay deb qoldilar. Shu payt izdihomning etakrog'idan bir bolakayning hiqillab yig'lagani eshitildi. Olti yoshlardagi bir bola olomonni tirsaklab yorib o'tmoqchi bo'lar, „Dada! Dadajon! Qayoqqa ketyapsiz? To'xtang! Meni ham ola keting!“ deb yig'lardi. Norasida

go'dakning nolasi ta'sir qildimi, xaloyiq bir lahza jimb qoldi, so'ng g'ayritabiyy bir kuchga duch kelganday, beixtiyor bolakayga yo'l berdi. Bolakay chirillab yig'lagancha tobora otasiga yaqinlashib borardi.

– Mushtdekkina ekan bechora! – dedi bir ayol bolaga qarab.

– Senga kim kerak, bolakay? – deb so'radi yana bir xotin uning boshini silab.

– Dadamning oldiga boraman! – dedi bola chirillab, – meni qo'yvoringlar, dadajonimning oldiga bormoqchiman...

– Yoshing nechada, bolakay?

O'g'il savolga savol bilan javob berdi:

– Dadamni nima qilmoqchisizlar? Nega uning qo'llarini bog'lab qo'ydinglar?

– Hoy bola, oyoq ostida o'ralashmay uyingga jo'na, onang izlab yurgandir?

Asir yigit o'g'lining iltijosini ham, mujikning uyingga jo'na, degan gapini ham eshitgan edi. O'g'li o'rniqa o'zi javob berdi:

– Uning onasi yo'q, yetim, – dedi qovog'ini solib. Bola esa olomonni oralay-oralay, nihoyat, ota-sining oldiga borib oldi. Qo'llariga osildi. Siynalari qahrga to'la to'da hamon, uni osish darkor, yo'q, otib o'ldirish kerak, deya hayqirardi.

– Bolam, nega bu yoqqa kelding, uyga bor, – dedi ota.

– Nega bu kishilar sizni bog'lab qo'yishibdi? Nima qilishmoqchi? – deb so'radi o'g'il.

– O'g'lim, senga bir maslahat bor.

– Nima qilay, dada?

– Katyushani bilasan-a?

- Qo'shnimizmi? Bilaman.
- Sen hozir o'sha Katyushalarnikiga borgin-da, o'tirib tur. Men ortingdan yetib boraman, xo'pmi?
- Sizni tashlab hech qayoqqa bormayman! – dedi bola va ho'ngrab yig'lab yubordi.
- Nega unaqa deysan? Axir aytdim-ku, men... izingdan yetib boraman, deb.
- Yolg'on. Ular sizni o'dirishmoqchi. Hali eshit-madingizmi?
- Yo'g'-e, unchalik emas. Ular... ular menga zi-yon yetkazishmaydi.

Bandi yigit o'g'lini yerga qo'ydi va xaloyiqqa yetakchilik qilib borayotgan kishining oldiga bordi.

– Menga qarang, birodar, – dedi bandi, – meni qay yo'sinda, qachon o'dirsanglar ham roziman. Faqat bu ish mana shu bolaning ko'z o'ngida bo'lmasin. Iltimos, ikki daqiqaga qollarimni yechib qo'yinglar. – Qo'rqmang, qochib ketmayman. Men o'g'limga bu amakinglar mening og'aynilarim bo'ladi, biz sayrga chiqqanmiz, deyman. Shunda o'g'lim uyga ketadi. Keyin, mayli, qanaqasiga qatl etsanglar ham turib beraman.

Olomon sardori bandining iltimosiga rozi bo'ldi. Ota o'g'lining yoniga qaytdi.

– Bolam, bor endi, uyga borib Katyalarnikida o'tirib tur.

- Siz-chi, siz nega men bilan ketmaysiz?
- Bular mening og'aynilarim bo'ladi. Biz birpas aylanamiz, keyin men ham uyga ketaman. Mana, ko'rding-ku, qollarim ham yechilgan. Bora qol.

Bolakay otasining yuziga tikilib, o'ylanib qoldi. Keyin ishonqiramay dedi:

- Rostdan ham uyga borasizmi?

– Boraman dedim-ku, o'g'lim, albatta bora-man.

Bola ortiga qaray-qaray istamaygina jo'nadi. U ko'zdan g'oyib bo'lgach, bandi yigit sardorga qa-rab dedi:

– Endi men o'limga tayyorman, qani boshla-sinlar.

Shu payt aql bovar qilmaydigan mo'jiza ro'y berdi. Hozirgina tomoqlarini yirtgudek bo'lib bi-rovga o'lim tilayotgan beshafqat odamlarning ko'ngli birdan yumshadi. Ularning ko'ksida kishi-ni o'yga toldiradigan ilohiy bir nur paydo bo'lgan edi. Bitta ayol asta gap qo'shdi:

– Menga qolsa... uning gunohidan kechish kerak.

Ayolni kimdir quvvatladi:

– Yaratgan Egam rahmdil bo'linglar, degan. Bu yigit ham Xudoning osiy bir bandasi. Keling-lar, qo'yvora qolaylik...

Biror soatdan beri „Osilsin! Otilsin!“ deb hayqi-rayotgan xaloyiq endi jo'rovoz bo'lib, „Qo'yvorilsin! Gunohi o'ziga!“ deb qichqira ketdi. Mag'rur bandi yigit esa qo'llari bilan ko'zlarini bekitgancha yig'lab yubordi. U olomonni yorib o'tdi va kallasi-ni osiltirgancha uyiga, o'g'lining oldiga yelib ketdi.

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi

SIRLI GUVOH

Uve zargarlik do'koni eshagini astagina yopib ichkariga kirdi. Birinchi qavatning chirog'i va signal uskunasi o'chirilganidan so'ng u „xarid“ni bemalol boshlayverishi mumkin bo'ldi. Xarid oxiriga yetguniga qadar esa u hamma narsani rejalaشتirib, tayyorlab, ko'z ostiga olib qo'ydi va endi hech kim va hech nima unga to'sqinlik qila olmas edi. U buni anchadan beri rejalaشتirib kelayotgan edi. Binoning yuqori qavatlarida idoralar, ikkinchi qavatida, shundoqqina do'konning tepasida ayollar va erkaklar tikuvchilik xonalari bo'lib, ayni shu paytda u yerda hech kim yo'q edi.

Uve bu safar yolg'iz o'zi edi. Chunki guvohlar bilan ishslash oqibati o'n yillik qamoq jazosi bilan tugagan edi. U yakshanba kunlarining birida qamoqdan chiqayotganida bir joyda yozilgan quyidagi so'zlarga to'satdan ko'zi tushgandi: „*Agar sen nohaqlik va jinoyatga qo'l ursang, uni kimdir har doim ko'rib turadi va seni ta'qib qiladi*“.

Bu so'zlarni Uve sira unuta olmadi. Zargarlik do'konining orqa xonasidagi eski seyfning osongina ochilishi unga qo'l keldi. U seyfdan faqatgina yoqut va boshqa qimmatbaho toshlarni oldi. Bilaguzuk, uzuk va shunga o'xshagan taqinchoqlarni

esa joyida qoldirdi. Bu gal u nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutardi.

Shu tobda do'konga yaqin joydagি cherkovda uch marta bong urilgani eshitildi. Soat ertalabki uch edi. Bir soatdan so'ng keyingi nazoratchi xodim o'tib ketdi. Uve bu gal yolg'iz ekanligidan o'zi uchun hech qanday xavf-xatarni his qilmas, do'konni oxirigacha o'marib ketishga qat'iy kirishgan edi.

Qamoqdagi vrach tibbiy tekshiruv paytida Uvega „Kasb“ingizni o'zgartiring“, deb aytgan, bundan tashqari „O'zingizga yaxshi bir tinchroq ish toping, elektr ustasi bo'lib ishlasangiz ham bo'ladi. Chunki bu ish ancha-muncha qo'lingizdan kelar ekan, sog'ligingizni asrang“, deb maslahat bergen edi. Uve shularni o'ylab turgan paytda zargarlik do'koni oldida bir odam to'xtab turar, aslida esa u sigaretini shamoldan to'sgan holda tutatmoqchi edi. Uve cho'ntagidan to'pponchasini chiqarib, uni kuzata boshladi. Notanish kishi yo'lida davom etganidan keyin Uve xotirjam tortdi. U zo'r va tez ishladi, balki shundan bo'lsa kerak, ishni rejalarshirib qo'ygan vaqtidan oldinroq tamomlab, juda ehtiyotkorlik bilan chiqib ketmoqchi bo'ldi. Shahar esa sokin uyquda edi. Sovuq tun havosidan asta nafas olar, mashinasiga o'tirib ketishdan oldin o'zini dadil va ehtiyotkor sezar edi.

Nihoyat, Uve hammasini uddalab, ketishga endi chog'langanida nogoh binoning ikkinchi qavati derazasiga qaradi. Bu joyda uni ta'qib qilib turgan bir kishining yuz qiyofasini ko'rib qoldi. Uve ushbu kimsaning aniq o'ziga qarayotganini fahmladi. Birdan qamoqdan chiqayotgan payt-

da o‘qigan so‘zlari yodiga tushib ketdi va „Kimdir qarayapti“, dedi o‘ziga o‘zi. Uve chap qo‘li bilan mashinaning kichik oynasini to‘g‘irlab, o‘ng qo‘li bilan derazadan qarab turgan odamga qarata o‘q uzdi. Shu payt ikkinchi qavat oynasi chil-chil bo‘lganini eshitdi. Endi esa u bu yerdan tezda jo‘nab qolishi kerak edi, ammo... hozirgina chilparchin bo‘lgan derazaga yana qo‘rqibgina qaradi va haligi kishi Uvega avvalgiday qarab turganini ko‘rib hayron qoldi...

Politsiyachilar yetib kelganida esa mashina motori hali ham guvullab turar, Uve esa mashina rulida yotar edi. Chaqirilgan „tezyordam“ shifokorlari Uvening yurak xuruji tutib qolganini aytishdi. Politsiyaga qo‘ng‘iroq qilgan kishi esa „Ammo o‘q uzildi, men buni eshitdim, uni otib ketishdi“, dedi. Sal turib ikkinchi qavatda chilparchin bo‘lgan oynaga politsiyachilarning ko‘zlarini tushib qoldi. Ular binoga kirganlarida ustki qavatdagi tikuvchilik xonalariga ham kirishdi va derazadagi Uveni ta’qib qilib turgan odam ko‘rgazma qo‘g‘irchog‘i ekanligini ko‘rishdi. Qo‘g‘irchoq hali ham u yerda pastga qarab turar edi. Faqatgina uning peshanasida Uve otgan o‘qdan paydo bo‘lgan teshikcha bor edi...

Nemis tilidan

Shuhratxon IMYAMINOVA tarjimasi

SOVUQ KUNLAR

Tushlikdan so'ng bir joyga yig'ilgan erkaklar ovga chiqqan paytlarida yuz bergan eng qiziqarli sarguzashtlarni so'zlab berayotgandi. Ajoyib mer-gan, uddaburon ovchi sanalgan eski qadrdonimiz janob Banifas tabiatan quvnoq, aqli, faylasuf hamda donishmand odam edi. U ovga oid hazil-larni sevar, qayg'uli hikoyalarni esa jini suymas-di. Janob Banifas bu safar bizni hayron qoldirib, kutilmaganda shunday dedi:

– Men g'aroyib bir hikoyani bilaman, to'g'ri-rogi, ovga chiqqan paytlarimda yuz bergan qayg'uli bir hodisa. Ilgari bunga o'xshash hikoyalarni sira so'zlab bermaganimni hisobga olganda shuni aytib qo'yishim kerakki, u boshqalaridan ancha farq qiladi va sizni umuman zavqlantirmaydi, deb qo'rqaman. Hikoya u qadar hayratlanarli ham emas. Demoqchimanki, unda asablarni qitiqlaydi-gan qiziqarli hech narsa yo'q. Lekin, aslida, hamma gap ham shunda-da. O'shanda o'ttiz besh yoshda edim va ov eng sevimli mashg'ulotimga aylangan-di. Ovga mukkasidan ketgan vaqtlarimda men hatto Jyumeja o'rmonlari orasida quyon va turli yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan katta hududni so-tib ham olgandim. Kundalik tashvishlardan ortib

u yerga yiliga bir marta, shunda ham atigi to'rt-besh kunga, faqat yolg'iz borishga to'g'ri kelardi. Chunki bu qalin o'rmonda tunagani qo'nalg'a topish anchayin mushkul vazifa edi va ayni ana shu sabab do'stlarimni u yerga olib borolmasdim. Ov mahali menga nafaqadagi jandarm, vijdonli, qattiqqo'l, intizomga qattiq rioya qiladigan, mas'u-liyatli, brakonyerlarga haqiqiy xavf-xatar tug'dira oladigan hamda shu bilan birga beozor qari qorovul hamrohlik qilardi. U qishloqdan juda olisda joylashgan ikkita tor xona va bitta oshxonadan iborat kichkinagina kulbada yashardi. Atigi bitta karavot, kiyimlar qo'yiladigan bitta javon va bitta kursi sig'adigan tor xonalarning biri kaminaga ajratilgandi. Ikkinci xonani esa Kavalye amaki egallagandi. Uzr so'rayman, men sobiq jandarm hikoyamning boshida yolg'iz yashaydi, deb aytib biroz yanglishibman. U o'n to'rt yoshli jiyanini asrab olgandi. Bola ba'zan ro'zg'orga kerakli mahsulotlarni keltirish uchun uch chaqirim yo'l bosib qishloqqa borar va uy yumushlarini bajarishda amakisiga yaqindan ko'maklashardi. Bu oriq, baland bo'yli bolaning sochlari tovuq patlariga o'xshardi va o'shanday oppoq edi. Olisdan u xuddi taqirday tuyulardi. Bolaning gavdasiga nisbatan katta oyoqlari hamda uzun qo'llari e'tiborni tortardi. U biroz duduqlanar va odamning ko'zlariga sira tik qarolmasdi. Hayvonlar orasida hayvonchalar qanday o'rin egallasa, odamlar orasida u ham xuddi shunday mavqega ega edi. Ha, bu bolakay ko'rinishidan bo'rsiqni yo isqirt tulkichani eslatardi. U ikki xonani birlashtiradigan zinapoya ostida uxlardi. Kavalye amakining uyida tayyor-

lanadigan ovqatlarning hammasini ham tanovul qilishga yaroqli deb bo'lmasdi, shuning uchun menga Selestaga ovqat tayyorlardi. Ov qilishga borgan paytlarim Kovalye oshxonani qishloqda ya-shaydigan shu qari kampirga bo'shatib berishga majbur edi. Shunday qilib, siz hikoyamning bar-cha qahramonlari va voqeasi sodir bo'lgan joy bilan yaqindan tanishib oldingiz, endi hikoyaning o'zi-ni eshiting. Men Ruanadan otda yurib borardim. Kovalye amakining Bok laqabli iti ortimdan qol-maslikka intilardi. Katta, kuchli va keng ko'krakli it barglar orasidan o'lja izlardi. Yo'l xaltasini miltiq bilan birga belimga osib olgandim. Kun sovuq edi. Qattiq shamol esar, osmonda esa qora bulutlar kezardi. Men kentel cho'qqisiga ko'tarilar-kanman, keng Sena adirlariga tikildim. Ilon iziga o'xshab bir-biriga ulanib ketgan daryolar va ir-moqlarni ko'rdim. Ruanadan chapda esa osmon-o'par tog'larning go'zal ko'rinishi ko'zni qamash-tirardi. Undan so'ng otga qamchi bosib, Rumars o'rmonidan o'tib, soat beshlarda „Pavilyon“ gacha yetib bordim. Meni u yerda Kovalye amaki va Selestaga kampir kutib turardi. O'n yil men bir joyga bitta yo'l bilan keldim va meni o'n yil o'sha odamlar har doim bir xil so'zlar bilan kutib olardi:

— Xayrli kun, janob. Yaxshimisiz?

Kovalye amaki sira o'zgarmagandi. U hayotdagagi buzg'unchi o'zgarishlardan qo'rqlashtiradi, qari eman kabi ularga ko'kragini tutib yashardi. Ammo Selestaga, oxirgi to'rt yil ichida tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. To'g'rirog'i, kampir qarib qoldi. U meni yaxshi ko'rardi. Ketayotganimda esa faqat bir gapni takrorlardi:

– O'ylaymanki, janob, biz oxirgi marta ko'rish-mayapmiz.

Men otdan tushdim va Kavalyening qo'lidan tutib salomlashdim. U otning arqonini qo'limdan oldi hamda kichkina otxona tomon yetakladi. Men oshxonada kuymalanayotgan Selestasi bilan ko'rishib, biroz subatlashib turdim. Ko'p o'tmay qorovul ham bizga hamrohlik qildi. Uning nighohlaridan nimadandir tashvishda ekanligini darrrov sezdim.

– Nima bo'ldi, Kavalye? Hammasi joyidami? Qanday yangiliklar bor? – deb so'radim.

– Yaxshisi ham yomoni ham bor, – deya g'udrandi u.

– Aytavering, birodar? Nima bo'ldi?

U „yo'q“ degandek boshini chayqadi.

– Hozir emas, janob, men sizni kelgan kuningizdanoq xavotirga solishni istamasdim...

Qancha talab qilmay, Kovale o'z tashvishi bilan tushlikka qadar kayfiyatimni buzmaslikka ahd qilganini aytib, qarorida qat'iy turib oldi. Bi-roq uning yuzidagi alomatlarga qarab ish niho-yatda jiddiyligini anglab yetdim. Suhbat davomida uning jiyani ko'rinishmayotganini payqab:

– Darvoqe, Marius qani? – so'radim.

Qorovul bunday savolni kutmaganidanmi, jinoyat ustida qo'lga tushgan odamday betoqlanib, hatto titrab ketgandek tuyuldi.

– Hammasini hozirning o'zida aytganim yaxshi. Qalbimni egallagan qayg'u ham, aslida, u tufaylidir. U hozir otxonada, janob, ko'zingizga ko'rinishga qo'rqtyapti. – Qorovul o'ng'aysizlanib,

gapishtiga qiyalar, nazarimda, hamon ikkilanardi. Kutilmaganda uning ovozi o'zgardi. Yuzlarida esa chuqur qarilik ajinlari paydo bo'ldi hamda u asta-sekin tilga kirdi.

– O'tgan yili qishda Rozerye hududida kimdir tuzoq qo'yayotganligini sezib qoldim, ammo topa olmadim. Bu vaqtida Ekorshvila atrofida yangilari paydo bo'ldi. Bu muttaham oldindan qayerga borishim va nima ish qilishimni yaxshi bilardi. Nihoyat bir kun Mariusning bozor kuni kiyadigan shimini tozalayotib, chontagidan sim topib oldim. Yosh bola simni nima qilarkin, deb ko'p o'yladim. Bu haqda bir hafta bosh qotirdim va uning aynan dam olgani uyga qaytgan soatlarda qayergadir g'oyib bo'lishini sezib qoldim. Shundan so'ng men uning ortidan kuzata boshladim. Boshida xayolimga hech narsa kelgani ham yo'q, lekin bir kun tongda atayin dam olgani xonamga kirdim. U meni uqlab qoldi, deb o'ylab tashqari-ga chiqdi. Bolaning ortidan sekin kuzatib bordim. Tasavvur qilyapsizmi, o'sha muttaham o'g'ri deb yurganim – mening o'z jiyanim ekan. Men sizning qo'l ostingizga qorovullik qilib, yerlaringizni qo'riqlayman-u, u bo'lsa... Ko'zimga tuz sepib yurgan ekan, nonko'r. Qonim qaynab uni shunday kaltakladimki, joyida o'ldirib qo'yishimga ozgina qoldi. Bolani sizning ko'zingiz oldida jazolash bilan ham qo'rqiwdim. Shunaqa gaplar, janob, bunday vaziyatga hech tushmagandim. Uni qanday jazolay, o'zingiz ayting. Mariusning ota-onasi yo'q. Qarindoshlaridan yolg'iz men borman. Shuning uchun ham uni o'z qaramog'imga olgandim. To'g'risini aytasam, bu sag'ir yetimchani ko'chaga

haydagani ko'zim qiymaydi. Unga bu ishni yana qayta qilsa, oxir-oqibat mendan rahm-shafqat kutmasligini tushuntirdim. To'g'ri ish qilibmani, janob, nima deysiz?

Men unga qo'llimni uzatdim va:

– Albatta, siz xatoga yo'l qo'yganingiz yo'q, Kavalye. Siz vijdonli odamsiz!

– Rahmat janob, endi ruxsat etsangiz, bala ni olib kelsam, uni yaxshilab qo'rqitib qo'ymasak bo'lmaydi.

Qariyani bu shashtidan qaytarish befoydaligini bilardim, u, baribir, o'z aytganidan qolmasdi. Qari jandarm Mariusning ortidan bordi va qulog'i dan tortib olib keldi. Men singan kursida sudylarga o'xshab, qiyofamga jiddiy tus berib voqeani kuzatib turardim. Marius o'tgan yilidan ancha ulg'ayib, yanada xunuklashib hamda ayyorla shib qolgandi. Uning uzun qo'llari esa nihoyatda qo'rqinchli edi.

Iymonli tog'a jiyanini insofga chaqirar ekan:

– Xo'jayindan kechirim so'ra! – deb buyurdi.

Bola hadeganda og'zini ochavermadidi. Shunda sobiq jandarm jahl otiga mindi va qo'lidagi tayog'i bilan tushirdi.

– Kechiring!.. Kechiring!.. Kechiring!.. Men boshqa bunday qilmayman, deb ayt. Kavalye qo'lida gi tayog'ini pastga tushirdi va jiyanini tiz cho'kib uzr so'rashga majburladi. Bola ko'zlarini yerga qadadi va:

– Kechiring, – deb to'ng'illadi.

Shundan so'ng Kovalye uni qo'lidan tortib o'rnidan turg'azdi va yana bir musht tushirdi. Ma-

rius tashqariga otilib chiqib ketdi-yu, kechgacha ko'rinmadi.

Kavalye xuddi sinib qolganday edi.

– Uning ichiga shayton o'rashib olgan. Odamning olasi ichida bo'larakan, deganlari shu bo'lsa kerak-da! – dedi u yelkasini qisib. – Meni u qanday ranjitganini so'z bilan tasvirlab berolmayman, janob!

Uni tinchlantirishga urinib ko'rdim, biroq bari befoyda edi. Erta tongda ovga chiqishimizni bahona qilib, vaqtliroq dam olmoqchi bo'ldim. Xonamga kirganimda itim karavotim yonida yotardi. Chiroqni o'chirib, toza o'ringa cho'zildim. Yarim kechasi itning qo'rqninchli akkillashidan uyg'onib ketdim. Ko'zlarimni ochganimda xona tutunga to'lgandi. O'rnimdan yugurib turdim va chiroqni yoqdim. Bir tepib eshikni ochgandim, ichkariga alanga otilib kirdi. Kulba yonayotgandi.

Men emandan yasalgan qalin eshikni qayta mahkamlab, tezda kiyimlarimni kiyib, choyshabdan arqon tayyorladim. Avval itni, keyin kiyimlarim solingan jomadonlarni, ov miltig'i-yu ov sumkasini tashqariga uloqtirdim va arqonga osilib, yong'indan qutulib chiqdim.

Keyin ovozim boricha baqira boshladim:

– Kavalye! Kavalye! Kavalye!

Ammo qorovul uyg'onmasdi. Qari jandarm qattiq uyquda edi.

– Uy yonyapti! Kavalye! Xudo haqi uyg'oning!

Qariya tutundan bo'g'ilib qolgan bo'lsa kerak, deb o'ylab qoldim va miltiqni olib o'qladim-da, derazaga qarab otdim. Bu safar o'zini yo'qotib qo'ygan qariya deraza oldida paydo bo'ldi. U gurullab

yonayotgan olovga nima qilishini bilmay hayron qarab turardi.

– Uy yonyapti! O'zingizni derazadan tashqariga oting! – deb baqirdim bor ovozim bilan.

Qariya aytganimday qildi. U tashqariga chiqishi bilan uyning yonib bo'lgan devorlari yerga quлади.

Bir necha daqiqa ichida uydan kuldan bo'lak hech narsa qolmadi.

Kavalye titrar, nima qilishni bilmasdi:

– Yong'in qayerdan chiqibdi? – deb so'radi.

– Bilmadim. Oshxonadan bo'lsa kerak, – dedim men.

– Kim qilgan bo'lishi mumkin?

Birdan u anglab yetdi:

– Marius! Yo tangrim! Nima uchun tunagani uyga qaytmaganligini endi tushundim. Iblis! – deb baqirardi qariya telbalarcha.

Birdan:

– Selest? Selest qani? – deb so'radim qari ayolni eslab.

U hech nima deb javob berolmadi. Dahshatli yong'in ichra bir begunoh kampirning yonib ketganini sezmbamiz ham. Biz, hatto, uning baqirganini ham eshitmabmiz. Olov otxonaga ham o'tgandi. Kavalye otni qutqarish uchun yugurib ketdi. U otxonaning eshigini ochgandi hamki, kimdir ichkaridan otilib chiqdi. Chol yerga yuztuban yiqildi. Bu Marius edi. Qorovul uning ortidan telbalarcha yugurib ketdi, biroq jiyaniga yetishi amri mahol edi. Hammasi shunchalar tez yuz berdiki, men nima bo'lganini anglayolmadim. Aqlimni yig'masimdan qariya qo'limgagi miltiqni

yulqib, o'qlangan yo o'qlanmaganligini ham tekshirib ko'rmasdan, bolani nishonga oldi va o'q uzdi. Men uning yoniga yugurib bordim, biroq bola o'layotgan odamdek xirrilab nafas olardi. U bir og'izam gapirmay, vafot etdi. Kavalye, bitta ko'yakda turgan joyida tosh qotib qolgandi. Qishloq odamlari qorovulni olib ketishdi, chunki u esdan og'ib qolgandi. Meni sudga guvoh sifatida chaqirishdi. Voqeaning hammasini tafsilotlari-gacha oqizmay-tomizmay aytib berdim. Kavalyeni oqlashdi, biroq suddan keyin u g'oyib bo'ldi va butun umrga bu yerlarni tark etdi. Men uni qayta uchratmadim. Mana, janoblar, bu sizga mening qari jandarm to'g'risida aytib bermoqchi bo'lgan mungli hikoyam edi.

Shahnoza tarjimasi

perianing qiziga. Hozir qayroqdan etlari siQ
getirilgut. Qayroqda qizga qiz qayroq
zar farzende. qiz qayroqda qiz qayroq
tosh. Qayroqda qiz qayroqda qiz qayroq
tosh.

QUYOSH, CHOL VA QIZ

Chol qimirlamaydi. Oftobdan qorayib, etlari tirishgan qo'llar tizza ustida bemajol. Yuzi ham bujmaygan, namlangan ko'zlari nursiz. Ingichka bo'yni ustidagi kichkina oppoq kalla qimirlamaydi. Ko'k chit ko'ylik ostidan yelka suyaklari bo'rrib turibdi.

Bu hol har kuni takrorlanadi. Shunday kundardan birida chol orqa tomondan ovoz eshitib qoldi:

– Salom, buvajon!

Chol bosh irg'adi.

Uning yoniga yassi chamadoncha ko'targan qiz o'tirdi.

– Dam olyapsizmi?

– Dam olyapman, – bosh irg'adi chol, qiz tomonga qayrilib ham qo'ymay.

– Men sizni chizsam maylimi? – so'radi qiz.

– Qanaqasiga?

– Rasmingizni chizsam?

Chol quyoshga termilgancha bir muncha muddat jim qoldi, kipriksiz qizg'ish qovoqlari uchib qo'yardi. So'ng:

– Chizadigan joyim qolibdimi mening? – dedi.

– Nega endi? – Qiz biroz o'ng'aysizlandi. – Ko'rinishingiz bir chiroyli, buvajon.

– O'lay deb turgan bo'ssam.

Qiz cholga ancha tikilib turdi. Keyin yumshoq barmoqlari bilan cholning quruqshagan jigarrang qo'lini asta silab dedi:

– Yo'q, siz juda ham chiroylisiz, buvajon. Rost!
Chol bemajol jilmaydi.

– Unday bo'lsa, chizsang chizaver.

Qiz chamadonini ochdi.

Chol kaftini og'ziga qilib yo'talib oldi.

– Shaharlik bo'lsang kerak-a?

– Ha, shaharlikman.

– Bu ishingga haq to'lashsa kerak?

– Yaxshi chiqsa, to'lashadi.

– Harakat qilish kerak.

– Harakat qilyapman.

Jim qolishdi.

Qiz cholning yuziga tikila-tikila chizyapti.

– Buvajon, siz shu yerlikmisiz?

– Shu yerlik.

– Shu yerda tug'ilganmisiz?

– Shu yerda, shu yerda.

– Necha yoshga bordingiz?

– Saksonga.

– Oh-ho!

– Ha, yetishib qoldim, – yana behol iljaydi chol. – Sen nechaga kirding?

– Yigirma beshga.

Yana jim qolishdi.

– Quyosh qanday-a?! – sekin xitob qildi chol.

– Qanday? – tushunmadi qiz.

– Kattakoon.

– Haa, bu yerda manzara juda chiroyli ekan.

– Suvga qara, qaragin. Narigi qirg'oqqa qara.

- Ha, ha.
 - Xuddi jon qo'shilganday.
- Darhaqiqat, shunday. Qiz narigi qirg'oqqa nazar tashladi.
- Ajoyib!

Quyosh Oltoy cho'qqilarini yoritib, asta-sekin uzoq ko'kintir olamga botib borardi. U cho'kkan sari, tog' qoyalari yaqqolroq ko'rindi. Ular go'yoki oldinga surilib kelayotgandek edi. Daryo bilan tog' oralig'idagi vodiyning qora-qizg'ish tusi so'nib bormoqda. Tog' tomondan yumshoq soya tushib kelmoqda. Quyosh Boburxon tizmasining ortiga yashiringan zahotiyooq, o'sha tomondan ko'kintir osmonga yorqin alanga nurlari taraldi. Ko'p davom etmadi – alanga ham so'ndi. Xuddi shu onda o'sha tomonlarda tong nurlari charaqlagan.

– Quyosh ketdi, – xo'rsindi chol.

Qiz qog'ozlarini chamadonchasiga joyladi.

Birmuncha vaqt jim o'tirgancha mayda to'lqlarning qirg'oq bo'ylab taralayotgan shildirashini tinglashdi.

Vodiy uzra parcha-parcha tuman suza boshladi.

Yaqindagi o'rmon tomonda qandaydir qushning ovozi eshitildi. Unga javoban daryoning narigi tomonidan ham qushlar ovozi keldi.

– Yaxshi, – deb qo'ydi chol bosiq ovoz bilan.

Shu damda qiz, tez kunlarda qadrdon shahriga qaytib ketishini va o'zi bilan bir talay rasmlarni olib borishini o'yladi. Shu jumladan, mana shu buvaning rasmini ham. Uni kutib olajak do'sti, iqtidorli, haqiqiy rassom yana koyiydi: „Yana shu bujmaygan basharalar. Kimga kerak? Sibirliklar,

sovuj iqlim va og'ir mehnatdan hammasi shunaqaligini barcha biladi-ku!"

Qiz o'zining iqtidor bobida maqtanadigan joyi yo'qligini yaxshi biladi. Lekin u ro'parasida mun-kayib o'tirgan cholning mashaqqatli o'tmishini ko'z oldiga keltira olgandi. Uning qo'llari shundan darak emasmi?.. Ajinlar ham!

Ishlash kerak! Ishlash, ishslash!

- Bu yerga ertaga ham kelasizmi, buva? - so'radi qiz.

- Kelaman.

Qiz o'rnidan qo'zg'alib, qishloq tomon yo'l oldi.

Chol esa yana biroz sohilda o'tirdi. So'ng u ham ketdi.

Uyga kelib, odatdagidek o'zi o'rganib qolgan burchakka, pech yoniga o'tirdi va jimgina kuta boshladi - qachon o'g'li ishdan qaytib kelishini va kechki ovqatga o'tirishlarini.

O'g'il doimo charchab kelar va g'am-shikoyatdan boshqa gapi yo'q edi. Kelin ham o'shqirib, taqir-tuqur qilgani qilgan. Nabiralar voyaga yetib, shaharga ketib qolishgan. Ularsiz uy - g'urbatxona.

Kechki ovqat. Sutga bolka to'g'rab, cholning oldiga qo'yishadi. Stol chetida o'tirgancha, qoshiqni taraqlatmaslik uchun ehtiyojkorlik bilan ovqat icha boshlaydi chol. Hamma jim. So'ng uyquga yotishadi. Gaplashgani gap yo'q. Hamma gap allaqachon gapirib bo'lingan.

Chol pech ustiga chiqadi. O'g'il bilan kelin esa ichkari xonaga kirib ketishadi.

Ertasi kuni kechki payt chol bilan qiz yana to'inka yonida o'tirishardi. Qiz qiziqish bilan chizar, chol esa quyoshga tikilgancha hikoya qilardi.

– Yaxshi yashardik, noshukrlik qilmayman. Men duradgorlik qilardim, ish doimo yetarli. O'g'illarim ham duradgorlik qilishardi. To'rttasini urush yedi. Ikkitasi qoldi. Hozir bittasi bilan turaman. Stepan bilan. Vanya esa shaharda, Biyskda yashaydi, yangi qurilishda prorab. Yozishicha, tuzuk yashayotgan emish. Mehmonga kelib ketishdi. Nabiralar bir talay. Hammasi meni yaxshi ko'rishadi. Lekin barchasi u shahar-bu shaharda.

Qiz cholning qo'llarini chizmoqda, shoshilib-shoshilib. Asabiylashadi, o'chirib, qayta-qayta chizadi.

– Qiyinchilikda yashagan bo'sanglar kerak? – o'ylanib so'radi u.

– Nima? Qiyinchilik? – chol hayron bo'ladi. – Aytdim-ku senga, yaxshi yashaganmiz deb.

– O'g'illaringizni yo'qotganingizga achinasizmi?

– Achinish gap ekanmi?! – Yana hayron bo'ladi chol. – To'rtta azamatni berib qo'yish – hazilmas-ku!

Shuncha yo'qotishga qaramay, chol o'zini xorjam tutishiga qiz ham hayron.

Quyosh yana tog'lar ortiga cho'kmoqda. Yana jimgina alanga ufqda taralmoqda.

– Yomg'ir yog'adi ertaga, – deb qo'ydi chol.

Qiz yorug' osmonga boqib:

– Qayerdan bildingiz?

– Hamma a'zolarim zirqirab og'riyapti.

- Ko'kda bulut yo'q-ku?
Chol indamadi.
- Ertaga ham kelasizmi, buva?
- Bilmadim, - o'ylanibroq javob qildi chol. -
Hamma yerimda og'riq.
 - Buva, mana bu toshning nomi nima? - Qiz kamzulining cho'ntagidan tillasimon oq tosh chi-qardi.
 - Qanaqa tosh? - so'radi chol, hamon tog' tomon tikilgancha.
- Qiz unga toshni uzatdi. Chol qayrilib ham qaramay qo'l cho'zdi.
 - Bumi? - chol qarab-qaramasdanoq ko'rib, qaqlashagan barmoqlarida toshni aylantirarkan, - Chaqmoqtosh. Urush yillari gugurt yo'q edi, nuqul shunda olov chiqarardik.
- Qizning miyasiga yalt etib, ko'rmaydi shekilli, degan gumon keldi. U nima deyishini bilmay cholga yon tomondan boqib turib qoldi. Chol esa hamon quyosh botgan tomon termilardi. O'y-chanlik bilan tikilardi.
 - Ma, toshingni olib qo'y, - qizga qaytardi chol. - Bundan ham chiroylilari uchraydi. Ba'zan oppoqlari, tiniq ranglilari uchraydi, shunday tiniqki, ichidagi dog'lari ham ko'rinish turadi. Yana, tuxumsimonlari ham bo'ladi, hakaning tuxumiga o'xshash, yonlari xol-xol. Maynanikiga o'xshaganlari ham uchrab qoladi, ko'm-ko'k, ular ham sepkilli.
- Qiz hamon cholga tikilgancha turardi. So'ragna ni jur'at qilolmadi: ko'zlari ojizmi yo...
 - Buvajon, qayerda yashaysiz?
 - Uncha uzoqmas. Manavi Ivan Kolokolnikov-

niki, – daryo qirg‘og‘idagi uyni ko‘rsatdi chol. – Orqasida Volokitinlarniki, keyin Zinovbevlarniki, ana undan keyin, muyulishdan keyin bizniki. Biror zarurat bolsa – kiraver, bemalol. Nabiralar oldimizdaligida qanday gavjum edi-ya.

– Rahmat.

– Men ketdim endi, hamma yog‘im zirqirab ketyapti.

Chol o‘rnidan turib, so‘qmoq bo‘ylab ketdi.

Qiz uning ortidan, tor ko‘chaga burilib ketmaganucha qarab turdi. Chol biror marta ham qoqlmay, bir tekis borardi. U shoshilmay, oyoq ostiga qarab qadam bosardi.

– Yo‘q, ojiz emas, – tushundi qiz. – Sal-pal xirashgan bolsa kerak ko‘zi.

Ertasi kuni chol sohilda ko‘rinmadi. Qiz yolg‘iz, chol haqida o‘ylardi: Uning hayoti oddiy, ayni paytda sodda kechmagan. Bir ajib narsa bolsa kerak, qandaydir idrok etib bo‘lmaydigan. Quyosh ham oddiy ko‘rinadi, ertalab chiqadi, oqshom botadi. Ammo bu oddiylik ortida qandaydir joziba bor edi. U chizmalarini ko‘zdan kechira boshladi. Yuragida g‘ashlik sezdi.

Chol keyingi, ikkinchi, uchinchi kunlar ham ko‘rinmadi. Qiz uning uyini qidirib bordi. Topdi. Kattagina uyning hovlisida, bostirma salqinida elliq yoshlari chamasidagi bir erkak taxta randalardi.

– Salom, – so‘rashdi qiz.

Erkak qaddini tiklab, qizga tikilib, boshmal-dog‘i bilan peshana terini artarkan, bosh irg‘adi:

– Salomat bo‘l.

- Haligi... Bir buva bor edi, shu yerda turadi shekilli.
- Erkak qizga g'alati qilib razm solgach:

 - Ha, shu yerda yashardi, - deb ishini davom ettirdi. Birozdan so'ng qo'shimcha qildi: - Mana, unga uy yasayapman.
 - Nima, vafot etdimi?
 - O'ldi. - Erkak randasini bir-ikki yurgizib, yana tiklandi. - Biror ishing bormidi?
 - Men... Men uning rasmini chizgandim.
 - Haa, shunaqami, - ishini davom ettirdi erkak.

Ancha sukutdan so'ng qiz so'radi.

- U ko'rmidi?
- Ko'r edi.
- Ancha bo'lganmidi?
- O'n yilcha. Nimaydi?
- Shunday o'zim.

Qiz tashqariga yurdi. Ko'chaga chiqib, beixtiyor chetan devorga suyanib yig'lab yubordi.

*Rus tilidan
O'tkir HOSHIMOV tarjimasi*

YASHIL CHIROQ

Endi yerda harakatsiz yotgan, tepasiga odamlar yig'ila boshlagan eski kiyimli yigirma besh yoshlardagi yigit ularning e'tiborini tortdi.

– Stilton! – Semiz jentelmen o'zining baland bo'yli oshnasi yerda yotgan odamga sinchiklab qarayotganini ko'rib, jirkanish bilan uning yengidan tortqiladi. – Rostini aytsam, shu o'laksa odam shuncha o'ralashishga arzimaydi. U mast yoki o'lgan.

– Men ochman... ham tirikman, – g'o'ldiradi u va nimanidir o'ylab qolgan Stiltonga ko'z tashlamoqchi bo'lib o'rnidan sal ko'tarildi. – Hushdan ketib yiqlibman, shekilli.

– Reymar! – dedi Stilton. – Rosa hazilbop voqeabu. Menda bir qiziq fikr tug'ildi. Bir xil ermaklar jonimga tegdi. Faqat bir yo'l: odamlarni o'yinchoq qiladigan hazil – eng yaxshi hazil.

Bu so'zlar shu qadar sekin aytildiki, hozirgina yerda yotgan, endi esa panjaraga suyanib turgan odam bularni eshitmadidi.

Hamma narsaga loqayd qaraydigan Reymar ensasi qotib, yelkalarini qisdi, Stilton bilan xayrlashib, tunni o'tkazish uchun o'rgangan klubiga qarab yo'l oldi. Stilton esa odamlarning tahsini ostida va polismenning yordami bilan holsiz odamni usti yopiq aravaga o'tqazdi.

Fayton Gay ko'chasidagi karvonsaroyli restoranga qarab ketdi. Daydining oti Jon Iv ekan. Irlandiyadan Londonga xizmatmi, ishmi izlab ke-libdi. Iv yetimlikda bir o'rmonchining xonadonida tarbiyalanibdi. Boshlang'ich mактабдан keyin hech qanday ma'lumot olmabdi. Iv 15 yoshga kirganda, tarbiyachisi vafot etibdi. O'rmonching katta bolalari kimi Amerikaga, kimi Janubiy Uelsga, kimi Ovro'poga ketib qolibdi, shun-dan keyin Iv ham bir fermerning qo'lida ishlay boshlabdi. So'ngra shaxtyor (ko'mir qazuvchi), dengizchi, qovoqxona xizmatchisi kabi ishlarning tuzini totishga to'g'ri kelibdi, 22 yoshida o'pka-si shamollab, qattiq kasallanibdi, kasalxonadan chiqqach, Londonga kelib, baxtini sinab ko'rish-ga ahd qilibdi. Ammo raqobat va ishsizlik tufayli tezda ish topish oson emasligini ko'ribdi. U istirohat bog'lari, bandargohlarda tunar, kundan kunga ko'proq och qolardi, natijada ozib-to'zib, ramaqijon bo'lib ketibdi. Sitidagi savdo omborlaring boshlig'i Stilton uni yuqorida ko'rganimiz-day ko'tarib olgandi.

40 yoshli Stilton shu paytgacha qo'noq va ovqat tashvishini bilmaydigan, pulga nima qilish mumkin bo'lsa, o'shaning hammasini qilib yur-gan bo'ydoq kishi edi. U 20 million funtlik mol-mulk egasi edi. Uning Iv uchun o'ylab topgan hazili juda arzimagan bir ish edi, ammo Stilton o'z ixtirosi bilan g'ururlanardi, chunki o'zini juda katta tasavvur qobiliyatiga ega va mug'ombirona o'y-xayollar ustasi deb bilishni yoqtirardi.

Iv ozroq musallas ichib, ishtaha bilan ul-bul yeb olgach, Stilton xayolida o'zi to'qigan tarixni gapirib berdi.

– Sizga bir taklifim bor, aytsam, shu ondayoq ko'zingiz chaqnab ketadi. Diqqat bilan eshititing: men sizga o'n funt beraman, shart shuki, siz ertagayoq markaziy ko'chalaryning biridan bir xonani ijaraga olasiz. Derazasi ko'chaga qaragan, o'zi ikkinchi qavatda bo'lsin.

Har kuni kechqurun rappa-raso soat beshdan kechasi o'n ikkigacha har doim bitta deraza tokchasida yashil qalpoqli chiroq yoqilgan bo'lishi kerak. Chiroq belgilangan muddatda yonib turarkan, siz soat beshdan o'n ikkigacha uydan chiqmaysiz, hech kimni uyg'a kiritmaysiz, hech kim bilan gaplashmaysiz. Bir so'z bilan aytganda, qiyinmas. Agar rozi bo'sangiz, sizga har oyda o'n fundan yuborib turaman. Sizga kimligimni aytmayman.

Iv dahshatli darajada hayratga tushdi.

– Agar hazillashmayotgan bo'sangiz, – deb javob berdi u, – hatto men o'z nomimni unutishga ham tayyorman. Ammo, mumkin bo'lsa aytinchchi, bunaqangi tinch hayotim qancha davom etadi?

– Bunisi noma'lum. Ehtimol, bir yil, balki, umr bo'yи davom etar.

– Yanayam yaxshi. Ammo so'raganim uchun aybga buyurmang – bu chirog'bonlik sizga nima uchun zarur bo'lib qoldi?

– Sir! – deb javob berdi Stilton. – Buyuk sir! Chiroq siz hech qachon tushunib yetmaydigan odamlar va ishlar uchun ishora bo'lib xizmat qiladi.

– Tushundim. To'g'rirog'i, hech narsaga tushunmadim. Yaxshi: pulni cho'zing va bilib qo'-

ying: ertagayoq men ma'lum qilgan manzilda Jon Iv chiroq bilan derazani yoritib qo'yadi!

Shu tariqa g'alati bitim tuzildi, so'ogra daydi bilan millioner bir-birlaridan mamnun holda xayrlashdilar.

Xayrlashayotganda Stilton shunday dedi:

– Yo'qlab olinadigan xatga mana bunday: „3-33-6“ deb yozing. Yana bir narsani yodingizda tuting, balki, bir oydan keyin, balki, bir yildan keyin, qachonligi noma'lum, qisqasi, hech kutilmaganda sizni ziyorat qilgani kelishadi va boy qilib yuborishadi. Bu nima uchun va qanday bo'lishini sizga izohlashga haqqim yo'q. Ammo bu voqeа, albatta, sodir bo'ladi...

Iv Stiltonni olib ketayotgan faytonga qarab:

– Jin ursin, – deb ming'llab qo'ydi va xayolga botgancha qo'lidagi o'n funtlik pulni aylantirib ko'rdi. – Yo bu odam aqldan ozdi, yoki men o'ta baxtli odamlardanman! Bor-yo'g'i kuniga yarim litr kerosin yoqib bitkazishim uchun shuncha marhamat ato qilsa-ya!

Ertasiga River ko'chasidagi 52-uyning ikkinchi qavatidagi bir deraza mayingina yashil yog'du tarata boshladi. Chiroq derazaning kesakisiga taqab qo'yilgandi.

Qarshidagi uyning yo'lkasida ikki yo'lovchi birmuncha vaqt yashil derazaga qarab turishdi, keyin Stilton shunday dedi:

– Mana, ko'rdingizmi, azizim Reymar, zerikkan paytlaringizda shu yerga keling va jilmayib qo'ying. Deraza ortida, anavi uyda bir ahmoq o'tiribdi. Arzon-garovga sotib olingan, haqini bo'lib-bo'lib bersa bo'ladijan, uzoq vaqtgacha shu holda

tutib turishing mumkin bo'lgan bir ahmoq. Zerikanidan bora-bora mayxo'r bo'lib ketadi yoki aql-dan ozadi... Lekin o'zi bilmagan narsasini kutib yashaydi. Ana o'zi, qara!

Chindan ham, derazaga manglayini bosib turgan odamning qora sharpasi yarim qorong'i ko-chaga qarab turardi, xuddiki: „Kim u yerda? Nima qilaman kutib? Kim kelarkin?“ deb so'rayotganga o'xshardi.

– Ammo siz ham ahmoqqinasiz, azizim, – dedi Reymar, oshnasini qo'ltiqlab avtomobil tomonga tortib ketarkan. – Bu hazilning nima qizig'i bor?

– O'yinchoq... tirik odamdan o'yinchoq, – dedi Stilton, – eng mazali taom bu!

* * *

1928-yilda Londonning chekka dahalaridan birida joylashgan kambag'allar kasalxonasi bir dan dahshatli oh-vohlar bilan to'ldi: hozirgina keltirilgan qari chol, yuzlari ozib-to'zib ketgan, iflos va yomon kiyingan bir odam qattiq og'riqqa chidayolmay dod-voy solardi. U qorong'i bir buzuqxonaning qora zinapoyasida qoqilib ketib, oyog'i sinibdi.

Sho'rlikni ko'rikdan o'tkazarkan, to'qimalarda darhol boshlangan shamollash jarayonini ko'rgan jarroh uni operatsiya qilish kerak, degan xulosaga keldi. Operatsiya muvaffaqiyatli o'tdi, cholni o'ringa olib kelib yotqizishdi. U tezda uyquga ketdi, uyg'onganda esa oldida o'zini o'ng oyoqdan mahrum qilgan o'sha jarroh o'tirganini ko'rди.

– Uchrashgan joyimizni qarang-a! – dedi doktor, ko'z qarashlari ma'yus novcha kishi, jiddiy

bir ohangda. – Meni taniyapsizmi, mister Stilton. Men – Jon Ivman, siz menga har kuni yoniq turgan yashil chiroq yonida navbatchilik qilishni topshirgandingiz. Men sizni bir ko'rishda tanidim.

– Qanday bema'nilik! – g'o'ldiradi Stilton unga tikilib. – Nima bo'ldi o'zi? Shunday ham bo'ladimi hech?

– Ha. Sizning hayot tarzingizni nima o'zgartirib yubordi, hammasini gapirib bering.

– Men xonavayron bo'ldim... ustma-ust katta-katta yutqizishlar... birjada vahima bo'lib ketdi... Mana, gadoya aylanganimga uch yil bo'ldi. Siz-chi? Siz qanday yashadingiz?

– Men chiroqni bir necha yilgacha yoqib yurdim, – jilmaydi Iv, – oldiniga zerikkanimdan o'qishga tutindim, bora-bora kitob o'qishga shunchalik qiziqib ketdimki, qo'limga nimaki tushsa – o'qidim. Bir kuni, o'sha o'zim yashagan uyning tokchasida yotgan eski anatomiya kitobini ochib o'qidim-u, hayratga tushdim. Mening oldimda inson vujudining bir-biridan qiziqarli sirlar mammakati kashf bo'ldi. Men xuddi mast odamlarday, butun tun bo'yli shu kitobga qadalib o'tirdim. Er-talab esa kutubxonaga jo'nadim: „Doktor bo'lism uchun nimalarni bilish kerak?“ – deb so'radim. Meni masxara qilganday: „Matematika, geometriya, botanika, zoologiya, morfologiya, kimyo, biologiya, farmakologiya, lotin tili va hokazolarni o'rganing“, – deb javob qaytarishdi. Ammo men qaysarlik bilan surishtiraverdim va hammasini o'zim uchun xotiramga qayd qilib qo'ydim.

O'sha paytlarda men ikki yildan beri yashil chiroqni yoqib qo'yayotgan edim, bir kuni esa

uyga qarab qaytayotganda (men endi oldingiday hech qayoqqa chiqmasdan 7 soat uyda o'tirishim shart emas, deb hisoblardim), boshiga silindr kiygan bir kishini ko'rib qoldim, u mening yashil chirog'imga achinibmi, jirkanibmi qarar edi.

„Iv – antiqa bir ahmoq!“ – deb g'o'ldiradi o'sha odam meni payqamay. – U va'da qilingan g'aro-yib narsalarni kutyapti... ha, u loaqal nimadandir umidvor, men bo'lsm... men deyarli xonavayron bo'ldim!, Shunday deb valdiragan odam siz edingiz. Siz yana: „Ahmoqona hazil. Pulni yelga so-vurmasam bo'larkan,“ – deb qo'ydingiz.

Men hech nimaga qaramay o'qish, o'qish va yana o'qish uchun yetarlicha kitoblar sotib olgan edim. O'shanda sizni urib yuborishimga sal qoldi, ammo sizning masxara qilishga qaratilgan saxovatingiz tufayli ma'lumotli odam bo'lganimning xotirini qildim...

– Keyin-chi?

– Keyin? Yaxshi bo'ldi. Agar odamda istak kuchli bo'lsa, amalga oshishi hech gap emas ekan. Men bilan bir xonada bir talaba yigit yashardi. U menga hamdam-hamnafas bo'ldi va har taraflama yordam berib turdi, bir yildan keyin tibbiyot kollejiga kirish uchun imtihon topshirdim. Ko'rib turibsiz, qobiliyatli odam ekanman...

O'rta ga jimlik cho'kdi.

– Men ko'pdan derazangiz oldiga kelmay qo'y-gandim, – deb tan oldi Ivning hikoyasidan lar-zaga tushgan Stilton, – ko'pdan buyon... anchadan beri. Ammo, nazarimda, endi u yerda tun qorong'iligiga yog'du taratuvchi yashil chiroq hamon yonib turgandek... Meni kechiring.

Iv cho'ntak soatini chiqardi.

— Soat o'n. Ayni uxlaydigan paytingiz, — dedi u. — Taxminan, uch haftalardan keyin kasalxonadan ketishingiz mumkin. O'shanda menga qo'ng'iroq qiling, — ehtimol, men sizga ambulatoriymizdan biron ish topib berarman: kelgan-ketgan kasallarning ismi-shariflarini daftarga qayd qilib o'tirarsiz. Qorong'i zinalardan tushayotganda esa hech bo'lmasa bir dona gugurt chaqing...

Rus tilidan

Miraziz A'ZAM tarijimasi

QIROL

Men Qirolni faqat uch marta ko'rganman.

Birinchi safar biz uni o'marmoqchi bo'lganda ko'rgandim. Yozning dastlabki kunlarida bozor bo'ladigan shaharchaga borardik. Har shanba bu yerga tuxum, parranda, torf va boshqa qo'liga ilingan narsa bilan dehqonlar turli tomonlardan oqib kelardi. Kamalakday rang-barang bozor juda gavjum bo'lardi. Qizil yubka va toshday og'ir poyabzallar kiygan, yelkasiga shoyi ro'mol tashlab olgan basavlat xotinlar ortidan ularning kanop ishton, paxtalik nimcha va etik kiygan erlari ergashib yurardi. O'tkir qora bo'zaning, otlar-u xachirlarning, o'ralardan yangi qazib olingan kartoshka-yu tovuqlarning tagidan olingan issiqliqina tuxumlarning hamda karam bargiga o'ralgan tilладай xonaki sariyog'ning hidi hamma yoqni tutib ketardi. Oluvchilar ham, sotuvchilar ham bor ovozini qo'yib baqirar, yuk hayvonlari pishqirardi. Darbadar musiqachi alam bilan ashula aytar, uni eshitgan bag'ritosh odamlar ham ko'zyoshlarini tiya olmas, qo'lini beixtiyor cho'ntagiga solib, hamyonini qidira boshlardi.

O'sha kuni Jojo, Danin va men bozorga odadagi vaqtida yetib keldik. Biz kamon va o'q yasash uchun zarur narsani qo'nga kiritish niyatida bu

yerga kelgandik. Biz shumtol novdalari yuklangan arava bozor maydonidan chiqishi bilan uning iziga tushib, toki egasi payqaguncha anchagina novdani o'marib olardik. Bu uzundan uzun ajoyib novdalar bolardi. Uning yo'g'onroq tomonidan kamon, ingichkarok bosh qismidan esa o'q yasardik. Mana shunday qo'l bola kamon va o'q bilan ko'cha fonarlaridagi elektr lampochkalarni urib sindirardik. Lampochkalarning qattiq chirsillab sinishi bizga zavq bag'ishlardi.

Novdalarni keragicha o'marib, juftakni rostlaridik, keyin irlandiyalik landavurlar ustidan shumlik bilan kularidik. Egnimizda yirtiq ko'ylag-u kalta ishtondan bo'lak hech vaqo yo'q, boz ustiga hammamiz yalangoyoq – aravakashlar hayt degan hamono tiraqaylab qochib qolardik.

Shumtol novdalari yuklangan aravani Jojo birinchi bo'lib payqadi.

– Hoy bolalar, kelyapti! – qichqirdi u eshak tortib borayotgan aravaga ishora qilib. Aravaga yuklangan shumtol novdalarining uchi sollanib borardi.

– Qani, bo'la qolinglar! – dedi Denin odatdagidek kaftlarini ishtiyoq bilan ishqalagancha.

Denin bunaqa ishga ustasi farang edi – juda uzun novdani sug'urib oldi, undan kamida bitta katta kamon va ikkita o'q yasasa bo'lardi. Bular bilan qancha lampochkani chilparchin qilsa bo'ladi! Jojo ham bitta novdani qo'lga kiritdi. Men ham bir novdaga yopishdim, shoshib aravaning gupchagiga chang solibman – arava qalqib ketdi, aravakash o'girildi-yu, bizlarga ko'zi tushib, qamchini o'ynatdi. Qamchi shunday zarb bilan tegdi-

ki, yelkam jizillab achishib og'ri ganidan beixtiyor baqirib yubordim:

– Voy, la'nati qari ko'ppak!

Aravakash ham irland tilida bizlarni qalash-tirib so'ka boshladи. Ko'zлari olayib ketdi. G'azab bilan so'kinar ekan, uning bo'yin tomirlari o'qlov-day yo'g'on tortib ketardi. Basavlat bu odamning bahaybat kelbati hamon ko'z oldimda. Ko'pdan buyon ustara tegmagan soqollari o'sib ketgan, shopmo'ylovli bu kimsaning qiyofasi qahrli bo'lib, tarix darsligidagi Chingizzonga o'xshab ketardi. Tishlari qorday oppoq, qalin qoshlari ko'zlarga soya solib turardi. Ajablanarlisi, ko'm-ko'k ko'zlarida qahrdan nishon ham yo'q edi. Umuman, uning qiyofasida o'ziga xos ulug'vorlik ko'zga tashlanardi.

U aravadan tushdi, qamchini o'ynatgancha biz tomon yurdi.

Birinchi bo'lib qochib qoldim. Daninning ovo-zini eshitib hushyor tortdim.

– Mana tomosha! – hurmat bilan xitob qildi u. – Bolalar, axir bu Samogon Qiroli-ku!

Hammamiz darrov to'xtadik. U chinakam qahramon edi! U bilan bog'liq hikoyalar shunchalik ko'p ediki, agar hammasi to'plansa, ikkita kitobdan ham ortib qolardi. O'sha hikoyalarni qayta-qayta tinglab suyagimiz qotgandi. Samogon Qiroli ayyorlikda pixini yorgan iskovuchlarga ham pand berardi. Butun boshli politsiya batalyoni oldidan ham samogonni sezdirmay olib o'ta olardi. Uning o'zini ham, aravasini ham, eshagini ham, aravaga yuklangan torfni ham har qancha titkilashmasin, samogonni aytilgan joyga bir tomchi ham yo'qot-

may yetkazib borardi. Bir gal katta dasturxon yozib, motam marosimi uyuştirdi, o'shanda shuncha ko'p samogon yetkazib keldiki, Geluey grafligining barcha aholisini ham mast qila olardi. Uning nomi rostdan ham tillarda doston edi! Ing-liz politsiyachilari o'rnni irlandiyalik politsiyachilar egallaganda, ularni ham chuv tushirgan. Biz esa surbet politsiyachilarni dog'da qoldira ola-digan odamga hamisha Tangridan omad tilardik. Nazarimizda, u bu atrofdagi tengi yo'q odam edi. Shunday odamni ranjitishimizga sal qolibdi-ya!

— Bizni kechiring, Qirol! — dedim uning ko'zlariga tik qarashga botina olmay. — Tanimay qolibmiz, aks holda, Xudo haqqi, sira ham bunday qilmagan bo'lardik.

— Mana, qaytarib ola qoling, — dedi Danin, o'margan novdani uzatarkan.

— Men ham qaytarganim bo'lsin, — dedi Jojo istamaygina.

— Bir qultumdan samogon bersangiz bas, — dedi kutilmaganda Danin.

Qirol kutilmaganda qah-qah urib kula boshla-di va ulovning jilovini qo'lga oldi.

— Yo'qol hammang, churvaqlar, — dedi u yasa-ma po'pisa bilan. — Yo'qol deyapman, senlarga, yalangoyoqlar! O'margan novdalaring ham o'zla-ringga buyursin!

Bor aytgan gapi shu bo'ldi. Sakrab aravaga mindi-da, jo'nab ketdi. Biz esa hayrat bilan ortidan uzoq tikilib qoldik. Bir martagina o'girilib, qo'lidagi qamchi bilan hazilnamo po'pisa qilib jilmayganda oppoq tishlari kumushday tovlanib ketdi.

O'sha kuni to'rtta elektr lampochkani urib, chil-chil sindirdik. Bundan xabar topgan otam meni ayamay savaladi.

Ikkinchı safar boshqacha vaziyatda duch keldim. Bu paytga kelib uzun shimplar kiyib yurardik, boshimizga ishtiyoq bilan sochmoy surardik, har birimiz o'ziga xos xushbo'y atirni ham aymay separdik. Atirlarning xush bo'yidan yonimizdan o'tgan odamning naqd boshi aylanib ketardi. Katta shahar ko'prigining silliq toshlarida o'tirib olgancha Solt-xill tomon yo'l olgan kamdan kam qizlarga shilqimlik qilardik. Lekin sira omadimiz chopmasdi. Nazarimda, engil-boshimiz chinniday toza ekaniga qaramay, qiyofamiz haminqadar edi. Binobarin, qizlar bizlarga bir bor nazar tashlab, burnini jiyirgancha ertakdag'i shahzodani axtarib o'tib ketaverardi. Biz esa ularning ortidan so'kin-gancha qolaverardik.

– Jin ursin bu qizlarni! – dedi nihoyat Danin. – Yuringlar, yaxshisi Amerika kemasini tomosha qilamiz. Bunday oyimchalardan biri bilan yashagandan ko'ra umrbod bo'ydoq o'tganim bo'lsin! Sirkasi suv ko'tarmaydigan tegmanoziklarni ko'r-gani ko'zim yo'q! Ular manaman degan yigitning ham boshini yemaguncha tinchimaydi.

– Kamiga bor-budingni havoga sovuradi, – uni qo'llab dedi Jojo. Holbuki, o'zi haligacha yirik pulni ushlab ham ko'rmagandi.

Men e'tiroz bildirmadim. Amerika kemalarini xush ko'rardim. O'shanda bahaybat bu kemalar bizning bandargohga kirib o'tar, qishloq yoshlari ularda Amerikaga yo'l olardi. Bandargohda ularni

kuzatish voqealarini maroq bilan tomosha qilsa bo'lardi.

Kema turgan joyga o'tishning o'zi bo'lmasdi. Soqoldor, dengizchilar libosini kiyib olgan tul-lak darbon ruxsatnomasi bo'lmasa o'z onasini ham kema tomonga o'tkazmasdi. Biz oddiygina ayyorlik ishlatdik. Ilgari ham shunday qillardik. Olomon kirib ketayotir, ular orasida bir xotin o'z ruxsatnomasini ko'rsatadi, Jojo uning bolasi-day ro'molidan ushlaydi, Danin esa bir qo'li bilan Jojoning kamzulini tutamlab, bir qo'li bilan esa meni yetaklab oladi. Ustiga ustak kaftlarimiz bilan ko'zlarimizni to'sib, yosh boladay big'illab yig'laymiz. Bizning rosmana yig'layotganimizni ko'rgan qari darbon bu safar o'zi ham yig'lab yu-borishiga sal qoldi.

Muhojirlar bilan tirband kema jo'nashga tay-yor. Jo'nab ketayotganlar kema panjaralariga su-yanib olgan. Odamlarning qo'llarida dastro'mol-chalar hilpiraydi, hammaning ko'zi yig'idan qizarib ketgan. Sohildagi xotin-xalaj qo'llarini cho'zadi. Yelkalaridan ro'mollari tushib ketganiga ham parvo qilmaydi, ularning yuzlarini ko'zyosh-lari yuvADI. Egniga paxtalik nimcha kiyib, qo'liga shumtoldan qilingan qamchi ushlab olgan erkak-lar burunlarini qo'llari bilan artadi, ko'zyoshi qil-gani oriyati yo'l qo'ymaydi. Biz beg'am o'smirlarga esa ermak kerak – hammani baravariga masxa-rabalab kulgimiz keladi.

Kema gudogi yangradi, langarlar ko'tarildi va kema joyidan qo'zg'aldi.

Shu payt Qirolni ko'rib qoldik.

U Iso Masihday qulochini kergancha yig'lar-di. Uni arang tanidik. Qaribdi. Mo'ylovi butunlay oqarib ketgan, burni sholg'omday qizil, qo'llari-yu butun tanasi daraxt shoxlariday quruqshab qol-ganday. U bizni avvalgiday jiddiy qiziqtirmas, bi-roq bolalik bilan bog'liq xotiralarni yana yodga solardi.

— Qaranglar, axir bu keksa Qirol-ku, — dedi Danin.

— Haqiqatan ham aynan uning o'zi, — tasdiqladi Jojo.

Hammamiz unga tikilib qoldik.

U qaysidir ma'noda qirol edi. U o'zini shoh-larday bemalol tutardi. Kemada o'g'li jo'nab ketayotganidan yuragi o'tanib, faryod solib yig'lay boshladi. Odamlar nima deb o'ylaydi, degan fikr xayoliga ham kelmasdi. Yig'lash barobarida o'g'liga talpinib mehr bilan yolvorardi. Irland tilida. Biz endilikda irland tilini ancha bilib olgandik. Maktabda majburan o'rgatishardi. U o'g'liga talpinib tavallo qilardi:

— Bolam, bolajonim, meni tashlab ketma! Qari otangga rahming kelsin! Yorug' dunyoda sendan bo'lak hech kimim yo'q. Sensiz aqldan ozaman. Yolg'iz o'zimni, uyasi buzilgan chumchuq-day chirqillatib ketma! Ko'zimning oq-u qoras! Nahotki seni ortiq ko'rmasam?! Ortingga qayt! Mehribon otangning bag'riga qayt, o'g'lim!

U ko'zlaridan shashqator yosh oqizib, fig'on qilgancha yolvorardi. Kemada uning o'g'liga ham ko'zim tushdi: u ham kulfatzada qiyofada, oyog'i-ning tagida safar jomadoni. Barvasta, otasi ham yoshligida ana shunday kelishgan edi.

Kema sohilni tark eta boshladi, Qirol o'g'lining kema panjarasi tutqichini mahkam changallaganiga ko'zim tushdi. Kemadan ham, sohildan ham shunday yig'i-sig'i, fig'on-u faryod ko'tarildiki, nazarimda, qiyomat-qoyim ro'y berganday bo'ldi. Hatto biz ham hazil-mazaxni unutib, qayg'u domida qoldik. Yon-atrofni hasrat ko'lankasi qoplab oldi. Kema sohildan chamasi besh qadamlar siljiganda Qirol qo'llarini cho'zgancha o'zini suvga tashladi.

Kemaga yeta olmay suvga g'arq bo'ldi. O'g'lining ko'zi qinidan chiqib ketayozdi. Sohil xizmat-chilaridan biri qutqaruv chambarini suvga otdi, boshqasi esa kamzulini yechib suvga sho'ng'idi. Qirol suv yuzasiga qalqib chiqdi, shapkasi ko'zini to'sib qo'ygandi. Qari bo'lgani uchun suv yuzasida o'zini arang tutib turardi. Endi unga baribir edi. Suv qa'riga cho'kishdan oldin olislab bora-yotgan kema tomon yana qo'l silkishga ulgurdi. Qutqaruvchi shu pallada unga yetib olib, qutqaruv chambarini kiydirdi.

Shalabbo bo'lgan Qirolni suvdan qanday olib chiqqanlarini tomosha qilish uchun boshqalar o'sha yerda qoldi. Kimlar uchun bu kulgili tekin tomosha bo'lganmish. Lekin men qolmadim. Men Qirolni baquvvat, barvasta odam sifatida qadrillardim, uning qiyofasiga raxna solishni istamasdim. Shu bois odamlar uni mayna qilishlariga chiday olmasdim.

Uchinchi marta keyingi kuni ko'rdim. Sohilning oxirida ko'm-ko'k suvni kuzatardim. Oqchorloqlar charx urib uchardi. Suv yuzida kemalardan tushgan neft va sohildan tushgan ko'mir chang-

lari mavjlanardi. To'lqinlarda apelsin po'choqlari, sigaretalarining qutilari suzib yurar, allaqanday itning o'ligi chayqalardi.

Daf'atan eshkakli qayiqqa ko'zim tushdi. Bandargoh o'tasining shundoqqina ro'parasida odamlar ipga bog'langan mushukni tortishardi. Mushuk nimagadir yopishdi, zo'r berib torta boshladи, mushukni kuzatib turgan odamlarning qichqirgani eshitildi. Odamlar eshkaklarni qo'yib, mushukning ho'l arqonini torta boshlashdi, ayni shu palla suvdan Qirolning yuzi qalqib chiqdi.

Uning ko'zları yumilgan, boshida shapkasi yo'q edi. Quyosh ko'rmagan manglayi oppoq ekanini ko'rib ajablandim. Yakkam-dukkam sochlari ham qorday oqarib ketgandi. Yuzi kichrayib qolganday tuyuldi, oppoq qansharidagi momataloq dog' ham e'tiborimni tortdi.

Qayiqdagagi odamlar ko'kintir tiyg'anchoq zinalar tomon suza boshladilar. Bir odam Qirolning kamzulidan ushlab olgancha suv bo'ylab sudrab kelardi.

Kecha yarim tunda kimdir uning suvgaga shaloplاب yiqliganini eshitibdi.

Begona yurtga darbadar ketgan o'g'lini qo'm-sab sohilga chiqqan bo'lsa, ajab emas. Aftidan, toyib ketib, boshi bilan sohildagi xarsangga urilgan va shundan keyin suvgaga g'arq bo'lgan. Yolg'iz o'g'lidan umid uzolmay yana bandargohga kelgan-da. Judolik dardiga chiday olmay anchagina ichgan ham bo'lsa kerak. Mast odamning oyoqda turishi esa qiyin. Hamma narsa bo'lishi mumkin. Buning ustiga qari odam. Ikki mamlakatning politsiyachilari bilan tap tortmay bellashadigan ja-

soratli, barvasta Qirol o'tmishda qolib ketgandi. U shu asno dunyodan ko'z yumdi. Balki, siz vahimali o'lim topibdi, dersiz. Bilmadim. Hammasini o'z ko'zi bilan ko'rgan kamina, u dunyodan shoirona bosh olib ketdi, degan bo'lardim.

Qirol vafot etdi, unday odam ortiq dunyoga kelmaydi. Undan shohona tojni meros qilib ola-digan yolg'iz o'g'li ham, afsuski, begona yurtga bosh olib ketdi.

Qayiqdagilar taxta zinalar oldiga yetib kelganda, men boshimni ko'tara olmay uyga jo'nadim.

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

DUSHMAN

Sinfdosh do'stim leytenant Lyudvig Brayerdan „Urushda o'z ko'zing bilan ko'rgan qaysi voqea xotirangda jonli saqlanib qolgan“, deb so'ranganmda Verden, Somma yoki Flandriyadagi janglar haqida eshitaman deb o'ylagandim, zotan, u bu frontlarning hammasida bo'lgan, eng og'ir janglarda qatnashgan edi. Biroq u meni ajablantirib, tamoman boshqa voqeani so'zlay ketdi:

„Eng jonli saqlangani emas, balki xotiramga sira o'chmas bo'lib o'rnashgan voqea bizni front ortiga, oldingi chiziqdan olis fransuz qishloq-chasiga jo'natishganida boshlangan edi. Jangda biz juda qaltis joyda himoyani saqlab, artilleriya dovuli ostida qolib ketdik, shu bois bizni frontdan ancha uzoq joyga jo'natishdi, chunki katta talofotlar bergandik, qaytadan kuch toplashimiz kerak edi.

Avgustning ajib haftasi edi, Injilda tasvirlanganidek, go'zal yoz kunlari, xuddi bir paytlar Shampandagi yerto'lalardan birida o'lja olganimiz ko'hna sharob kabi sarxush qilardi bizni. Ust-boshimizni bitdan tozalab oldik: ba'zilarimizga yap-yangi ichkiyim tarqatishdi, boshqalar esa ko'ylaklarini qozonga solib, obdan qaynatdilar; hamma yerda ozodalik hukmron ediki, buning

fusunkor go'zalligini kir-chirga botib yuradigan askargina teran his qila oladi. Bolaligimda onam kattakon vannada cho'miltirgach, kraxmal, tiriklik va shirinkulcha hidi taralib turgan top-toza kiyimlarni kiydirgan osuda kunlardagi kabi yoqimli his edi bu.

Askar bo'lgach, tabiatga boshqalardan ko'ra o'zgacha ko'z bilan qaraydi kishi. O'sha avgust kunlari shafqatsiz, o'lim yoqasidagi dahshatli turmush sharoitlarida oyog'imizga tushov bo'lgan minglab taqiq va majburiyatlardan xalos bo'ldik; dam olish daqiqalari va soatlarida shunchaki hayotning o'zi haqida, tirikligimizni, to'rt muchamiz butligini; ko'ra olishimizni, nafas olayotganimizni va erkinligimizni o'ylab quvonchimiz ichimizga sig'may ketdi.

Botayotgan quyosh shu'lalaridan charog'on dala, o'rmonning ko'kimtir ko'lankasi, terak barglarining shitir-shitiri, shaffof suvli soyning yugrib oqishi – bari ta'riflab bo'lmash quvonch baxsh etardi; biroq ich-ichimizda qamchi yoxud tikanak singari azob berayotgan bozillagan og'riq bor edi baribir: chunki bilardikki, talay soatlardan so'ng, talay kunlardan keyin bular bari o'tib ketajak va o'limning do'zaxmonand manzaralari bilan muqarrar almashinajak. Baxt, dard, dilgirlik, qayg'u, zekrakash va umidsizlik omuxtasi bo'lgan bu his dam olayotgan har bir askarga begona emasdi.

Kechki ovqatdan so'ng bir necha o'rtog'im bilan qishloqdan tashqariga chiqdim. Uzoq yurdik, deyarli gaplashmadik; ko'p oylardan so'ng birinchi marta kayfimiz chog' edi va ko'zimizga tushayotgan shom quyoshi taftida isinardik. Ha-

demay tevaragiga soqchilar qo'yilgan, to'siq bilan o'ralgan keng maydonning o'tasidagi chog'roq, ko'rimsiz fabrika binosining ro'parasidan chiqdik. Bino hovlisi Germaniyaga jo'natishlarini kutayotgan asirlarga to'la edi.

Soqchilar yo'limizni to'sishmadi, biz bemalol tomosha qila boshladik. Bu yerda bir necha yuz fransuz asiri joylashtirilgan edi. Ular o'tirishar yoki yotishar, chekishar, o'zaro so'zlashishar yoki boshlarini osiltirgan ko'yi mizg'ishardi. Xuddi shu manzara menga katta saboq bo'ldi.

Endi esa ilk bor asirlarni, asir bo'lganda ham - o'tirgan, cho'zilib yotgan, chekayotgan asirlarni - qurolsiz fransuzlarni ko'rib turardim.

Qo'qqisdan karaxt bo'lib qoldim. Meni oddiygina bir fikr esankiratib qo'ygandi: ular ham bizga o'xshagan odamlar ekan-ku!? Biroq fakt faktligi-chi qoladi - Xudo shohid, juda g'alati fakt - ilgari hech qachon aqlimga kelmagandi bu fikr. Fransuzlarmi? Dushmanimiz-ku ular! Bitta qo'ymay qirib tashlash kerak ularni, chunki Germaniyani mahv etishmoqchi! Ammo o'sha avgust oqshomida men bir mudhish sirni angladim - qurol jodusi sirini. Qurol odamlarni o'zgartirarkan. Atrofimizza xotirjam, tinchgina o'tirgan bu yuvosh kishilar, bu fabrika ishchilari, qora mehnatkashlar, yuqori sinf o'quvchilari, agar birdan qollarida qurol paydo bo'lsa, darhol yana bizning dushmanimizga aylangan bo'lur edilar.

Boshida bizga yov emasdi ular: qurol olgalaridan so'ng dushmanga aylanishgandi. Xuddi shu narsa meni tafakkur qilishga majbur etdi, biroq mantig'im noto'g'ri bo'lishi mumkinligini

tan olardim. Ammo „Aynan qurol-yarog‘ urush olovini yoqadi“, degan fikr mudom ta’qib etardi meni. Dunyoda shu qadar ko‘p qurol to‘plangan-ki, oxir-oqibat ular odamlardan ustun kelib, ularni o‘zaro dushman qilgandi...

Anchadan keyin, Flandriyada yana shunaqa holatni kuzatganman: temir va porox urushi qutursa, insonning qadr-qimmati qolmas ekan. Quroldan jazavaga tushib, telbalarcha bir-birlari-ga tashlanishadi. Ba’zan o‘ylab qolasan kishi: bordi-yu ikki yovlashgan tomondagi barcha tirik jon qirilib bitgan taqdirda ham, qurol-yarog‘lar, to butun jahonni yo‘q qilmaguncha urushni bas qilmasa kerak, deb... Biroq bu yerda, fabrika hovlisida sen-u menga o‘xshagan odamlarni uchratgandim. Va birinchi bor anglab yetdim: men odamlar bilan jang qilayotgan ekanman! O‘zim singari, jarangdor shiorlar-u qurol sehriga laqqa tushgan, xotini va bolalari, ota-onasi va kasb-kori bor odamlar bilan. Ular sabab bo‘lib mening fikrim ravshanlashgan ekan, balki, ularning ham ko‘zлari ochilar, men kabi yon-atrofga alanglab, bir-birlariga savol berishar: „Birodarlar, biz nima qilmoqdamiz?! Buning nima zarurati bor?!\”, deya.

Bir necha haftadan so‘ng biz yana frontda edik, bu safar – picha tinchroq yerda. Fransuzlarning oldingi marrasi xiyla yaqin edi bizga, lekin pozitsiyalari pishiq-puxta himoyalangan edi, xullas, u yerda yolchitib urushmadik. Har kuni ertalab, rappa-raso yettida ikki tomon artilleriyachilari salomlashgan kabi bir-birlariga o‘q yog‘dirishardi, keyin, choshgohda tag‘in kichikroq salyut tashkil qilinar, kechga yaqin oxirgi marta shu yo‘sin

„salom-alik“ qilishardi. Biz istehkomlarimiz yoni-da quyosh nurlariga cho‘milardik, kechalari esa hatto etiklarimizni yechib, bafurja uxlardik.

Kunlarning birida betaraf maydonning narigi tomonida, brustver ustida qo‘qqisidan „Attention!“ deb yozilgan bir bo‘lak faner ko‘tarildi. Hayratdan fanerga qanchalar chaqchayganimizni tasavvur qilaver. O‘ylay-o‘ylay, hozir zo‘r, odatdagidan va himaliroq artilleriya hamlasi bo‘lsa kerak, degan fikrga keldik, ko‘pchilik snaryadlarning dastlabki hushtaklari eshitilgani hamon handaq qa‘riga singib ketishga shaylana boshladi.

Biroq atrof tinch edi. Faner bo‘lagi g‘oyib bo‘ldi, bir necha soniyadan so‘ng esa uchiga bir quti sigaret bog‘langan kurakchani ko‘rdik. Fransuz-chani chala-chulpa biladigan o‘rtoqlarimizdan biri topografiya xaritalari solinadigan katta planshetga gutalin bilan yozdi: „Compris“. Planshetni dushmanga ko‘rinadigan qilib ko‘tardik. Shunda narigi tarafda sigaret bog‘langan kurakchani u yoqdan bu yoqqa silkita boshlashdi. Biz ham planshetni silkitdik va bir parcha oq matoni namoyish etdik – u shu pallada bitini terib o‘tirgan ober-yefreytor Byulerning ko‘ylagi edi.

Picha vaqt o‘tgach u yoqdagilar ham oq mato ko‘tarishdi, kamiga – kaskani ham qo‘sishdi. Biz kuchimiz boricha ko‘ylakni silkitib signal berdik, undagi hamma bitlar yomg‘ir va shamolda to‘kilib ketgandirov. Nihoyat, u tomonda paket tutgan qo‘l ko‘rinib, allaqanday fransuz ehtiyojkorlik bilan tikanli sim orasiga suqildi; u sekin-asta biz tomonga emaklar va ahyon-ahyonda dastro‘molini silkitgancha asabiy kulardi. Oraliqdagi may-

donning taxminan o'rtasiga yetganida u to'xtadi, paketni yerga qo'ydi, besh-olti marta unga barmog'ini nuqdi, yana kului, bosh irg'adi va emaklagancha iziga qaytdi.

Bular bari haddan ziyod hayajonga soldi bizni. Hayajonga bolalarga xos, taqiqlangan ishni qilish ishtiyoqi ham qo'shildi, biz kimgadir hazil qilmochchiga o'xshardik, go'yo; qolaversa, shunchaki tezroq paket yoniga borib, undagi shirinliklarnimi yoki bir cuti sigaretnimi qo'lga kiritgimiz kelardi.

Bizga biroz erkinlik, mustaqillik va barcha o'lim mexanizmlari ustidan tantana ruhi ufurdi. Shunaqa hisni men ho' o'shanda, asir fransuzlar qarshisida turganimda chuqur insoniy bir tuyg'u qalbimga muzaffarona yorib kirib, „dushman“ haqidagi ibtidoiy tushunchalarimni yanchib tashlagan damda ham tuygandim, endi esa bu zafarga o'z hissamni qo'shishni xohlamoqda edim.

Biz shosha-pisha bir nechta sovg'a-salom hozirladik, umuman olganda, mayda-chuyda narsalar edi bari, chunki neytral hududning narigi yog'idagi o'rtoqlarimizdan farqli o'laroq, surobi-miz to'g'ri bo'lib qolgandi bizning. Shundan so'ng tag'in ko'ylak bilan signal yo'lladik, darrov javob qaytarishdi. Men ohista yuqoriga o'rmalay boshladim. Boshim va yelkam qariyb handaqdan chiqdi. Senga ochig'ini aytaman, juda behuzur bo'ldim: himoyasiz, mana men degandek brustverdan chiqib turibman – tap-tayyor nishon!

Keyin to'ppa-to'g'riga emakladim, shundagina fikrlarim butkul o'zgardi, go'yo ularni birov miyamdan so'rib olgandek edi. Juda g'alati va maroqli vaziyat edi: ichimda misliko'rilmagan shod-

lik ko'pirib-toshayotganini his qilardim; xursand edim, kula-kula, dadil emaklardim.

Tugunchani qo'ydim va ular qoldirgan tugunchani olib, izimga burildim. Shu mahal tinchlik zavqi bir lahzada kunpayakun bo'ldi. Ortimdan yuzlab miltiqlarning og'zi menga qaratilgan bo'lishi mumkinligini tushunardim. Bu meni qattiq qo'rquvga soldi, a'zoyi badanim jiqqa terga botdi. Lekin o'zimiznikilar yoniga sog'-salomat yetib bordim va o'pkam og'zimga tiqilgudek bo'lib handaq ichiga ag'anadim.

Ertasi kuni men bu ishga ancha ko'nikib qolgandim; bora-bora „oldi-berdi“ni xiyla soddalashtirdik va handaqlarimizdan galma-gal emas, balki baravariga o'rmalab chiqadigan bo'ldik. Zanjirdan bo'shatilgan ikki it kabi bir-birimizga tomon emaklar va sovg'a almashib qaytardik.

Ilk bora bir-birimizning ko'zlarimizga boqqanimizda parishon jilmaydik, xolos. Anov fransuz askari menga o'xshab yoshgina yigit ekan, yigirmalarda bordir, ortiq emas. Bu o'yin unga juda yoqayotgani yuzidan sezilib turardi. „Bonjour, camarade“, dedi u; men butkul esankirab qoldim va ikki marta takrorladim: „Bonjour, bonjour“, so'ng uchinchi marta ham aytdim va bosh irg'ab qo'yib, shoshilgancha ortga qaytdim. Biz muayyan vaqtarda uchrasha boshladik va avval signal berib ogohlantirish taomilidan voz kechdik – bu yozilmagan tinchlik sulhi shartlariga ikki tomon ham bekam-u ko'st amal qilardi. Bir soatdan so'ng esa burungidek yana bir-birimizni o'qqa tutardik. Bir kuni men bilan sovg'a ayirboshlagan fransuz yigit qo'rqa-pisa qo'lini uzat-

di va biz salomlashdik. Turgan-bitgani hangoma, o'lay agar.

Bunaqa voqealar frontning boshqa uchastklarida ham yuz berarkan. Yuqori qo'mondonlik xabar topib, „Bunaqa ishlar qat'yan man etiladi, zotan, alohida hollarda shuni deb harbiy harakatlар rejimi buzilmoqda“, degan mazmunda buyruq chiqaribdi. Biroq biz parvo ham qilganimiz yo'q.

Ajoyib kunlarning birida frontimizga allaqanday mayor kelib, shu to'g'rida rotamizga uzundan uzoq va'z o'qidi. Jonkuyar va serg'ayrat zabit ekan, qurg'ur, frontning oldingi marrasida kechgacha qolmoqchiliginи aytdi. Taassufki, u biz sovg'a al-mashishga chiqadigan joy yaqiniga o'rashib oldi va bu ham yetmagandek, miltiq berishlarini tabab qildi. Juda yosh, jasorat ko'rsatishga ishqiboz ekan mayor.

Nima qilishni bilmasdik. Narigi tomondagi o'rtoqlarimizga belgi berishning imkonи yo'q edi; qolaversa, dushman bilan bunaqa o'yin qilayotganimiz uchun joyimizda otib tashlashlaridan xavfsirardik. Soatimning daqiqani ko'rsatuvchi kafgiri sekin-asta aylanishda davom etardi. Qimirlagan jon yo'q edi va biz hammasi xayrli tugaydi, deb umidlandik.

Mayor, shubhasiz, front chizig'i bo'ylab davom etayotgan birodarlik munosabatlардан xabardon edi-yu, biroq biz bu yerda nimalar bilan shug'ullanayotganimiz to'g'risida aniq ma'lumotga ega emasdi; jin urgurning aynan bizga, yana tag'in shunday topshiriq bilan kelganini qara. Omad yuz burgani shu-da!

Men unga: „Besh daqiqadan keyin u yoqdan kimdir keladi. Unga o'q uzmaslik kerak – bizga ishonadi“, desammikan deb og'iz juftladim. Biroq jur'atim yetmadi, baribir bundan naf chiqmasdi. Deganimda, u handaqqa biqinib atay uni poylagan bo'lardi, indamasak, balki, bir iloji topilib qolar, ehtimol, o'zi ketar. Qolaversa, Byuler qulog'im-ga shipshib, narigi brustverga borib, miltiq bilan „tegmadi!“ (merganlik mashqida o'q nishonga tegmagan paytlarda miltiq bilan havoda chiziq tortib signal beriladi) ishorasini qilganini va ular javob berishganini, xullas, chiqish mumkin emasligini tushunishganini aytdi.

Baxtga qarshi, kun sovuq edi, maydalab yomg'ir yog'ardi. Qosh qoraya boshladi. Tayinlangan uchrashuv vaqtidan chorak soatcha o'tdi. Xavotirimiz sal bosildi va biz erkin nafas oldik. Bir mahal nigohim muallaq qotdi; tilim shishib, og'zimni to'dirgandek edi, go'yo; qichqirmoqchi bo'lardim-u, og'iz ocholmasdim; umidsizlikdan qo'l-oyog'im shol bo'lgancha betaraf hudud osha qararkanman, ohista ko'tarilgan qo'lni va kimensiondir sharpasini ilg'adim. Byuler brustver yonidan zir yugurar va ogohlantiruvchi belgi bermoqchi bo'lib payt poylardi. Biroq g'isht qolipdan ko'chgandi – mayor o'q uzishga ulgurdi. Kimdir ingichka ovozda qichqirdi, sharpa g'oyib bo'ldi. Bir zum dahshatli sukunat cho'kdi. Yana bir-ikki soniyadan keyin yuzlab tovushdan iborat hayqiriqni eshitdik. Qaqshatqich jang boshlandi. „Otinglar! Ular hujumga o'tishyapti!“, baqirdi mayor.

Shunda biz ham o't ochdik. Telbalardek, miltiqlarimizni peshma-pesh o'qlar va otardik, bu

mudhish onlar tezroq o'tib ketsa bas, deb o'ylardik. Butun front jonlandi, artilleriya yeng shi-mardi, kechasi bilan otishdik. Ertalab o'n ikkita jasadni sanadik, ular orasida mayor va Byuler ham bor edi.

Harbiy harakatlar, turgan gapki, qaytadan boshlandi; dushman tomon bilan sigaret alma-shishni bas qildik; qurbanlar soni soat sayin ortardi...

O'shandan keyin ham ko'p balolarni ko'rdim. Ko'p odamlar ko'z o'ngimda halok bo'lishdi; men o'ldirganlar ham oz emasdi; toshbag'ir, hissiz bo'lib qoldim. Yillar o'tdi. O'tgan shu uzoq vaqt mobaynida men – qo'llimdan kelgancha – yomg'ir shivalab turgandagi o'sha ingichka ovozdagi qich-qiriqni eslamaslikka urinib yashadim“.

Rus tilidan

Jamshid MATYOQUBOV tarjimasi

PUSHTI RANG UPA

Nihoyat Soufi o'z xonasida dam olib o'tirar edi.

U o'lguday toliqqandi. Kun juda og'ir o'tgan; xuddi kechagi kunday, xuddi kechadan oldingi kunday og'ir o'tgandi. Aslida-ku, har bir kun shunday og'ir tarzda o'tar va bu kunlar Soufining yana bir yoshini asta-sekinlik bilan undan uzoqlarga olib ketmoqda edi. Yana ikki yil o'tgach, Soufi ham ellik yoshni urib qo'yadi. U uchun har bir kun borgan sari og'irlashib borardi.

Pastdagi yo'lak bo'ylab taralayotgan beka bilan xo'jayinning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozi oqsochning qulog'iga chalindi. Bekaning g'azab otiga mingani yaqqol sezilib turardi. Eri bilan gaplashganida uning tepe sochi tikka bo'lishi odatiy holga aylanib qolgandi.

Qo'ng'iroq chalinishi bilan Soufi dik etib o'rnidan turdi-yu, koridor tomon haloslagancha yugrib ketdi. Obbo, qo'ng'iroq tag'in chalindi. Beka kutishni yoqtirmasdi.

— O, Xudoyim-ey, Soufi! Qorangni endi umrbod ko'rmas ekanmanmi, deb o'ylagandim!

Soufi miq etmadi. Nima ham desin? Beka eshigi ochiq kiyim javoni oldida kuymalanardi. U qo'liga bir dasta qilib ko'ylaklarini ilib olgan, yana allaqanchasi karavoti ustida yoyilib, sochilib yotardi.

— Ertaga, Soufi, — dedi beka shoshilayotganidan nafasi bo'g'ziga tiqilib, — bizlar Rimga jo'nab ketamiz. Ertaga ertalab. Demak, ayni daqiqadanoq tayyorlanishimiz zarur.

— U yoqda qancha vaqt bo'lasizlar, xonim?

— Bunisini bilmayman. Ehtimol, ikki yoki uch hafta bo'larmiz.

— U holda kattaroq chamadonni tayyorlaganimiz ma'qul emasmikan? Men hozir borib o'shani olib kelaman.

— Kel, senga qarashib yubora qolay, Soufi, — dedi beka oqsochi zil-zambil chamadonni keltiriши bilan. Odatda, beka atrofida qari ayol uymalanib yurishini jini suymasdi. Ammo Soufi o'z ishini ko'ngildagidek ado etardi.

Keksa oqsoch narsalarni joylashtirish bilan band ekan, ko'ngli negadir cho'kib borardi.

— Butun kunni divanda, — deya o'y surardi u, — aynan xonimniki singari kattagina rohatijon karavot ustida o'tkazish. Faqat uqlash, dam olish, yana xonim to'g'risida va uning qaysi topshiriqlarini bajarish haqida zig'ircha tashvish qilmaslik — shunaqasi ham bo'larkanmi?

— Uning so'nggi o'yinidan keyin, — beka eri haqida so'zlab ketdi, — o'zining aytishicha, bir tiyini ham qolmagan emish. — „Biror donayam yangi kiyim sotib ololmayman“, dedi u. — Beka derazadan tashqariga bir qarab oldi. — Boz ustiga, — deya gapida davom etdi, — erimning qari otasi ham peshaningga kelib olgan. — „Shunday shoir ering bilan faxrlanishing kerak“, deydi-ya qariya tushmagur. Yuziga qarab xaxolab yuborishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim. — Beka qah-qah otib kulib yubor-

di. – O, o'zimning Soufiginam-ey, nechanchi osmonlarda uchib yuribsan-a? Manavi almisoqdan qolgan yashil ko'yakni joylashingga balo bormi?

– Soufi indamasdan ko'yakni garderobga ilib qo'ydi.

– Nima uchun bu aynan shu kecha qovoq-tumshug'ini osiltirib olibdi? – deb o'ylardi beka ichida. – Yuzlari ham sarg'ayib, tishlari ko'karib ketibdi. Bunchalik xunuk bo'lmasa. Yaxshisi uxlagani jo'natib yubora qolay. Ammo nima qilib bo'lsa ham ish yakunlanishi kerak-da. Nima qilsam ekan-a? Beka o'z-o'ziga achinib ketdi.

Beka „Hayot og'ir-da, – deya o'y surganicha divani ustiga cho'kdi. – Sarg'aygan yuz va ko'kargan tishlar! Chindan ham o'ta yoqimsiz!“ Soufining afti bekani kasal qilayozdi.

– Hayot og'ir-da, – deya yana takrorladi beka. U oqsochini xonasiga ketkazib yuborsa ham bo'lardi. Biroq lash-lushlarini hozirlashni bir o'zi eplolmaydi. Ustiga-ustak, ertaga saharlab Rimga ketishlari kerak. Beka eriga sayohatga keta olishini aytgani-da, u ishonqiramay miyig'ida kulib qo'ygandi.

– Soufi, – dedi xonim nihoyat bir chora topganday, – borib, mening pardoz stolim ustini bir qaragin-a. O'sha yerda pushti rang bir upa turibdi. O'shandan yonoqlaringga ozgina surtib ol. Yana o'sha joyda qandaydir lab bo'yog'i ham bor.

Keksa Soufi o'rnidan turib, pardoz stoliga borgunicha va aytilgan topshiriqni adog'iga yetkazgunicha beka ko'zlarini yumib turdi. Obbo, bu xotin buncha ivirsimasa... Nihoyat, Soufi imillagancha joyiga qaytib kelib, narsalarni joylashda davom etdi. Xonim ko'zlarini ochdi. „Voy, shu-

nisi yaxshiroq bo'ldi, sal bo'sa-da odambahara bo'ldi-qoldi".

– Rahmat, Soufi. Tuzukkina odamga aylanding-qo'yding. – Beka o'rnidan turdi. – Qani endi, chaq-qon-chaqqon qimirla, mana bu narsalarni tez joy-lab olaylik.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

PAVLE FERTIG

Hisoriyada uni hamma tanirdi. U dam olishga keluvchi qo'noqlarni „Tuyalar“ 1 deb ataladigan janubiy darvoza oldida sakrab, o'mbaloq oshib, xushnud salomlar, quvnoq hazillar bilan qarshi olardi va keyin ham ularni qo'lidan kelgancha xursand qilardi. Shuning uchun Pavle Fertigni hamma bilar, yaxshi ko'rар va unga pul berardi.

U o'n sakkiz-yigirma yoshlarda edi. Telbanno, savdoyiroq, sho'x, ko'ngilchan, ba'zan dono Pavle Fertig o'zining nochor va gadoybasha-ra ko'rinishidan tushkunlikka tushmasdi. Hech qanday sababsiz, quvonchdan porlab turadigan chaqnoq katta qora ko'zlari cho'ziq, yuvilmagan, seckilli yuzini munavvar etib turardi. Har doim kutilmagan yo ahmoqona yoxud tagma'noli teshsha tegmagan gap aytishga, bevaj quvonishga va hazillashishga shay, kuldirish yo hayratga solishga usta, har qanday iltimosni bajarishga tayyor, hamma vaqt yordamga hozirligi bilan u Hisoriyaning buloq suvlariga keluvchi qo'noqlarning suyuklisiga aylandi. Uning bolalarcha safsatasi, bema'ni mulohazalaridagi xufiya, achchiq kino-yalari kishilarni zavqlantirar, tildan tilga o'tib, yig'lnarga va suhabatlarga jon kiritardi. Hazillari, asosan, yosh va go'zal ayollarga qaratilardi, ha-

voyi yengiltaklar uchun esa Pavle nihoyatda xavfli edi... Hisoriyaning barcha so'lim go'shalarini yutoqib kuzatar, sirligicha qolishi lozim bo'lgan jamiki narsani ko'ngilchan, betiyiq, jozibali, toza nutq bilan oshkor etardi.

Pavle Fertig asli S. shaharchasidan edi. U yerda uni taqdir hukmiga tashlab ketgan nihoyatda qashshoq onasi yashagan. Pavlening onasidan tashqari qayerdaligi noma'lum, izsiz gum bo'lgan ukasi ham bor edi. U kulgili hazillari bilan Hisoriya mehmonlarining ko'nglini ovlash, ularning ortidan tugunlarini hammomga qadar ko'tarib borish, barcha buyruqlarga bo'yin tovlamay, so'z-siz qulq solish, turli topshiriqlar bilan Karlovga dovur yayov borish, „Tuyalar“ oldida dam olishga kelgan yangi qo'noqlarni ezgu tilaklar ila qarshi olish, yugurish, qo'shiq aytish, o'mbaloq oshish kabi bir talay xizmatlari uchun beriladigan sa-daqa hisobiga kun ko'rardi. O'n tiyinlik tangalar, yarim franklik chaqalar, ba'zan butun franklar uning shapkasini do'ppaytirib to'ldirardi.

Pavle, ayniqsa, poyezdning yurishini aks et-tirishni qoyillatardi. „Fertig“ 2 deb bir qichqirar, so'ngra qo'lini tanasiga bosganicha, „Pip... pix-pix, pix-pix,“ deb tovush chiqarib, avval sekin, keyin tezroq va yana tezroq hakkalab yugurardi, xuddi shunday u paravozning pishqirishiga ham taqlid qilardi. Stansiyaga yaqinlashishi oldidan shovqin-suron sekin-asta pasayar, yugurish ham sekinlashardi. Qo'noqlar Hisoriyadan jo'nab keta-yotgan chog'da birorta foytunning otlari to Pavle paydo bo'lib, shapkasini cho'zib vidolashmaguncha va o'zining sevimli so'zi „Fertig!“ deb buyruq

bermagunicha joyidan jilmasdi. Aslida, shuning uchun ham uni Pavle Fertig, deb atashgandi.

Xayr-ehsonlarning keti uzilmasa-da, Pavle hech narsaga pul sarf qilmay, yalangoyoq, juldur kiyimda va doim och-nahor yurardi. Qotma, irkit, hayotidan mammun, orzu va qayg'u nimaligini bilmaydigan darveshlardek egnida kiygulik siyog'i qolmay, titilib ketgan birovlarning eski-tuskilarini ilib yurar, begonalarning stoli ustida qolib ketgan arzimas sarqitlar bilan ochligini qondirar, qishloq etagida, „Tuyalar“ yaqinida, kulbachada, qamish, qoziq va kerosin idishlaridan qurilgan omonat manzil ostida, ba'zan esa qandaydir do'kon yonida yirtiq kostyumiga o'raniб uxlardi. Uning tilanchiligi va tejamkorligi boshqalarni hayratga solardi. Ba'zilar u pullarini kiyimi orasiga tikib qo'yadi yo ko'mib qo'yadigan pinhon joyi bor, deb o'ylardi, biroq bularning bari faqat taxminlar edi, xolos, pullarning qayerga sarflanayotgani hamma uchun jumboq edi. Ahyon-ahyonda uni savolga tutishardi:

– Hoy, Fertig, pullarni to'yga yig'yapsanmi? Ularni qayerga yashirgansan?

– Yaratganga, yaratgan egamga jo'natyapman!.. Huv anov yerga! Yashasin, Shveytsariya qirolligi! Fertig!

Shveytsariya so'zi uning butunjahon geografiyasiga oid bilimlari xazinasining bor boyligi edi. Dunyoda jamiki ilmga, odamiylikka, go'zallikka xos ajoyib tushunchalarning bari uning miyasida shu so'z bilan bog'langan edi.

– Ajabo, qanday hurliqo! U haqiqiy shveytsariyalik! – yonidan go'zal qiz yo ayol o'tib qolgan-

da shunday deya benihoya hayrat ichra hayqirib yuborar, ular Fertigning xushomadidan loladay qizarib ketishardi.

Kamina Pavlening e'tiboriga sazovor bo'lgani uchun ham „shveytsariyalik“lar qatoriga kirardim. Har safar shapkasi yonimdan suzib o'tganda u meni shunday unvon bilan taqdirlardi... Ba'zan Pavlening bizni zavqlantiradigan sho'xliklari va masxarabozlarga xos qiliqlarini kuzatib, ich-ichimdan qandaydir tushunuksiz iztirobni tuyardim. Umrini behuda o'tkazayotgan maqsadsiz bekorchilarning tahqirlashi va xo'rashlariga nishon, tabiat siqib qo'ygan qariyb yigirma yoshli bu telba yigit negadir menga inson qalbi yetishi mumkin bo'lgan ulkan baxtsizlikning quvnoq yozg'irig'i, izohlab bo'lmas shafqatsiz jumbog'iday tuyuldi. Abadiyga muvozanatini yo'qotgan, sog'lom fikrlashdan mahrum, najotsiz tiyra zulmat qa'riga cho'kayotgan, bechora Pavlening bemor qalbi o'kinch tuyg'usini o'ldirish uchun istasa ham, istamasa ham kulish va kulgini uyg'otishga mahkum... U baxtlimi yo baxtsiz... Uning qalbida telbalarga xos ahmoqona va qo'pol hazillarga moyillikdan boshqa qandaydir yuksak insoniy to'yg'ular ham yashirinmi? Bu noma'lum edi. Ehtimol, yo'q. Axir bu hislar mavjud edi! Nima bo'lganda ham, u doim xushchaqchaq! Masxarabozlarga xos qiliqlari bilan odamlarni kuldirish, ko'nglini ko'tarish va buning uchun o'zi ishlatmaydigan sadaqalarni olish manglayiga bitilgan, o'zgarmas, chehrasi ochiq, quvnoq, besar telba...

Biroq bir voqeа bu noma'lum qalbni yoritib yubordi va ko'z oldimda Pavlening qadri oshdi.

Men o'zim turgan mehmonxonaning qahvaxo-nasida o'tirib, o'tgan asrlar va keksa tarix ruhi ufurib turgan krepostnoylar davrida bunyod etil-gan devorlarga tikilib tamaki chekayotgandim.

Daf'atan qayerdandir jilmaygancha quvnoq Pavle paydo bo'ldi.

– Senga kim kerak, Pavle?

– Sen, biroq bu yerda yana birov bormi yo yo'qmi, deb qarayapman, – javob qildi u.

– Nega?

– Birorta ahmoq bosh yo'qmikan...
– Yo'q, yo'q. Bu yerda faqat ikki shveytsar, sen va men bormiz, – dedim jilmayib.

Pavle yirtilib ketgan ko'ylagining qo'lтиq kissalarini kovlashtira boshladи.

– Fransuzcha yozishni bilasan-a, shunday-mi? – so'radi u ustida yozushi yo'q ko'k konvertni cho'ntagidan chiqararkan.

– Xat? Bu qanday xat?

– Shveytsariya qirolligiga. Ho'p! U sakrab, konvertni menga uzatdi.

– Mana bu yerga ukamning ismini fransuz-chalab yoz.

– Yaxshi. Bu noma o'zi qayerga boradi?

– Shveytsariya qirolligiga. Svoyak Matyu ich-karisiga yozib berdi, tashqarisiga esa yozolmas ekan... ahmoq bosh...

– Nima! Shveytsariyaga? Hali sening ukang o'sha yerdami? – dedim men va darhol Pavle-ning bechora ongi Shveytsariyani nega bu qadar yuksak qadrlashini tushuna boshladim. – Qaysi shahriga?

– Friburgga deb yoz!

Uning iltimosini bajarib, manzilni fransuz-chalab yozarkanman, Pavlening nomlarni xotirasiswa saqlab, to'g'ri talaffuz qilayotganiga hayron goldim.

- Yashavor, shveytsar! – maqtab qo'ydi u meni.
- Ukang u yerda nima ish qiladi?
- Aql yig'ib, o'qiyapti.
- Nimalikka o'qiyapti?
- Vrachlikka.
- Juda yaxshi.
- Ukam bugun o'qishni tugatsa, erta darhol ortiga qaytadi va shu yerga kelib, odamlarni davolaydi. Kim kasal bolsa, o'shani davolaydi, bilingmi...

Pavle ikki marta o'mbaloq oshib, xatni yana qo'liga oldi va ketishga hozirlandi.

- To'xta, qayerga shoshyapsan?

U ro'paradagi restoranga ishora qildi. U yerda esa soyabon ostida bir guruh erkak va ayol o'tirardi.

– Huv anov yerga... poyezdni Plovdivga olib boraman, Fertig!

Uning oqargan sepkilli yuzida tabassum o'y-nardi, ko'zlarida esa sabrsiz quvonch porlardi.

– Ukangga nima deb yozding? Sog'liq tiladingmi?

– Ha-ha, omonlik tiladim, biroq birgina istaking o'zi kamlik qiladi-da...

- Ukangni kim ta'minlaydi?

– Nima?

– Ukangga kim pul beradi deyman?

– Pul? Yana qanaqa pul!

– U stipendiya oladimi?

- Nima?
- Davlat unga pul beradimi?
- Parvardigor.
- Qanaqasiga, Parvardigor?
- Parvardigor emas, ahmoqbosh!..

Men hayrat bilan unga tikildim va:

– Pavle, nega savollarimga odamga o'xshab javob bermaysan-a, nimaga o'zingni jinnilikka solasan? – so'radim jahlimni yashirolmay.

– Men senga aytdim-ku! Fertig, fertig, fertig!.. Pip-pix, pix-pix, – u poyezdga o'xshab pishqirib, ro'parada o'tirgan odamlarning yoniga yugurib ketdi.

Kechqurun Pavlega qarindoshchiligi bor, Matyu baqqolga duch keldim va Pavlening mujmal luqmalarini to'g'ri angladimmi yo yo'qmi, shuni bilmoxchi bo'ldim. Matyu uzoq chaynaldi, lekin shunday dedi:

– Pavlening jahli chiqadi, jim yurishimni so'raydi, bu bilan u ukasini isnodga qo'yishdan qo'rjadi, biroq mayli, sizga aytaman. Gap shundaki, Pavle ikki yildan beri topayotgan sadaqalari bilan ukasini ta'minlaydi... Avvaliga ukasining qanchadir aqchasi bo'lgan, ammo ko'p o'tmay ular tugab qolgan, shuning uchun u o'qishni tashlab ketmoqchi edi... Biroq Pavle bu haqda bilib qolib, „Yo'q, mumkin emas, o'sha yerda o'qishini tamomlasin!“ deb bunga ruxsat bermadidi, shu vaj bilan tangalarining bir tiyinini ham yo'qotmay, o'sha yoqqa jo'natyapti. Jigarini odam qilish uchun erta-yu kech tinim bilmaydi bechora... Akalik mehri, janob. Esipastdir u, ammo, ko'pgina aqli rasolardan yaxshiroq...

Matyuning so'zlarini yaqin oradagi qahvaxona-dan kelayotgan qahqahaning gulduros ovozi bosib ketdi, ichkarida Pavle Fertig yalang oyoqlarini osmonga qilgancha qo'lida yurardi:

- Fertig! Shveytsariya!

*Rus tilidan
Shahnoza RAHMONOVA tarjimasi*

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Frans Kafka. Hukm	5
Jon Golsuorsi. Eski etik	23
Yaroslav Gashek. Tog'likning o'limi	35
Gi de Mopassan. So'qirning qismati	38
Vasiliy Shukshin. Vanka Teplyashin	43
Herman Hesse. Nusxa	54
Karlos Ruiz Zafon. Unutilgan Kitoblar Qabristoni....	62
Somerset Moem. Luiza.....	66
Yuriy Kazakov. Badqovoq	75
Dino Butssati. „Ikar“	82
Aleksandr Kuprin. O'limdan kuchli.....	91
Lev Tolstoy. Illohiy nur	95
Margaret Shteenfatt. Sirli guvoh	99
Gi de Mopassan. Sovuq kunlar	102
Vasiliy Shukshin. Quyosh, chol va qiz.....	111
Aleksandr Grin. Yashil chiroq	119
Uolter Mekkin. Qirol	127
Erix Mariya Remark. Dushman.....	137
Oldes Xaksli. Pushti rang upa.....	147
Ivan Vazov. Pavle Fertig	151

Gashek, Yaroslav.

Tog'likning o'limi. [Matn]: hikoyalar / Yaroslav

G 78

Gashek; tarjimonlar Qandilat Yusupova va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-8576-0-5

UO'K: 821.162.3-32

KBK 84(4Chesh)-445

Adabiy-badiiy nashr

TOG'LIKNING O'LIMI

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2022

Muharrir

Malika Kamolova

Badiiy muharrir

Bahodir Ibragimov

Musahhih

Zikrilla Mamatov

Sahifalovchi

O'g'iloy Qurbonova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

09.09.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84×108^{1/32}.
Offset qog'izi. „Bookman Old Style“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 1000 nusxa. Shartnoma № 45-22.

Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlod“ bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlod“ MCHJ

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 60-uy.



ZIYO NASHR



fb.com/zizo.nashr
zizonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-8576-0-5

9 789943 857605